H.Z.Astanov

# PUL-KREDIT ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH

"Tafakkur Bo'stoni"
Toshkent – 2015

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Astanov X.Z.

# PUL-KREDIT ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5230700 – "Bank ishi" bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan*

Toshkent-2013

UO'K: 336.7(075)
65.262
A85
Astanov X.

Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish [Matn] : o'quv qo'llanma / Astanov X. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. -160 b.

KBK-65,262ya73

Ushbu o'quv qo'llanma Kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan.

O'quv qo'llanmada erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirish asoslari, pul massasini boshqarish, ularning ob'ekti, sub'ekti va maqsadlari, pul-kredit siyosatining nazariy asoslari hamda Respublikamizda emissiya-kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibi yoritilgan. Markaziy bankning maqomi, uning pul-kredit siyosatini amalga oshirish instrumentlari talqin qilingan.

***Taqrizchilar:*** **T.I.Bobakulov** - iqtisod fanlari doktori
**I.R.Toymuxamedov** – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

SBN - 978-9943-993-05-1

© "Tafakkur Bo'stoni", 2015
© Astanov X., 2015
© Ilm - Ziyo nashriyot uyi

# Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini barqarorlashtirish doimo iqtisodiyotni inqiroz holatidan qutqarishning eng dolzarb shartlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tangliklar esa turli mamlakatlarda turli ko'lamda bo'lishi bilan birga mamlakatning moliya, pul-kredit tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, moliya, pul-kredit tizimi va siyosatlarining takomillashib borishi mamlakat iqtisodiy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib qoladi. Ayniqsa, iqtisodiy globallashuv, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integrallashuvining o'sib borishi sharoitida pul muomalasining barqarorligini taminlash, masalasi etiborli ahamiyat kasb etadi. Prezident Islom Karimov bu haqda "Joriy yilda mutanosib qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish davom ettiriladi, inflyatsiya ko'rsatkichlari 7-9 foizni tashkil qiladi. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 12 foiz darajasida saqlanadi.

Bu borada bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank aktivlari va kredit portfelining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi. Bank tizimi jami kapitalini kamida 20 foizga ko'paytirish mo'ljallanmoqda"[1], deb ta'kidlaydi. Pul muomalasini barqarorlashtirish iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Boshqaruvning iqtisodiy usullariga o'tish, bozor munosabatlarining tarkib topishi bank tizimida chuqur o'zgarishlar yuzaga kelishiga va iqtisodiyotga pul-kredit orqali ta'sir ko'rsatishning yaxlit mexanizmi yaratilishiga sabab bo'ldi. Pul-kredit munosabatlarini muvo-

[1] *I.A.Karimov "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 19.01.2013.*

SAMARQAND IQTISOD... VA SERVIS INSTITUTI AXBOROT-RESURS MARKAZI

fiqlashtirishning nazariy asoslari pulning miqdoriylik nazariyasi va uning keynscha va monetarpul nazariyalari bo'lib, iqtisodiyotni pul-kredit siyosati orqali muvofiqlashtirishning nazariy asosining o'zagi hozirgi zamon talqini hisoblanadi. Hozirgi zamon pul-kredit siyosatining institutsional asosini bozor mexanizmi tashkil etadi. Bozor tizimida kredit resurslari bozori va pul bozorining iqtisodiyotni muvofiqlashtirishdagi o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, pul bozorida unga bo'lgan talab va taklif mujassamlashadi va uning zamirida baho, yani suda foizi aniqlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali bank tizimining tashkil etilishi va qonun asosida Markaziy bankka pul muomalasini muvofiqlashtirish vazifasining yuklatilishi Markaziy bank tomonidan ushbu maqsadga erishish uchun mustaqil ravishda pul-kredit siyosati yuritilishini talab qiladi. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirishdan asosiy maqsad mamlakat pul birligi qadrsizlanishining oldini olishdan iborat. Pul birligi qadrini ta'minlash esa pul muomalasini tartibga solish, muomaladagi pul massasini boshqarish bilan amalga oshiriladi. Muomaladagi pul massasini uning naqd pulga aylanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda pul agregatlariga ajratish va ularni iqtisodiyotning holatiga mos ravishda boshqarish talab etiladi. Muomaladagi pul massasini iqtisodiyotning o'sish yoki tanazzul holatiga muvofiqlashtirish esa pul-kredit siyosatidan foydalanishni taqozo etadi. Pul-kredit vositasi orqali bozoridagi pul taklifi, talabiga yoki uning bahosiga ta'sir ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, pul bozorida "arzon" yoki "qimmat" pullarni tashkil etish orqali muomaladagi pul miqdori iqtisodiyotning holatiga muvofiqlashtiriladi. Hozirgi vaqtda Markaziy banklar pul-kredit siyosatining diskont yoki qayta moliyalashtirish, ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy zahira me'yori, valyuta siyosati va boshqa vositalardan keng foydalanadi. Biri yoki bir nechta vositadan tanlab foydalanish ularning samaradorlik darajasiga bog'liq. Bozor iqti-

sodiyotiga o'tish jarayonida kassa-emissiya ishlarini to'g'ri tashkil etish, naqd pul aylanishini doimiy ravishda bashoratlab borish ham pul muomalasini tartibga solishning muhim usullaridan hisoblanadi. Bular orqali naqd pulga bo'lgan talab va uning o'z vaqtida to'laqonli ravishda qondirish masalalari hal qilinadi.

# I BOB. IQTISODIYOTNI PUL-KREDIT ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH ASOSLARI

## 1.1. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish fanining tarkibiy tuzilishi, mezonlari va xususiyatlari. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirishning iqtisodiy asoslari.

Tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi davrida pul muomalasi, uni to'liq o'rganish, boshqarish va tahlil qilish muammolari iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborida bo'ldi.

Ayniqsa, monometal va bimetallardan foydalanilgan davrdan so'ng muomalada haqiqiy real pullar o'rniga ularning o'rinbosarlari qog'oz va kredit pullarning paydo bulishi, ularning iqtisodiy tarakkiyotning ma'lum fazalarida sotib olish quvvatining o'zgarishi, muomaladagi tovarlar va xizmatlar xajmi bilan pul massasi o'rtasidagi bog'liklikiar chukur iqtisodiy tahlilga asos bo'ldi.

Bular rivojlangan tovar-pul munosabatlari mavjud shar-tsharoitda pul muomalasini iqtisodiy, ilmiy asoslangan ravishda boshqarish lozimligini takozo etadi. Natijada, rivojlanishning turli bosqichlarida iqtisodchi olimlar tomonidan pul nazariyalari, pul-kredit siyosati, monetar siyosat to'g'risida alohida ilmiy izlanishlar olib borildi. Ular haqida uquv qo'llanmaning keyingi boblarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish fani pul muomalasini boshqarish, muomaladagi pul miqdori va uning tarkibiy qismi, pul muomalasini muvofiqlashtiruvchi organ, pul muomalasini muvofiqlashtirish usullari, tamoyillari hamda Markaziy bank tomonidan pul muomalasini muvofiqlashtirish maqsadida qo'llaniladigan pul-kredit siyosati, ularning mohiyati va maqsadini o'rganadi

Shu bilan birga, muomalaga naqd pul chiqarish, muomaladagi vaqtincha ortiqcha pul mablaglari zahirasini yaratish hamda iqtisodiyotda kassa amaliyotini tashkil etish tartiblari o'rganiladi.

Muomala uchun zarur bo'lgan naqd pul miqdorini oldindan bashoratlab borish maqsadida banklar tomonidan kassada pul aylanishini oldindan prognozlash tartibi o'rganiladi.

Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish fanining nazariy asosi «Iqtisodiyot nazariyasi», «Pul, kredit va banklar» kabi nazariy fanlar hisoblanadi. Fanni o'rganishda yetakchi pul-kredit, monetar nazariy qarashlar asos qilib olingan.

Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish fani "Monetar siyosat", "Pul, kredit va banklar", "Bank ishi", "Bank menejmenti va marketingi", "Banklarda buxgalteriya hisobi" kabi amaliy fanlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki pul muomalasini boshqarish Markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Uning samaradorligi butun bank tizimi faoliyati va barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirish, real bozor sharoitida pul taklifi va unga bo'lgan talabni tartibga solish, iqtisodiyotga pul-kredit orqali ta'sir ko'rsatish, iqtisodiyotni muvofiqlashtirishning eng muhim unsuri hisoblanadi. Pul-kredit vositasida iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish, asosan mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlash, kasod jarayonini jilovlash, tovar-pul munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga to'liq xos va mos ravishda amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy pul-kredit siyosatining institusional asoslaridan biri bozor tizimi hisoblanadi.

Pul-kredit sohasida bozor tizimisiz ikki pog'onali bank tizimining samarali faoliyat yuritishini tasavvur etish qiyin. Bozor iqtisodiyoti pul-kredit vositasida iqtisodiyotni muvofiqlashtirishning

bosh mezoni hisoblanadi. Unda har hil muddatlarga mo'ljallangan kreditga bo'lgan talab va taklif. pul bahosi (foizlar) kabi monetar siyosatning asosiy unsurlari vujudga keladi.

Pul-kredit sohasida bozorlarni tasniflash asosida asosan quyidagi uch belgi yotadi: bitim ob'ekt, qatnashuvchilar tarkibi va bitim muddati. Bular inobatga olingan holda bozorlarning ikki turi farqlanadi. Ular kredit va moliya bozori, oxir oqibatda, ular ham aniq sohalarga ajraladi.

Kredit bozorlari banklararo kredit resurslari va pul bozorlarini o'z ichiga oladi. Banklararo kredit resurslari bozori ishtirokchilari faqat banklar hisoblanadi va u yerda banklarning likvidliligini doimiy ravishda ushlab turish maqsadida, ya'ni aktiv va passiv operatsiyalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun, asosan, qisqa muddatli vaqtincha bo'sh pul resurslari savdosi amalga oshiriladi. Banklarning mulkchilik shakllaridan qat'iy pazar bir-birlariga kredit resurslarining sotilishi va sotib olinishi ular o'rtasidagi bozor tamoyillariga mos ravishdagi gorizontal munosabatlarning kelib chiqishiga asos hisoblanadi.

Pul bozorining ahamiyatli xususiyati uning ishtirokchilari va bitimlarning shakli turli-tumanligidan iborat. Pul bozorining ishtirokchilari banklar, korxona, tashkilot, muassasalar. moliyaviy muassasalar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, kredit uyushmalari, investisya kompaniyalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Pul bozorida unga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda uning bahosi, foiz vujudga keladi.

Ushbu suda foizining darajasi pul-kredit siyosati vositalari ta'sir ko'rsatuvchilar hisoblanadi, ya'ni foiz me'yoriga ta'sir ko'rsatish orqali muomaladagi pul massasiga ta'sir ko'rsatiladi.

Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali muvofiqlashtirishning ob'ekti pul bozoridagi talab va taklif hamda

uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yori hisoblanadi. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish sub'ekti esa mamlakat Markaziy banki hisoblanadi.

## 1.2. Rejali iqtisodiyot sharoitida pul muomalasini boshqarishning ayrim jihatlari

Sobiq Ittifoqning rejali iqtisodiyot davrida pul muomalasini boshqarish ham maxsus rejalarga asoslangan holda amalga oshirilgan. U davrda, ma'lumki, iqtisodiyot mulkchilik shaklinig yagonaligiga, ya'ni davlat mulkining (shaxsiy mulkdan tashqari) hukmronligiga asoslangan.

Pul muomalasi tushunchasi tor ma'noda faqat naqd pul aylanmasini anglatgan. Shuning uchun ham, pul muomalasini muvofiqlashtirish faqat naqd pul aylanmasini boshqarish, uni rejalashtirish va ushbu rejaning barcha bo'g'inlarda bajarilishini nazorat qilish bilan chegaralangan.

Korxona, tashkilot, muassasalarning bank hisob raqamlarida pul mablag'larini tasarruf qilishining qonun-qoidalari davlat tomonidan yaratilgan. Barcha mulk egasi davlat hisoblangan. Ushbu sharoitda butun mamlakat pul aylanmasi ikki qismga : naqd pul aylanmasi va naqd pul ishtirokisiz amalga oshirilgan pul aylanmalariga ajratilgan va yuqorida takidlangani kabi faqat naqd pul aylanmasini rejalashtirib boshkarish orqali pul muomalasini muvofiqlashtirishga erishilgan.

Rejali iqtisodiyot davrida pul muomalasini muvofiqlashtirish uchun quyidagi vositalardan keng foydalanilgan:

1. Davlat banki bo'limlarining kassa rejasi.

2. Aholining daromad va xarajatlar balansi.

3. Davlat banki tomonidan korxona, tashkilot va muassasalar ish haqi fondining ishlatilishi ustidan o'rnatilgan nazorat.

4. Davlat banki tomonidan korxona, tashkilot va muassasalarning kassa intizomiga rioya etishining nazorati.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan naqd pullik va naqd pul ishtirokisiz amalga oshiriladigan hisob-kitoblari amalga oshirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan bank nazorati

Davlat banki bo'limlarining kassa rejasi har bir bak bo'limi tomonidan rejalashtirilayotgan chorak boshlanishidan 0 kun avval mijozlarining kassa rejalari ko'rsatkichlariga asoslagan holda tuzilar edi.

Unda rejalashtirilayotgan chorak davomida bank kassasiga qayerdan va qancha naqd pul kelib tushishi, bank kassasian ushbu davrda nima maqsadlarga va qancha naqd pul berilishi handa muomalaga qo'shimcha naqd pul mablag'lari chiqarilishi yoi muomaladan zahiraga qancha naqd pul mablag'lari olinishini as ettiruvchi emission natija ifodalanishi lozim edi.

Bank bo'limlarida tuzilgan kassa rejasi vertikal ravihda pastdan yuqori tashkilotlarga yuborilar va yuqoridan tasdiqanib quyi organlarga chorak boshlanishidan 10 kun oldin kelib ushar edi. Yuqori tashkilotdan tasdiqlangan reja esa quyi tashkildar uchun bajarilishi shart hisoblangan. Shuning uchun davlat bankbo'limlari tasdiqlangan kassa rejasining bajarilishini doimiy ravisHa kuzatib borishlari shart edi. Kundalik kuzatuvlar natijasida har bsh kunda uning bajarilishi yuzasidan hisobotlar tayyorlanar edi. 510 kunlik hisobotlar tahlili asosida kassa rejasini bajarish chora-tadirlari ishlab chiqilar edi.

Buning uchun kunlik savdo tushumi rejasining bajarishi, mayda ulgurji savdo rejasiga rioya qilinishi, tushumlarning cz vaqtida va to'liq inkassatsiyalanishi, xo'jaliklar tomonidan kasa qoldig'i limitiga rioya qilinishi davlat banki bo'limlari tomonidn doimiy ravishda nazoratga olinar edi.

Yuqoridagilarning barchasi muomaladagi naqd pul massasini tovarlar va hizmatlar hajmi bilan mutanosib ravishda ushlash orqali pul birligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

*Aholi daromad va xarajatlari balansi* ham *asosan naqd* pul migrasiyasini aniqlash va u orqali naqd pul muomalasini boshqarishga hizmat qilgan.

Aholi daromad va xarajatlari balansi asosan choraklarga ajratilgan holda 1 yillik davrga tuzilgan. Unda hudud aholisining yil davomidagi daromadlari va ularning manbalari, xarajatlari va ularning yo'nalishi hamda aholi qo'lida qoladigan pul mablag'larining *o'zgarishi, ko'payishi yoki* kamayishi aks ettirilgan.

Rejali iqtisodiyot davrida davlat banki bo'limlari tomonidan o'z mijozlarining ish haqi fondidan foydalanishi har chorakda bir marta tekshirilib borilgan. Chunki barcha korxona va tashkilotlar davlat mulki hisoblanib, ularga ish haqi fondi davlat tomonidan tasdiqlangan va uning ishlatilishi davlat organi -davlat banki tomonidan nazorat qilib borilgan. Maqsad, ish haqi fondidan foydalanish bilan ishlab chiqarish va hizmatlar ko'lami o'rtasidagi mutanosiblikni ushlab turishdan iborat bo'lgan, ya'ni ish haqining o'sish darajasi ishlab chiqarishning o'sish darajasidan past bo'lishiga erishilgan.

Bundan tashqari, biz yuqorida to'xtalib o'tgan bank bo'limlari kassa rejasining bajarilishini ta'minlashda ham korxonalar ish haqi fondi xarajatlarini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki kassa rejasining chiqim qismini asosan ish haqiga beriladigan naqd pul chiqimlari tashkil etgan.

Rejali iqtisodiyot davrida barcha korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan rioya qilinishi majburiy bo'lgan kassa operatsiyalarini *yuritish qoidalari mavjud* bo'lgan.

Davlat banki bo'limlari - davlatning nazorat organlari sifatida xo'jaliklar tomonidan kassa intizomiga rioya qilinishi doimiy rav-

ishda nazorat qilib borilgan. Maqsad, birinchidan.davlat mulkining butligini nazorat qilish bo'lsa, ikkinchidan, naqd pul muomalasini rejaga muvofiq boshkarish uchun hizmat qilgan. Kassa intizomi nazorat qilinganda, dastavval bank kassasidan olingan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq xo'jalik kassasiga kirim qilinganligi, olingan mablag'larning o'z vaqtida maqsadli ishlatilganligi, kassaga boshqa naqd pul tushumlari va ularning o'rnatilgan muddatida bank kassalariga topshirilishi hamda kassa qoldiklarining bank tomonidan o'rnatilgan kassa qoldig'i limitlariga mos kelish yoki kelmasligi tekshirilgan.

Rejali iqtisodiyot davrida, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, naqd pul aylanmasi va naqd pulsiz hisob-kitoblar oralig'ida mustaxkam "chegara" o'rnatilgan. Naqd pullik hisob-kitoblar doirasi qonun, qaror yoki maxsus yo'riqnomalar bilan belgilab berilgan. Ushbu doiradan tashqaridagi hisob-kitoblar faqat naqd pulsiz, ya'ni hisob raqamlardan pul ko'chirilishi yo'li bilan amalga oshirilgan.

Sobiq ittifoq davrida pul muomalasi ikki qismga, ya'ni naqd pul va naqd pulsiz muomalasiga qat'iy ajratilgan edi.

Yuqorida to'xtalib o'tilgan tadbirlarni amalga oshirgan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini boshqarish yoki tartibga solishning iloji yo'k. Chunki birinchidan. bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning davlat mulkidan tashqari turli shakilari paydo bo'ldi va rivojlandi. Ikkinchidan, mulkchilik shakllarining o'zgarishi natijasida naqd pul aylanmasi va naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasidagi chegara yemirilib, ular o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib boradi. Banklardagi hisob raqam egalari o'zlarining hisob raqamlaridagi mavjud pul mablag'laridan istalgan shaklda tasarruf etish huquqiga ega bo'ldilar.

Shunday qilib, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor qonuniyatlariga mos ravishda pul muomalasini muvofiqlashtirish lozim bo'ladi.

## 1.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirish asoslari

Shunday qilib, erkin bozor iqtisodiyoti davrida pul muomalasi tushunchasi nafaqat muomaladagi naqd pullar aylanishini, balki u bilan birga naqd pulsiz amalga oshirilayotgan hisob-kitoblarni ham o'z ichiga olishi o'z isbotini topgan.

Demak, erkin bozor sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirish deganda, albatta, butun pul aylanmasini, muomaladagi jami pul massasini boshqarish tushuniladi.

Bizga ma'lumki, muomaladagi naqd pul massasi banklar aylanma kassalaridagi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, tashkilot va muassasalar kassalaridagi va aholi ko'lidagi naqd pullardan tashkil topadi.

Muomaladagi pul massasi esa naqd pullardan tashqari naqd pulsiz turli shakllardagi hisob raqamlarda mavjud pul mablaglarini ham o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini boshqarish ularni muayyan pul agregatlariga bo'lib o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Odatda, Ml; M2; MZ pul agregatlariga ajratiladi.

Masalan, AQSh da pul agregatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Ml - naqd pullar va transaksion depozitlardan tashkil topadi. Transaksion depozitlar, o'z navbatida, talab qilib olinadigan depozitlar va boshqa chek depozitlaridan tashkil topadi. Talab qilib olinadigan depozitlar - bu ularning qoldigi uchun, odatda, banklar tomonidan foiz to'lovlari to'lanmaydigan va uning egalariga undagi mablaglardan xohlagan vaqtlarida cheklar va elektron pul o'tkazmalari vositasida foydalanish huquqini beruvchi depozit mablag'lardir. Boshqa chek depozitlari - bu ularning egalariga foiz daromadini olish huquqini beruvchi va undan mablaglardan chek yoki elektron to'lovlar vositasida foydalanishi mumkin bo'lgan depozitlardir.

M2 - pul agregati. MI pul agregati bilan jamg'arma depozitlar, muddatli omonatlar, bir kunlik qayta sotib olishga kelishilgan kelishuvlar, yevrodollarlardagi bir kunlik zayomlar hamda pul bozorining oila xo'jaligiga tegishli bo'lgan o'zaro fondlaridan tashkil topadi.

Jamg'arma depozitlar - foiz shaklida daromad keltiruvchi depozit institutlaridagi depozitlar bo'lib, ularning egalari xohlagan vaqtda uni olish huquqiga egadirlar. Ular chekdan foydalanish orqali tasarruf etish huquqini bermaydi.

Muddatli omonatlar - depozit institutlaridagi shartnoma orqali kelishilgan muddatgacha saklanadigan va egasiga ushbu davr mobaynida foiz shaklida daromad keltiruvchi mablag'lardir. Qayta sotib olishga kelishilgan bir kunlik bitimlar (RP) - firma yoki jismoniy shaxs tomonidan moliyaviy muassasalardan qimmatdor qog'ozlarni sotib olishga va bir kundan keyin kelishilgan baholarda qayta sotishga kelishilgan bitimlar.

Yevropadagi bir kunlik zayomlar - AQSh dan tashqaridagi depozit institutlarining bir kunga sotib olib keyin kayta sotish uchun kelishilgan qisqa muddatli aktivlari.

MZ - pul agregati - M2 pul agregati, depozit sertifikatlari, muddatli RP va yevrodollarlardagi muddatli zayomlar hamda pul bozorining MI fondlari aksiyalari. Depozit sertifikatlari - bu, odatda, $100000 dan kam bo'lmagan miqdordagi muddatli depozitlardir.

AQSh da to'rtinchi pul agregati ham mavjud bo'lib, unga M3+qisqa muddatli xazina majburiyatlari+korporativ qimmatdor qog'ozlar–jamg'arma obligatsiyalari+bank akseptlari kiradi.

Turkiyada pul agregatlari quyidagicha taqsimlanadi:

MI - muomaladagi naqd pullar, talab qilib olinadigan depozitlar, tijorat maqsadidagi talab qilib olinadigan depozitlar va Turkiya markaziy bankidagi depozitlardan tashkil topadi .

M2 - MI pul agregati, muddatli depozitlar va depozit sertifikatlaridan iborat.

M2 - M2 pul agregati va chet el valyutalaridagi depozitlar.

MZa - M2a pul agregati va davlatning talab qilib olinguncha hamda muddatli depozitlari.

MZ - M2 pul agregati va Turkiya markaziy bankidagi boshqa depozitlardan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda pul muomalasini boshqarishda quyidagi pul agregatlaridan foydalaniladi:

MO - muomaladagi naqd pullar.

Ml - MO pul agregati va talab qilib olinadigan hisob raqamlar qoldiqlari.

M2 - M1 pul agregati va muddatli depozitlar .

MZ - M2 pul agregati, depozit sertifikatlari, maqsadli zayom obligatsiyalari, davlat zayomi obligatsiyalari, xazina majburiyatlaridan tashkil topadi.

## 1.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pul muomalasini barqarorlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Pul muomalasini muvofiqlashtirishda muomaladagi pul massasini pul agregatlariga bo'lib o'rganish va alohida pul agregatiga ta'sir ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirishda pul, kredit multiplikatorlari va ularni to'liq inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit multiplikatorining mohiyati shundan iboratki, kredit tizimining mavjudligi tufayli muayyan tijorat banki tomonidan ochiq bozorlardagi operatsiyalar hisobiga Markaziy bankdan olgan kredit resurslaridan o'z mijozlarini kreditlasa va ushbu mablag'lar boshqa bank mijozlariga o'tkazilsa, boshqa bankda kredit resurslarining ko'payishiga va unda kreditlash imkoniyatining ortib borishiga olib

keladi. Shu tariqa ushbu mablag'lardan boshqa bir bankka o'tishi keyingi banklarda kredit resurslarining ortib borishiga olib keladi. Bu jarayon muomaladagi pul massasining ortib borishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida muomaladagi pul massasini tovarlar, hizmatlar hajmi bilan muvofiqlashtirib borish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi va u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mamlakat pul birligini ayirboshlash imkoniyatini mustahkamlash hamda to'lov balansi holatining yaxshilanishiga hizmat kiladi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtiruvchi organ - markaziy bank, muvofiqlashtirish vositalari, pul massasi, pul agregatlari, pul bozori, pulga bo'lgan talab va taklif, pulning bozordagi bahosi kabi bozor tushunchalari vujudga keladi. Ushbu tushunchalar to'g'risida qo'llanmamizning keyingi boblarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

## Qisqacha xulosa

Tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi davrida pul muomalasi, uni to'liq o'rganish, boshqarish va tahlil qilish muammolari iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborida bo'ldi.

Ayniqsa, monometallizm va bimetall davridan so'ng muomalada haqiqiy pullar o'rniga ularning muqobili qog'oz va kredit pullarning paydo bo'lishi, ularning iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum fazalarida sotib olish quvvatining o'zgarishi, muomaladagi tovarlar va hizmatlar hajmi bilan pul miqdori o'rtasidagi bog'liqliklar chuqur iqtisodiy tahlilga asos bo'ldi.

Bular rivojlangan tovar-pul munosabatlari mavjud shart-sharoitda pul muomalasini iqtisodiy, ilmiy asoslangan ravishda boshqarish

lozimligini taqozo etadi. Natijada, rivojlanishning turli bosqichlarida iqtisodchi olimlar tomonidan pul nazariyalari, pul-kredit siyosati, monetar siyosat to'g'risida alohida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Shunday qilib, erkin bozor iqtisodiyoti davrida pul muomalasi tushunchasi nafaqat muomaladagi naqd pullar aylanishini, balki u bilan birga naqd pulsiz amalga oshirilayotgan hisob-kitoblarni ham o'z ichiga olishi o'z isbotlangan.

Erkin bozor sharoitida pul muomalasini muvofiqlashtirish deganda, albatta, butun pul aylanmasini, muomaladagi ja'mi pul massasini boshqarish tushuniladi.

Bizga ma'lumki, muomaladagi naqd pul massasi banklar aylanma kassalaridagi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, tashkilot va muassasalar kassalaridagi va aholi qo'lidagi naqd pullardan tashkil topadi.

Muomaladagi pul massasi esa naqd pullardan tashqari naqd pulsiz turli shakllardagi hisob raqamlarda mavjud pul mablag'larini ham o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlak[illegible] pul massasini boshqarish ularni muayyan pul agregatlariga b[illegible] o[illegible]sh orqali amalga oshiriladi.



SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

yilda Germaniyada kiritilgan oltin tanga standarti sabab bo'ldi. K. Knip metal pul nazariyasini yangi sharoitga moslashtirdi, u pul sifatida faqat metalni emas, balki Markaziy bank banknotlarini ham hisoblash mumkin dedi. Agar ular metall bilan ta'minlangan bo'lsa, hech bir cheklovlarsiz almashtirilsa, pul tizimi mustahkam bo'ladi. Ammo bu muvozanat urushlar tufayli buziladi. Oltinning erkin pulga almashishi, chetga chiqarilishi bekor qilinadi.

Birinchi jahon urushidan keyin oltin quyma standarti joriy qilindi. Uning oltin tanga standartidan asosiy farqi muomaladagi banknotlar endi oltin quymaga (12-12,5 kg) almashtirila boshladi. Bu asosan xalqaro bozorlarda qo'llaniladigan bo'ldi. Kupgina davlatlarda banknotlarni oltinga almashtirish amaliyotda bekor qilindi. Oltin quyma standartiga kirmagan davlatlar o'z valyutasi (pullar)ni unga kirgan davlatlar devizlariga (valyutalariga) almashtirish ko'zda tutilgan edi. AQSh dollari asosiy deviz (valyuta) hisoblanib qoldi.

Nominallik pul nazariyasi - oldingi nazariya singari burjuaziya ilk rivojlanishi davriga to'g'ri keladi va Angliyada paydo bo'ldi. Bu nazariya vakillari Dj. Berkli va Dj. Styuartlardir. Ularning asosiy g'oyasi- muomalada yemirilib to'la qiymatga ega bo'lmagan tangalar *ham nominaliga qarab teng muomalada bo'lishini yoqlashdir. Unga* ko'ra puldagi oltinning qiymati muomalada ahamiyat kasb etmaydi, nominalida kancha ko'rsatilgan bo'lsa, shu asosiy o'rin tutadi.

Nominalizmning keyingi rivojlanish bosqichi XIX asr oxiri XX asr boshlaridir. Bu davrda nominalik g'oyasi vakillaridan biri G.Knapdir. G.Knap va uning izdoshlari oldingi nominalistlardan farq qilib, to'la qiymatga ega bo'lmagan tangalarga emas, balki qog'oz pullarga asoslangan edilar. Ular pul massasini hisoblayotganda davlat xazina biletlarini va almashadigan tangalarni e'tiborga olib, kredit pullarini (veksel, chek. banknotlarni) izlanishlaridan chetda qoldirishdi.

Har hil mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotining rivojlanishida pul va kredit kategoriyalari mohiyati o'zgarishsiz qoladi va pul-kredit vositasi tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflarga ehtiyoj seziladi.

Hozirgi vaqtda pul to'grisida turli hil nazariyalar mavjud bo'lib, ular uz mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi turli oqimlarga birlashib ketgan. Ana shu oqimlar monetarizm va keynschilik oqimini, shubxasiz nazariyalar ichida eng yirik va eng yetakchi g'oyaviy yunalish sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Ammo har ikkala (maktab) nazariyalarini o'rganishdan oldin ularning vujudga kelishiga asos bo'lgan - klassik miqdoriylik nazariyasidir. Ularning asoschilari bo'lib- A.Smit, U.Petti, D.Rikardo, D.Fullarton, A.Marshall, I.Fisher, A.Pigu va boshqalardir. Ular keynschilik va monetarizmga qadar pulga bo'lgan talab muomala uchun zarur pul massasi, almashuv tenglamasi kabi masalalarni chuqur tahlil qilib, o'zining qarashlarini vujudga keltirgan.

## 2.2.Fisherning pulga bo'lgan talab bo'yicha nazariyasi va modeli. Keyns nazariyasining asosiy yo'nalishi

Pulning miqdoriylik klassik nazariyasi asoschilaridan biri Irving Fisherning 1911 yilda nashr qilingan "Pulning harid quvvati" kitobida pulga bo'lgan talabni aniqlash uchun quyidagi formulni keltiriladi:

$$V=P*Y/M \qquad (1)$$

Unda Fisher umumiy pul miqdori M (pul massasi) va ishlab chikarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarni sotib olishdagi yalpi xarajatlar R* Y o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan.

Bunda: R - baholar darajasi: Y - yalpi ishlab chiqarish (yoki yalpi ichki mahsulot sifatida ishlatish mumkin);

***V - M va P*Y*** larni bog'lovchi o'zgaruvchini - pulning aylanish tezligi deb atash mumkin.

Demak, pulning aylanish tezligini V yalpi xarajatlarning (P*Y) pul massasiga nisbati sifatida qarash mumkin. Masalan: agar yil davomida nominal yalpi ichki mahsulot (YIM) 5 trln. dollarga, pul taklifi M - 1 trln. dollarga teng bo'lsa, pul aylanish tezligi 5 martaga teng bo'ladi.

Yuqoridagi tenglamaning har ikkala tomonini M ga ko'paytirish orqali almashuv tenglamasini hosil qildi. Almashuv tenglamasi nominal daromad, pul miqdori va ularning aylanish tezligini ifodalaydi.

$$M*V=P*Y \qquad (2)$$

Yuqoridagi tenglamadan ko'rinadiki, yil davomida pul aylanish tezligining pul miqdoridagi nominal daromadga (ya'ni yil davomida sotib olingan tovarlar va xizmatlarning nominal qiymatiga) teng bo'lishi kerak.

1. Fisherning fikricha. iqtisodiyotda pul aylanish tezligini moliyaviy institutlar aniqlaydi. Lekin bu institutlar pul aylanish tezligiga juda sekin ta'sir qiladi, shuning uchun qisqa davriy oraliqda pulning aylanish tezligi doimiy degan taxmin almashuv tenglamasini pulning miqdoriylik nazariyasiga aylantirdi. Chunki bunga ko'ra nominal YIM mutlaq ravishda pul massasining tebranishlari orqali aniqlanadi. Natijada pulning miqdoriylik nazariyasidan kelib chiqadiki, agar M ikki xissa oshsa, R ham ikki xissa oshishi kerak, chunki V va Y lar doimiy (o'zgarmas) holda qoladi.

Yuqorida keltirgan misolimizda yalpi ishlab chiqarish 5 trln. dollarni tashkil etadi, pulning aylanish tezligi esa Y=5 va pul taklifi M=1 trln. dollar, bu esa baholar darajasining teng ekanligini anglatadi. Pul taklifining 2 trln. dollargacha ko'payishi sharoitida baholar darajasi 2 barobar oshadi, chunki 2*5=10 trln. Dollarlik nominal YIMga tenglashadi.

Yuqoridagi fikr va misollarni birlashtiradigan bo'lsak, Fisherning fikricha, muomala uchun zarur pul miqdori (pulga bo'lgan ta-

lab) YIM doirasidagi bitimlar xajmi bilan va bu bitimlarni amalga oshirish uchun moliya institutlari tomonidan pul taklifi aniqlanadi, bu esa pulning aylanish tezligini ham aniklash imkoniyatini beradi. Irving Fisher o'zining pulga bo'lgan talabning miqdoriylik nazariyasini yaratgan vaqtda Kembrij maktabi vakillari Alfred Marshal va Artur Sesil Pigu ushbu sohadagi tadqiqotlar bilan shug'ullandilar. Ularning tadqiqotlarining natijasi Fisherning (M*V=P*Y) tenglamasiga o'xshash tenglamaga olib kelgan bo'lsa-da, muammoga yondashuv mutlaqo boshqacha edi. Kembrij maktabining vakillari pulga bo'lgan talabning bitimlar xajmiga va institusional omillarga bog'liqligini o'rganishning o'rniga ma'lum holatlarda insonlar va xo'jalik sub'ektlar qo'lida qancha miqdorda pul ushlab turishni xohlaydilar, degan savol qo'yiladi. Kembrijcha modelda sub'ektlar kredit kartochkalaridan foydalanish imkoniyati bo'lmaganda ularda erkin qaror qabul qilish imkoniyati borligi hisobga olindi.

I.Fisher qisqa muddatli davriy oraliqlarda pul aylanishi tezligi o'zgarmasdir, deb hisobladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Kembrij maktabining vakillari I. Fisher xulosasidan farq qilib, u foiz stavkasi to'g'risida pulga bo'lgan talabning o'zgarishini istisno qilmaydi. Bu olimlarning fikricha, odamlarning qo'llarida pul ushlab turishlariga asos bo'luvchi pulning ikki xususiyatini ajratib ko'rsatishadi:

1. Almashuv vositasi: Sub'ektlar bitimlarni amalga oshirayotgan vaqtlarida pul almashuv vositasi sifatida amal qiladi. Kembrij maktabining vakillari Fisherning pulga bo'lgan talab bitimlar xajmiga bog'liq va pulning bitimlarni amalga oshirishi uchun talabi nominal YIMga proporsional ekanligi to'g'risidagi fikriga qo'shiladilar.

2. Boylikni saqlash vositasi: Modomiki, pul boylikni saqlash vositasi ekan, pulga bo'lgan talab ushbu boyliklar miqdoriga ham

bog'lik degan fikrni ilgari suradi. Boyliklarning oshishi bilan sub'ektlarda ularni har hil aktivlarga joylashtirish zaruriyati tug'iladi.

Natijada, Kembrij maktabining olimlari pulga bo'lgan talab nominal YIMga proporsional degan xulosaga kelishdi va pulga bo'lgan talab funksiyasini quyidagi tenglama tarzida ifoda etishdi.

$M^d=K*PY$

Ularning modeliga ko'ra iste'molchilar qo'llarida qancha pul bo'lishi kerakligini o'zlari hal qiladi. Bu esa K - (proporsionallik koeffisienti) ning qisqa muddatlar ichida tebranishlarda bo'lishini ko'zda tutadi. Vaholanki, pullardan boyliklarni saqlash usuli sifatida foydalanish to'g'risidagi qaror qabul qilish, boshqa aktivlardan kutiladigan daromadlarga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, boshqa aktivlardagi xususiyatlarning o'zgarishi K ning ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan farq I. Fisherning Kembrij maktabi vakillari fikrlaridan farqni anglatadi.

Jon Meynard Keyns Kembrij maktabining eng so'nggi vakillaridan bo'lib, ularning fikrlarini rivojlantirdi. Keynschilik nazariyasi asosan XX asrning 30-yillarida yaxlit g'oyaviy oqim sifatida to'liq shakllandi. Uning asoschisi XX asrning eng mashxur iqtisodchilaridan biri Buyuk Britaniyalik olim J.M. Keyns edi.

Ma'lumki, J.M. Keynsning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936 y.) kitobida pulning aylanish tezligi doimiyligi to'g'risidagi klassik yondashuvdan batamom voz kechdi va asosiy e'tibor foiz stavkasining ta'siriga qaratilgan pulga bo'lgan talab nazariyasini ishlab chiqdi. Keynsning pulga bo'lgan talab nazariyasi likvidlilikka ixlos qo'yish nazariyasi nomini oldi. Ushbu nazariyada ham sub'ektlar o'zlarida qancha pul saqlaydilar? degan savol ko'rib chiqildi. Lekin Keyns o'zidan oldingi iqtisodchilardan farqli o'laroq, sub'ektlarning qo'llarida naqd pullarni ushlab turish sabablarini ochib beruvchi omillarni ajratib ko'rsatdi.

U pulga bo'lgan talabni aniqlovchi uch omilni quyidagicha shakllantirdi: 1) bitimlar omili; 2) ehtiyotkorlik omili; 3) chayqov omili.

Bitimlar omili - sub'ektlar o'z aktivlarining ma'lum bir qismini to'lov vositasi sifatida ishlatish uchun pul shaklida saqlaydilar. Bu omilni Keyns transaksion omil deb atadi.

Ehtiyotkorlik omili - sub'ektlar aktivlarning bir qismini pul shaklida saqlash ko'zda tutilmagan xarajatlarni talab qiluvchi tasodifiy hodisalar, qulay bitimlarni amalga oshirish imkoniyatlari hamda qo'shimcha pullik majburiyatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Chayqov omili - Keyns barcha sub'ektlar o'z aktivlarini ikki shaklda - pullar (muddatsiz hisob raqamlar) va uzoq muddatli obligatsiyalar ko'rinishida saqlaydilar, deb hisoblaydi. Obligatsiyalarning pullardan afzalligi shundaki, ular foiz, ya'ni daromad keltiradi. *Ayni vaqtda obligatsiyalarning bahosi qimmatdor qog'ozlar* bozoridagi foiz stavkasining o'zgarishi tufayli har hil bo'ladi. Bu esa tavakkalchilik, ya'ni jiddiy xavf-xatardir. Suda foizi me'yorining pasayishi obligatsiyalar kursining o'zgarishiga olib keladi. Aksincha, suda foizi me'yorining oshishi ular kursining pasayishiga olib keladi. Ana shu zarardan qochish uchun aktivlarning ma'lum qismini pulli depozit shaklida saqlashni Keyns chayqov omili deb ataydi.

Shuni alohida ta'kidlab aytish lozimki, agar Keynsning nazariyasi faqat transaksion va ehtiyotkorlik omili bilan chegaralanganda edi, daromad esa pulga bo'lgan talabning yagona aniqlovchisi bo'lardi va Kembrij maktabi vakillarining yondashuvlariga hech qanday yangilik kirita olmagan bo'lardi.

Ammo Keyns sub'ektlar o'z boyliklarining bir qismini pul shaklida saqlashlariga qaror qabul qilishiga ta'sir etuvchi omillarni sinchkovlik bilan o'rgandi. Kembrij maktabi vakillarining "pulga

bo'lgan talab boylikning zahirasi bilan aniqlanadi va u daromadga proporsional" degan fikrdan farqli ravishda, pulga bo'lgan talab foiz stavkasiga ham bog'liq deb hisobladi. Keynsning tadqiqotlaridan shunday xulosa qilish mumkin; foiz stavkasining o'sishi bilan pulga bo'lgan talab pasayadi.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, Keynsning fikricha, pul miqdorining o'zgarishi bevosita foiz stavkasiga ta'sir qiladi. Ya'ni agar muomalada pul miqdori oshsa, foiz stavkasi pasayadi. Aksincha, agar pul miqdori kamaysa, foiz stavkasi oshadi.

Keynscha pul nazariyasidagi asosiy qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Bozor iqtisodiyoti qo'shimcha, kutilmagan muammolarni o'z ichiga oluvchi beqaror tizimdan iborat. Shuning uchun davlat iqtisodiyotni boshkarishning turli hil, shu jumladan, pul-kredit vositalaridan doimiy ravishda foydalanishi kerak.

2. Pul taklifi va nominal YMM ning sabab-oqibatli bog'lanish zanjiri quyidagicha- pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, investitsiyaviy talabning o'zgarishiga va multiplikativ ta'sir orqali nominal YMM ning o'zgarishiga olib keladi.

3. Keynschilikning asosini tashkil etuvchi asosiy nazariy tenglama:

YOG+I+NX Bunda: Y- nominal YMM, S - iste'mol xarajatlari;

G- tovarlar va xizmatlarni sotib olishda davlat xarajatlari;

I - rejali xususiy investitsiyalar; NX - sof eksport.

4- Keynschilarning ta'kidlashlaricha, pul taklifi va nominal YMM o'rtasidagi sabab va oqibat bog'lanishning maqsadi yetarli darajada katta bo'lib, Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirish chog'ida keng miqyosda iqtisodiy ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Undan tashqari, muomaladagi pulning o'sishi bilan investitsiyalar va bozorning tovarlar va xizmatlar bilan to'lishi o'rtasida ma'lum bir vaqt oralig'i mavjud. Nixoyat, o'zgarmas talab sharoitida pul taklifining oshirilishi iqtisodiyotni "likvidli qopqon" holatiga keltirib, muvozanatni o'zgartiradi, foiz stavkasining tang darajagacha pasayishiga olib keladi, bu esa mutlaq yuqori likvidlilikka ixlos qilishni anglatadi. Agar bunda pul taklifining ko'payishi davom etaversa, foiz stavkasi bunday holatga ta'sir o'tkaza olmay qolishi mumkin, zero foiz stavkasi pul taklifining o'zgarishiga ta'sir etolmasada, bunda muomaladagi pul miqdori va nominal YMM o'rtasidagi sabab-okibat zanjiri uziladi.

5. Yuqoridagi keltirilganlarni hisobga olib, Keynschilar pul-kredit siyosatini iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun u qadar samarali vosita emas deb hisoblashadi va ular fiskal yoki byudjet siyosatini ustun qo'yadilar.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida shunday holatlar yuzaga keldiki, bu holatlarning tub sabablarini Keyns nazariyasining qoidalari doirasida tushuntirib berish mumkin emas edi, chunonchi, 1960-1973 yillarda AQSh yalpi milliy mahsulotining o'rtacha yillik o'sishi 4,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1974-1981 yillarda atigi 2,7 foizni tashkil qildi. 1979 yilda esa ichki baholar o'sishning umumiy sur'ati 12,1 foizni tashkil etgani holda ishsizlik iqtisodiy faol aholining 8 foizidan ortiqroq qismini tashkil qildi[2].

Yukoridagi holatni keynscha konsepsiyaning qoidalari sharhlab bera olmasdi. Chunki iqtisodiy pasayish va ishsizlikka qarshi kurash chora-tadbirlari inflyatsiyaga qarshi siyosatga zid kelib qoldi. Natijada XX asrning 70-yillarida Keynschilik maktabining inqirozi kuzatildi. Iqtisodiy fanda yangi neoklassik yo'nalish, shu jumladan, uning zamonaviy shakli-monetarizm yetakchi o'ringa chiqdi.

[2] *www.federalrezerv.gov sayti ma'lumotlari*

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1970-1980 yillarda boshqa rivojlangan davlatlar kabi AQSh iqtisodiyotida yuz bergan asosiy makroiqtisodiy muammolar: barqaror iqtisodiy o'sish muammosi, to'lov balansi va byudjet taqchilligini bartaraf etish. ishsizlik darajasi va inflyatsiyani pasaytirish hamda moliyaviy barqarorlikka erishish kabi muammolar ko'ndalang bo'lib qoldi. Agar AQSh da 1963 yildan 1993 yilgacha bo'lgan o'ttiz yillik muddat ichidagi davrni tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish beqarorligining guvohi bo'lamiz. Ushbu davrni uchta o'n yillikka bo'lsak ham, keltirilgan raqamlar orqali tahlilimiz o'z isbotini topadi. Agar 1963-1973 yillarda YIMning real o'sishi yiliga urtacha 4,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, inflyatsiyaning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 3,9 foizni tashkil etgan. So'ngi o'n yilda inflyatsiyaning shiddat bilan o'sishi natijasida iqtisodning o'sishi sezilarli darajada pasaydi va inflyatsiya sur'ati yiliga o'rtacha 9,1 foizni tashkil etgani holda, iqtisodiy o'sish o'rtacha 2,4 foizni tashkil etdi. Biroq 1983-93 yillarda amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya darajasi keskin pasaytirildi (o'rtacha 4,2 foiz) va AQSh iqtisodiyotida yana iqtisodiy o'sish kuzatildi, ya'ni YIMning real o'sishi o'rtacha 3,2 foizni tashkil etdi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan davrda inflyatsiyaning keskin oshishi kuzatilgan yillarda YIM o'sishi keskin pasayib ketdi. Bunday iqtisodiy hodisalarning barchasi iqtisodiyotni tartibga solishning an'anaviy tadbirlaridan voz kechishiga va neoklassik yunalishdagi qarashlarning qaytadan uyg'onishiga olib keldi. O'z navbatida, neoklassik maktablarning g'oyalari hilma-hil doktrinalar ko'rinishida maydonga chiqdi, taklif nazariyasi; oqilona kutish nazariyasi; yangi mikro va makroiqtisodiy nazariyalar va h. Biroq shularning ichida asosiy o'rinni yetakchi mavqeni so'zsiz monetarizm egalladi. Zamonaviy monetarizmning asoschisi amerikalik iqtisodchi olim, Chikago

*universitetining professori*, Nobel *mukofoti* laureati M. *Fridman*-dir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, monetarizm nazariyasining rivojlanishida va uning yaxlit fikrlar oqimi sifatida shakllanishida shaxsan Milton Fridmanning xizmati kattadir.

## 2.3. Monetarchilar nazariyasining asosiy yo'nalishi. Keyns va monetarchilar nazariyasining bir-biridan farqli jihatlari

Monetarizmning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Monetarizm nazariyasiga asosan bozor iqtisodiyoti - ichki barqaror tizim. Hamma salbiy holatlar davlatning iqtisodiyotga vakolatsiz aralashuvining natijasidir. Davlatning aralashuvini minimum darajagacha pasaytirish kerak.

2. Pul omili (muomaladagi pul midori) va nominal YIM o'rtasidagi korrelyatsiyaga nisbatan ancha uzviy ekanligi kuzatildi.

Monetarchilar shuni ta'kidlaydilarki, muomaladagi pul miqdori va milliy iqtisodiyot doirasida sotilgan tovarlar va xizmatlar xajmi o'rtasida ma'lum b[illegible]lanish mavjud. Ushbu boglanish I. Fisherning almashuv tengl[illegible]asi y[illegible] boshqacha qilib aytganda pulning miqdoriylik nazariyasi tenglam[illegible] orqali ifodalanadi.

$$M*V=P*Q$$

Bunda, M —muomaladagi pul miqdori, V — pul aylanish tezligi, P -tovar va xizmatlarning o'rtacha bahosi, Q - ma'lum vaqt davrida milliy qtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar miqdori.

P*Q ko'paytma yil davomidagi yalpi pul mablag'lari yig'indisiga teng. Ma'lum bir vaqt oralig'ida sotilgan tovarlar va xizmatlar (Q) taxminan ushbu davrda ishlab chikarishga teng. Bu yerda tenglik *mavjud emas, t vaqt oralig'ida yaratilgan tovarlar qayta sotili*-shi mumkin. Ushbu tovarlar Q ko'rsatkichi tarkibi[illegible] kiradi, joriy

ishlab chiqarish xajmi V. ko'rsatkichi tarkibiga kirmaydi. Chunki umumiy doiraviy aylanmada bunday tovarlarning ulushi juda oz bo'lib, iqtisodchilar Q=V] tenglikka yo'l qo'yadilar. Agar R - ishlab chiqarilgan mahsulot birligining o'rtacha bahosi bo'lsa, u holda

***M*V=P*Y***

Bunda, P*Y ishlab chiqarish xajmining puldagi ifodasi yoki nominal YIM xajmi. Bunda V ni real YIM xajmi sifatida, R ni esa YIM deflyatori sifatida karash mumkin. Bu yerda V, nominal YIM xajmi FM kelib chiqadi.

3. Miqdoriylik nazariyasi tarafdorlari pul aylanishi tezligining doimiyligi to'g'risida ma'lum bir ma'noda yon bosish abstraksiya hisoblanadi, chunki $V_b$ albatta o'zgarmay turadi, lekin u sezilarsiz darajada o'zgaradi. Sezilarli darajada o'zgarish esa pul *muomalasini tashkil etishdagi sifat o'zgarishlari natijasida yuz berishi* mumkin. Bu esa har doim ham bo'lavermaydi va to'la asosda oldindan aytsa bo'ladi (masalan "plastik" pullarni keng miqyosda joriy qilish, bankomat tarmoqlarini kengaytirish va x.k.z. Agar V ko'rsatkich doimiy bo'lsa, uni ma'lum koeffisient K bilan almashtirish mumkin, bunda miqdoriylik nazariyasining tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

***K*M=P*Y***

Ushbu ko'rinishdagi tenglamada nominal YIM xajmi pul taklifiga bog'liq ekanligini ifoda etadi, ya'ni muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi proporsional ravishda nominal YIM ga yoki boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishning puldagi ifodasi pulning aylanish tezligi doimiy bo'lgan sharoitda muomalada pul miqdori bilan aniqlanadi.

M.Fridman pul miqdorining yillik o'sish sur'atini 3-5% oralig'ida bo'lishini taklif qildi. Uning fikriga ko'ra pul miqdorining yillik o'sish sur'ati 3 % dan oshsa YIM ning o'sishi sekinlashadi, 5 % dan yuqori bo'lsa inflyatsiya kuchayadi.

Monetar nazariyasiga M. Fridmandan tashqari, K. Bruner, A. Milser, D. Leydler va boshqalar kiradi. Monetarchilar fikriga ko'ra, pulga bo'lgan talab darajasi yalpi mahsulot va pulning aylanish tezligidan tashqari bank foizi hamda inflyatsiya darajasiga bog'liq. Bank foizlari oshsa, pulga bo'lgan talab qisqaradi va aksincha foizlar tushsa, pulga bo'lgan talab ortib boradi. Xuddi shu kabi inflyatsiyaning o'sish sub'ektlari ham pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Hozirgi zamon monetarizmiga bir gurux iqtisodchilar qalamiga oid "Pulning miqdoriylik nazariyasiga oid tadqiqotlar" (1956 y.) deb nomlangan asar bilan asos solindi. Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor vositasi ta'minlaydi, bu visitaning asosiysi pul hisoblanadi, degan xulosadan iborat.

## Qisqacha xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit tartibga solish pul-kredit siyosati yoki oddiy qilib monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri markaziy o'rinlardan biri[illegible]llaganligi sababli jahonning eng yirik iqtisodchi olimlar dikka[illegible]e'tibo[illegible] aynan shu muammolarga qaratib kelmoqdalar.

Pul-kredit mexanizmini tartibga solishning nazariy asosi kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki yillarida yaratila boshladi. Ishlab chiqarish sharoitining tubdan o'zgarishi, uning yiriklashishi sanoat kapitalining o'sishi iqtisod fani oldiga qator vazifalar qo'ydi. Ular orasida eng ahamiyatlilaridan biri pul va kreditning mohiyati, funksiyasi va xo'jaliklarning barqaror rivojlanishidagi ularning o'rni bo'ldi. Xuddi shu davrda pul nazariyalari to'g'risidagi ilk fikrlar yuzaga keldi. Bu nazariyalar: metall va nominall pul nazariyalari bo'lib, ularning o'sha davrdagi muammolarni yechishdagi o'rni beqiyos.

Xozirgi vaqtda pul to'grisida turli hil nazariyalar mavjud bo'lib, ular o'z mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi turli oqimlarga birlashib ketgan. Ana shu oqimlar monetarizm va keynschilik oqimini, shubhasiz nazariyalar ichida eng yirik va eng yetakchi g'oyaviy yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

## Takrorlash uchun savollar

1. Metall pul nazariyasi nima ?
2. Nominall pul nazariyasi nima ?
3. Pulga bo'lgan talabni aniqlash formulasi.
4. Pulga bo'lgan talabni aniqlovchi uch omilni ayting.
5. Monetarizmning asosiy qoidalari nimalardan iborat ?

## Tayanch so'z va birikmalar

Metall nazariya; nominallik nazariya; pul-kredit vositasi; oltin tanga standarti; oltin quyma standarti; tenglama; aktivlar; Kembrij maktabi; pul taklifi; konsepsiya; makroiqtisod.

## III BOB. MARKAZIY BANK-PUL MUOMALASINI MUVOFIQLASHTIRUVCHI ORGAN SIFATIDA

### 3.1.Markaziy bankning tashkil etilish shakllari va maqomi

Bizga ma'lumki, dastlabki markaziy banklar eramizning XVII – XVIII asrlarda Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida tashkil etildi. Markaziy banklarni tashkil etishdan asosiy maqsad muomalaga pul birliklari chikarilishini markazlashtirish va muomaladagi pul xajmini tartibga solishdan iborat edi. Markaziy bank tashkil etilishiga qadar kapitalizmning dastlabki davrida mamlakatdagi tijorat banklarining barchasi muomalaga o'z banknotlarini chiqarish huquqiga ega edi. Banknot - muayyan bankning unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni real, haqiqiy pulga xohlagan paytda almashtirib berishi to'grisidagi majburiyatdir. Shunday ekan, har bir bank o'zining zahirasidagi mavjud real, haqiqiy (oltin, kumush) miqdorigacha muomalaga pul belgilari-banknotlar chiqarishi mumkin. Bunda muomalaga chiqarilgan banknotlar banklarning oltin zahiralari bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim, ya'ni muomaladagi banknotlar banklarning zahiralaridagi haqiqiy, real pullarning muomaladagi "muqobillari", belgilari hisoblangan.

Lekin XVII va XVIII asrda ishlab chikarishning rivojlanishi uchun qo'shimcha pul mablag'lari talab etilgan. Ishlab chiqarish, muomala jarayonining rivojlanishi pulga bo'lgan talabning oshishiga olib kelgan. Ushbu talabni qondirish va o'zlari oladigan daromadni ko'paytirish maqsadida tijorat banklari muomalaga o'zlarining oltin zahiralaridan bir necha barobar ko'p miqdorda banknot chiqarishgan. Natijada muomaladagi banknotlar banklarning oltin zahiralari bilan to'liq ta'minlanmasdan qolgan va banklar o'zlarining majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini yo'qotgan. Bu

esa, o'z navbatida, tijorat banklariga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib kelgan va shu holat pul muomalasining izdan chiqishiga sabab bo'lgan.

Natijada pul muomalasini tartibga solish, muomaladagi pul miqdorini muvofiqlashtirish zaruriyati vujudga kelgan. Oqibatda muomalaga chiqariladigan pul mablag'larini markazlashtirish, pul muomalasini nazorat qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solish uchun maxsus davlat organi Markaziy bank tashkil etilishiga ob'ektiv sabablar vujudga kelgan. Dastlabki Markaziy bank 1656 yil Shvesiyada tashkil qilingan bo'lsa, 1694 yil Angliyada Angliya banki tashkil etilgan.

Demak, Markaziy bank hukumat tomonidan pul muomalasini barqarorlashtirish, muomaladagi pul miqdorini tartibga solish va tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Har bir mamlakatning Markaziy banki davlat banki hisoblanadi va uning mavqei, vazifalari harakat doiralarini huquqiy asoslari o'sha mamlakatning qonunlari bilan belgilanadi.

Odatda, Markaziy bankni tashkil etish shakllari deganda ularning faoliyat yuritishi uchun lozim bo'lgan ustav kapitalining shakllanish manbalari e'tiborga olinadi.

Markaziy banklar mamlakatdagi qonunchilik asosida davlat tomonidan tashkil etiladi. Lekin uning ustav kapitalining shakllanish manbalari turlicha bo'lishi mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda Markaziy bank ustav kapitali shakllanishi ushbu mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq quyidagicha:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Markaziy bankning ustav kapitali to'liq davlat mablag'lari hisobiga, bir qismi (odatda, 50 foizdan ortig'i) davlat mablag'lari, qolgan qismi yuridik va jismoniy shaxslar mablag'lari evaziga yoki to'liq a'zo banklar (Federal zahira tizimi) mablag'lari va to'liq banklar va sug'urta

kompaniyalari mablag'lari hisobiga tashkil etiladi. Markaziy bank ustav kapitalini to'ldirish, oshirish va ularning manbalari har bir mamlakatning qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topadi. E'tirof etilganidek, ustav kapitalini tashkil etish shakllaridan qat'iy nazar, Markaziy bank davlatning pul-kredit sohasidagi siyosatlarini amalga oshiruvchi organdir. Har bir mamlakat qonunchiligida, albatta, Markaziy bankning ushbu jihati alohida aks ettirilgan.

| t/r | Mamlakatlar | Markaziy bank ustav kapitali manbalari |
|---|---|---|
| 1. | Buyuk Britaniya, Daniya, Gollandiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya | 100 foiz davlat mulki |
| 2. | Shveytsariya | 43 foiz-xususiy shaxslar;57 foiz-kanton (ma'muriy bo'linmalar) mulki |
| 3 | Italiya | 100 foiz - banklar va sug'urta kompaniyalari mulki |
| 4. | AQSh | 100 foiz - Federal zahira tizimiga a'zo banklar mulki |

O'zbekiston Markaziy bankining ustav kapitali miqdori ikki milliard so'mdan iborat. Ustav kapitali miqdori O'zbekiston Oliy Majlisining qaroriga muvofiq oshiriladi.

Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi yoki undan bo'nak sifatida foydalanish mumkin emas. O'zbekiston Markaziy bank davlatning mutlaq mulkidir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Uzbekiston Markaziy bankining ustav kapitali to'liq davlat mablag' hisobidan tashkil topgan.

## 3.2.Markaziy bankning mustaqilligi va uni ta'minlash shartlari.

Markaziy bankning maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati tamoyillari mamlakatning qonunlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Markaziy banki to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlarda o'z aksini topgan. Ularning eng diqqatga sazovor bo'lgan asosiy jihatlarini quyidagilar tashkil etadi:

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutlaq mulkidir. Markaziy bank o'zining nizomiga, hisob raqamiga va mustaqil balansiga egadir. Uning faoliyati harakatdagi qonunlar majmuasi doirasida tashkil etiladi va mustaqil boshqaruv tizimiga ega. "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'grisida"gi qonun bilan uning maqsad va vazifalari, taqiqlangan faoliyat turlari, hisobdorligi, mustaqilligi, tashkiliy tuzilishi va tashqi iqtisodiy faoliyati belgilab berilgan. Yuqorida qayd etganimiz kabi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 100 foiz davlat mablag'i hisobiga tashkil etilgan bo'lib, u davlatning pul-kredit sohasini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ hisoblanadi.

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bank yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatidan daromad oladi va ushbu mablag'lar bilan o'z xarajatlarini qoplaydi. Daromadlarning xarajatlardan oshgan qismi, ya'ni Markaziy bankning foydasi boshqaruv belgilagan tartibda taqsimlanadi.

Foydani taqsimlashda ishonchsiz, shubhali qarzlar va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zahiralari va

turli ijtimoiy va iqtisodiy fondlar shakllantiriladi va uning qolgan qismi respublika byudjeti daromadiga yunaltiriladi.

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning barcha muassasalari muhri va ish qog'ozlarida Davlat gerbining aks ettirilishi ham uning davlat organi ekanligidan dalolat beradi.

Markaziy bankni mustaqillik darajasini aniqlash, uning mezonlari, jihatlari masalalariga bag'ishlangan qarashlar iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada o'z aksini topgan.

Markaziy bankning mustaqillik darajasi ko'p jihatdan mamlakatdagi harakatda bo'lgan qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ko'p hollarda, Markaziy bankning mustaqilligini belgilashda sub'ektiv va ob'ektiv omillar ta'siri inobatga olinadi. Sub'ektiv omil sifatida Markaziy bank rahbariyati va hukumat xodimlari o'rtasidagi o'zaro rasmiy munosabatlar, markaziy bank rahbariyatining hukumat xodimlari orasidagi norasmiy obro' e'tibori, ularning mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti jihatlarini belgilashdagi fikr va mulohazalarining hukumat doirasida tan olinishi kabilar inobatga olinadi.

Markaziy bank mustaqilligining ob'ektiv omillari sifatida asosan quyidagilar tan olinadi:

– markaziy bank kapitalida davlatning ulushi;

– markaziy bank vazifalarining qonunchilikda yoritilish darajasi;

– Markaziy bank rahbari (Raisi) va uning o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tartibi va ularning faoliyat ko'rsatish muddatlarining qonun hujjatlarida to'liq, aniq aks ettirilishi hamda ushbularga rioya etish darajasi;

– Davlat tomonidan Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish shakllari;

– markaziy bank rahbariyati tomonidan qabul qilingan qarorlariga davlat organlarining qonun asosida ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va Markaziy bankning pul-kredit siyosatlarini hayotga tatbiq etishda hukumatning ishtiroki;

– markaziy bank moliyaviy faoliyatida davlatning roli, ya'ni uning daromadlarini tashkil etish, xarajatlarini amalga oshirish va foydasini taqsimlashda davlatning ishtiroki;

– mamlakat byudjetini bevosita va bilvosita moliyalashtirishda Markaziy bankning ishtirokini belgilovchi jihatlarning qonun hujjatlarida aks ettirilishi.

Biz yuqorida Markaziy bankni tashkil etish masalalariga to'xtalganimizda, uning ustav kapitalini tashkil etilishi masalalariga batafsil to'xtalib o'tgan edik. Markaziy bank ustav kapitalining tashkil etilishi manba'laridan qatiy nazar, u albatta, qonun bilan belgilangan, davlatning pul-kredit sohasidagi siyosatini amalga oshiruvchi, mamlakatda pul muomalasini boshqaruvchi, mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlovchi davlat organidir.

Markaziy bankning ustav kapitali hissadorlik asosida tashkil etilgan taqdirda ham, davlat qonunchiligi asosida bevosita va bilvosita usullar orqali Markaziy bankning davlat organi ekanligini e'tirof etadi.

Markaziy bank vazifalari va ularning qonun hujjatlarida batafsil yoritilishi masalasi ham uning mustaqilligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Markaziy bankning vazifalari va ularning mohiyati keyingi bo'limlarda batafsilroq yoritiladi. Bu yerda faqat shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda Markaziy bankning aniq vazifalari, faoliyat doirasi hamda asosiy maqsadlari mamlakatning Konstitutsiyasi, Markaziy bank to'g'risidagi qonuni va boshqa bank faoliyatiga tegishli qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topadi. Bular Markaziy bank faoliyatining qonuniy asoslari hisoblanadi va bir tomondan uning

qonuniy vakolatlarini belgilab bersa, ikkinchi tomondan faoliyat vakolatlarini aniq belgilab berilgan maqsad va vazifalar doirasida chegaralab qo'yadi.

Markaziy bank mustaqilligining keyingi ob'ektiv omili bank rahbari, uning o'rinbosarlarini tayinlash yoki saylash masalalari, ularning faoliyat ko'rsatish muddatlarining qonun hujjatlarida aniq aks ettirilganligi hamda ularga rioya etish darajasi hisoblanadi.

Ushbu masalalar Uzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida to'liq va aniq o'z aksini topgan. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunga muvofiq Markaziy bank raisini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasiga ko'ra Oliy Majlis tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Ushbu qonunga muvofiq Markaziy bank raisining vakolat muddati besh yil belgilangan. Bundan tashqari, qonunning 20-moddasida uning vazifalari ham batafsil ravishda bayon etilgan. Markaziy bank raisining egallab turgan lavozimidan ozod etish masalalari ham qonunda o'z aksini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

– vakolat muddati tugaganida ;

– iste'foga chiqishni so'rab, sabablarini ko'rsatgan holda yozilgan shaxsiy arizasiga ko'ra;

– jinoyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb topilganda;

– o'zining hizmat vazifalarini salomatligiga ko'ra bajara olmaganda, davlat tibbiy komissiyasining hulosasiga ko'ra;

– egallab turgan lavozimiga munosib bo'lmagan hatti-harakatlar qilganida. shu jumladan, ushbu qonunni qo'pol ravishda buzganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar yetkazganida.[2]

– yuqorida qayd etilgan qonunning 22-moddasida Markaziy bank raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bank raisi tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar.

– markaziy bankning Oliy organi sifatida uning boshqaruvi e'tirof etilgan. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi va bankni boshqaqradi. Qonunda boshqaruvning tarkibi, vakolatlari va majlislari hamda qaror batafsil yoritilgan.

– markaziy bank mustaqilligini belgilovchi ob'ektiv omillardan yana biri davlat tomonidan Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Marqkaziy banki o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul kilish borasida mustaqildir.

Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, basharti o'z zimmasiga bunday majburiyatlarni olmagan bo'lsa yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Markaziy bank davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Ushbu qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabrgacha qilib belgilangan. Hisobot 15 maydan kechiktirilmasdan Oliy Majlisga taqdim etilishi lozim.

Bundan tashqari, Markaziy bank davlat tashkiloti bo'lishi bilan bir qatorda uning faoliyati yiliga bir marta mustaqil auditor tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarorlar qabul qilishda mustaqildir. Harakatdagi qonunlarga muvofiq Markaziy bank tomonidan qabul qilingan qarorlarga davlat organlarining aralashuvi man etilgan.

### 3.3. Pul-kreditni muvofiqlashtirishda Markaziy bankning roli.

Markaziy bank o'z faoliyatining bosh maqsadi – mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlash. Pul-kredit siyosatini mus-

taqil ravishda yuritadi. siyosatni amalga oshirishda hukumat faol ishtirok etadi.

Markaziy bank mustakilligini belgilovchi ob'ektiv omillardan yana biri Markaziy bank moliyaviy faoliyatida davlatning ishtiroki masalasi hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida qayd etilganidek, Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning mutlaq mulki bo'lishi bilan bir qatorda, u o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, mustaqil muassasadir.

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 11-moddasida Markaziy bank foydasini aniqlash va uni taqsimlashning asosiy tamoyillari o'z aksini topgan.

Markaziy bankning foydasi har bir moliya yili uchun:

– ishonchsiz, shubhali qarzlar va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zahiralari shakllantirilgandan so'ng;

– umumiy qabul qilingan buxgalterlik amaliyotiga muvofiq amalda barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek, aktivlar va passivlar baholanganidan so'ng aniqlanadi.

Markaziy bank foydasi boshqaruv belgilagan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda tasdilanadi.

Boshqaruvning qaroriga muvofiq aniq maqsadni to'g'li zahiralar va fondlar shakllantirilishi mumkin.

Aniq maqsadga yo'naltirilgan zahiralar va fondlar belgilangan tartibda to'ldirilgandan keyin foydaning qolgan qismi Respublika byudjeti daromadiga yunaltiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlardan ozod qilingan.[1]

Yana shuni ta'kidlash lozimki, qonun bilan Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari ham aniqlangan. Unga ko'ra, Markaziy bank:

– moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishga;

– tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga;

– banklar va boshqa yuridik shaxslarning kapitallarida qatnashishga haqli emas.

Markaziy bank mustaqilligini ifodalovchi ob'ektiv ko'rsatkichlardan yana biri mamlakat byudjetini to'g'ri va egri moliyalashtirishga Markaziy bankning ishtirokini belgilovchi jihatlarining qonun hujjatlarida aks ettirilishi masalasidir.

O'zbekistan Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning VII bobida Markaziy bankning hukumat bilan munosabatlari to'liq o'z aksini topgan. U yerda Markaziy bankning hukumat bilan bo'ladigan munosabatlaridagi vazifalari (44-modda), davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida maslahatlar berish (45-modda), depozitariy va kassirning vazifalari (46-modda), fiskal agentning vazifalari (47-modda), hukumatga kredit berish (48-modda) masalalari o'zining qonuniy asosini topgan.

Ushbu qonunga muvofiq Markaziy bank hukumatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan miqdorda kreditlar ajratish huquqiga ega. Odatda, Oliy Majlis tomonidan hukumatga ajratiladigan Markaziy bank kreditlarining miqdori davlat byudjeti xarajatlarining 3 foizidan oshmasligi belgilanadi.

Hukumatga ajratiladigan kreditlar:

– oltin, chet el valyutasi, xalqaro zahiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari;

– davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari garoviga beriladi.

Ushbu garovlarning qaytarilish muddati bir yildan oshmasligi lozim, chunki hukumatga Markaziy bank kreditlari, odatda, bir yil muddatga ajratiladi.

Bundan tashqari, Markaziy bank hukumatga obuna buyicha

badallar yoki respublikaning u yoki bu xalqaro tashkilotga a'zoligidan kelib chiquvchi boshqa to'lovlar uchun ancha uzoq muddatli kreditlar berishga haqli.

Qonunga muvofiq, Markaziy bank yuqorida aks ettirilgan hollarda hukumatga moliyaviy yordam berishga haqli emas.

Markaziy bankning hukumat bilan moliyaviy munosabatlarining qonun hujjatlari orqali chegaralanishi, albatta, uning monetar siyosatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Markaziy bankning mustaqilligi darajasi, uning hukumat organlaridagi nufuzi *hamda ilmiy asoslangan mustaqil pul-kredit siyosati mamlakat* pul birligining barqarorligiga hizmat qiladi. Markaziy bank davlat organi sifatida iqtisodietning va butun bank tizimining barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

### 3.4.Markaziy bank emissiya, davlat banki sifatida

Yuqoridagi bo'limda ta'kidlab o'tganimiz kabi, odatda, dastlabki Markaziy banklar ham ma'lum bir maqsadda tashkil etilgan va ushbu maqsadga erishish uchun ularning aniq vazifalari belgilab berilgan.

*Bilamizki, dastlabki Markaziy banklarni tashkil etishdan* maqsad, mamlakatda pul emissiyasini markazlashtirishdan iborat bo'lgan. Demak, muomaladagi pul massasini tartibga solish ehtiyoji vujudga kelgan va uni amalga oshiradigan davlat muassasasi zaruriyati tug'ilgan.

Tashkilot, korxona yoki muassasa kabi Markaziy bankning ham aniq maqsadi va vazifalari qonun hujjatlarida o'z aksini topadi.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki-

ning maqsad va vazifalari bayon etilgan. Unga kura. Markaziy bankning bosh maqsadi - milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

birinchidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

uchinchidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarni nazorat qilish, qimmatdor kog'ozlarni nazorat qilish, qimmatdor qog'ozlarni ishlab chiqarishni litsenziyalash;

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zahiralarini, shu jumladan, kelishuv bo'yicha hukumat zahiralarini saqlash va tasarruf etish;

beshinchidan, davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iborat. Yana bir bor eslatib o'tamizki, Markaziy bankning barcha vazifalari unga yuklatilgan maqsadga to'liq erishish uchun qaratilgan, ya'ni ular ushbu maqsadga, mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlashga erishish uchun hizmat qiladi.

**Emissiyaviy vazifasi:**

markaziy bank banknotlarni muomalaga chiqarish bo'yicha monopol mavqega ega. Bu "banknot yakka hoqimligi", deb ham ataladi. Banknotlar mamlakat hududidagi hisob-kitoblarda cheklanmagan miqdorda qabul qilinuvchi yagona to'lov vositasidir. Markaziy bankning naqd pullarni berish jarayonidagi monopol mavqei, uning barcha pul massasining hajmini, shu jumladan, tijorat banklarining hisob-raqamlaridagi pul mablag'larini ham nazorat qilishiga imkon beradi;

"Markaziy banki haqida"gi qonunning 34 – 38 - moddalarida Markaziy bank mamlakatda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lgan monopol bank ekanligi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, u muomaladagi pul massasining barqaror ravishda aylanishiga javobgardir.

markaziy bank uchun banknotlarning harid imkoniyatini barqaror darajada saqlab turish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, eng avvalo, muomaladagi banknotlar miqdorining o'zgarishiga bog'liq. Bu holatni hisobga olgan bir qator markaziy banklar, xususan, Germaniya Markaziy banki rahbariyati muomaladagi naqd pul massasini tartibga solishni, kreditlash hajmini nazorat qilish bilan bir qatorda, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashning muhim sharti, deb hisoblaydi.

Markaziy bankning "banklarning banki" sifatidagi vazifasi, bizning fikrimizcha, asosan, quyidagi to'rt yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Barcha tijorat banklari o'z mablag'larining ma'lum qismini Markaziy bankdagi foizsiz [illegible] raqamlarida minimal rezervlar sifatida saqlashga majburdirlar.

Xususan, Germaniya Federativ respublikasida 1984 yildan boshlab, asosan, barcha tijorat banklari bilan bir qatorda uzoq muddatli qo'yilmalar bilan shug'ullanuvchi kredit institutlari va qurilish jamg'arma kassalari ham minimal zahiralarini Markaziy bankda saqlashga majbur bo'ldilar.

Bank mijozlari o'z jamg'armalarining yoki kreditlarining ma'lum qismini Markaziy bank biletlarida, ya'ni naqd pullarda oladilar. Mijozlarning bu talabini tijorat banklari Markaziy bankdagi muddatsiz jamg'armalarining istalgan paytda naqd pulga almashtiriladigan qismi hisobidan qondiradilar. Markaziy bank ana shunday yo'l bilan butun bank tizimining to'lovga qobilligiga ta'sir qiladi.

Ammo, bundan har bir tijorat banki o'zining naqd pullarga bo'lgan talabini faqatgina ikki muhim vazifani hal qilish imkoniyatiga ega bo'lib turibdi. Birinchidan, minimal emission bank mablag'lari hisobidangina qondira oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim banklarda banknotlarning ortiqcha zahirasi mavjud bo'ladi va ular boshqa banklarga bu pullarni kreditga berishi mumkin. Pul bozori rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon texnik jihatdan juda silliq ko'chadi. Shunisi harakterliki, tijorat banklaridagi ortiqcha naqd pullar miqdori emission bank yaratgan pullar miqdoriga tengdir. Demak, tijorat banklarining banknotlarni kreditga berish imkoniyati cheklangan. Bu esa, ularning banknot emissiyasi sohasida Markaziy bankka bog'liqligini saqlab qoladi. Demak:

1. Markaziy bank zahiralar tizimi orqali, avvalo, bank tizimining to'lovga qobilligini ta'minlayotgan bo'lsa, qolaversa, pul bozoridagi naqd pullarga bo'lgan talabni boshqarish orqali tijorat banklarining pul va kredit tajovuzini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'layapti.

2. Markaziy bank barcha tijorat banklari va boshqa kredit institutlari uchun "so'nggi kreditor"dir.

Tijorat banklari vaqtinchalik likvidli kredit oladilar. Bu kreditlar, albatta, tijorat veksellari bilan, davlatning qimmatdor qog'ozlari bilan yoki bankning boshqa qarz majburiyatlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish bo'yicha amalga oshiradigan doimiy operatsiyalari tufayli pul bozorining mo''tadil faoliyati ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklariga mijozlarga qulay bo'lgan foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, Markaziy bank, tijorat banklariga bergan kreditlari uchun belgilaydigan foiz stavkalarini o'zgartirish yo'li bilan kreditga bo'lgan talabni tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. *Markaziy bankning ushbu vazifasi doirasidagi uchinchi yo'*nalish, asosan, ikki holatda namoyon bo'ladi. Markaziy bank mamlakat hududida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar shakllarini, ularni qo'llash tartibini va muddatini belgilab beradi. Xususan, Nemis Federal banki to'g'risidagi qonunda Bundesbankning "hisob-kitoblar tizimining banklar tomonidan mamlakatda va xorij bilan bo'lgan aloqalarda ijro etilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi" belgilab qo'yilgan.

Haddan ziyod katta miqdordagi zahiralarni tijorat banklari tomonidan saqlab turilishi xazina va tijorat veksellari kabi pul bozori vositalariga bo'lgan talabni qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga, to'lovning kechikishi yuqori inflyatsiya sharoitida kelib tushadigan pul mablag'lari real qiymatining pasayishiga, davlat va korxonalar tomonidan kreditga bo'lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Bunday sharoitda qayta tuziladigan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi, shubhasiz, mablag'lar yetishmovchiligi natijasida ijro etilmagan to'lov topshiriqnomalarining to'planib qolishiga va korxonalarning o'zaro q[illegible]lik summalarining sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.

4. Mamlakat bank tizimining mo'[illegible] faoliyat ko'rsatishida Markaziy bankning qanday usullar yordamida va qay darajada tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib banklar faoliyatini nazorat qilish rivojlangan xorijiy davlatlarda markaziy banklarning muhim faoliyatiga aylandi. Faqat Buyuk Britaniya Markaziy bankigina nisbatan kech, ya'ni 1979 yilda rasman, qonuniy asosda banklar faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo'ldi.

Bundesbankning bu sohadagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bevosita banklar *faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullan*maydi. Balki nazoratni Federal nazorat mahkamasi amalga oshiradi.

Ammo Bundesbank nazorat mahkamasiga yaqindan ko'maklashadi. Xususan, ushbu mahkamaning joylarda bo'linmalari mavjud emas va u to'liq Federal bankning joylardagi muassasalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, qarorlar qabul qilishda nazorat mahkamasi bir qator masalalar bo'yicha Markaziy bankning roziligini olishi kerak. Masalan, banklarning o'z kapitali va to'lovga layoqatliligi xususida qaror qabul qilinishi uchun albatta, Bundesbankning roziligi bo'lishi shart.

Markaziy bankning banklar faoliyatini nazorat qilishining eng asosiy sababi mamlakatda bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchni ta'minlash. Bu ishonch tijorat banklarining o'z mijozlari - huquqiy va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olishi orqali ta'minlanadi.

Davlat bankining vazifasi:

davlat byudjetining kassali bajarilishini amalga oshiradi, davlat organlarining naqd pulsiz operatsiyalarini ma'lum qismini amalga oshiradi, hukumatning tashqi qarzlarini to'lashga xizmat qiladi, byudjet defisitining ma'lum qismini qoplashga va boshqa davlat muassasalarining xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga qisqa muddatli kreditlar beradi; hukumatga pul-kredit va valyuta masalalari bo'yicha maslahatlar beradi.

Masalan, Bundesbank davlat banki sifatida Federatsiyaga, ma'muriy-hududiy bo'linmalarga hamda Federasiyaning parabyudjet fondlariga kreditlar berish huquqiga ega. Bu kreditlar hajmi cheklangan bo'lib, qisqa muddatli tavsifga egadir.

Davlat banki sifatida Bundesbank, hukumat nomidan uning obligatsiyalarini, moliyaviy veksellarini sotadi va ularni sotish uchun e'lon qiladi. U federal zayomlar kursini barqaror darajada saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Markaziy bank davlatning asosiy bankiri va hukumatning moliyaviy maslahatchisi hisoblanadi. Bu borada:

– hukumat miqyosidagi tashkilotlarning hisob raqamlarini yuritadi;

– davlat zayomlarini chiqarish, saqlash va ular bilan tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi;

– hukumatga kredit beradi;

– davlatning oltin-valyuta va qimmatdor toshlardan iborat zahirasini o'zida saqlaydi va boshqaradi;

– mamlakat miqyosida valyuta kursini o'rnatadi, foiz siyosatini yurgizadi va davlatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlariga javob beradi. Ular bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatadi va olib boradi.

Markaziy bankning davlat banki sifatidagi vazifasining muhim ko'rinishlaridan biri hukumatning tashqi qarzlarini to'lash jarayonida namoyon bo'ladi.

## 3.5. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida Markaziy bank monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari

Amaldagi qonun va qoidalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy yil boshlanishidan 30 kun oldin kelgusi yil uchun o'zining pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yunalishlarini ishlab chiqadi va bu haqda Oliy Majlisga axborot beradi.

Bundan tashqari, monetar siyosat matbuotda z'lon qilinadi.

Markaziy bankning pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yunalishlari iqtisodiy konyunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari, muomaladagi pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari, valyuta va foiz siyosatining asosiy yunalishlari hamda hukumat tomonidan keyingi yil uchun belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.

Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari samarali bo'lishini ta'minlash uchun, avvalambor, albatta o'tgan yillardagi mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura har tomonlama chuqur tahlil qilinmog'i zarur. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulotning tarkibi, o'sish yoki kamayish dinamikasi, ularning sabablari o'rganiladi. Yalpi ichki mahsulotning qishlok xo'jaligidagi, sanoat, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, investitsiya va qurilish sohalaridagi o'zgarishlari va ularning sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan inflyatsiya va narxlarning o'sish darajalari, tendensiyasi va sabablari to'lik o'rganiladi.

Bizga ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiy globallashuv sharoitida alohida olingan mamlakat iqtisodiyotini tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarisiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, monetar siyosatning asosiy yunalishlarini aniqlashda mamlakatning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining ko'lami, dinamikasi, tashqi savdo aylanmalari, to'lov va hisob-kitob balanslarining holati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, kelgusi yilda samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirishni belgilab olish uchun, o'tgan yildagi Markaziy bankning monetar siyosati, uning qaysi instrumentlaridan samaraliroq foydalanilganligi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'liq talqin qilinmog'i va ulardan ijobiy foydalanmog'i tavsiya etiladi.

Bunda pul-kredit siyosatining bevosita vositalari bilan bir qatorda uning bilvosita vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, o'tgan davrdagi monetarlashtirish darajasi tahmini va eng asosiysi pul bozorining holati, ya'ni foiz stavkasining dinamikasi va valyuta siyosati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, pul-kredit, monetar siyosatning samarasi pirovard natijasida mamlakat pul birligining barqarorlik darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda samarali monetar siyosat yo'nalishlarini aniqlashda mamlakat bank tizimi barqarorligi tahlili ham muhim o'rin tutadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalar aniq va to'liq chuqur tahlil qilinib, sabab va oqibatlar har tomonlama o'rganilgandan keyin Markaziy bank hukumat tomonidan keyingi yil uchun prognoz qilingan *yalpi ichki mahsulot hajmi va uning real o'sishi, YIM deflyatorining* miqdoriy ko'rsatkichlari va inflyatsiya darajasi hamda tashqi savdo aylanmasi qoldig'ining ijobiy bo'lishi va davlat byudjeti ko'rsatkichlari kabi *makroiqtisodiy parametrlardan kelib chiqqan* holda o'zining pul-kredit, monetar siyosatini ishlab chiqadi.

Bizning nazarimizda, eng muhim masala shundan iboratki, pul-kredit, monetar siyosatni belgilashda Markaziy bank hukumat tomonidan mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi bilan muomaladagi pul massasi o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblik darajasini aniqlash va doimiy ravishda unga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim. Chunki xalk xo'jaligining har bir tarmog'ida ma'lum darajada o'sishni ta'minlash, albatta, qo'shimcha pul mablag'larini talab qiladi. Demak, doimo yalpi ichki mahsulot o'sishi bilan pul massasi o'sishi o'rtasida mutanosiblik bo'lishini talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, inflyatsiyaning barqaror darajasini saqlash, tijorat banklari kreditlarining baholari barqarorligini ta'minlash monetar siyosatning modernizasiya bosqichidagi ustivor vazifalaridir.

Shunday qilib, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari mamlakat iqtisodiyotiga pul-kredit vositalari orqali ta'sir qilishi natijasida mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlovchi muhim hujjatdir.

## Qisqacha xulosa

Markaziy banklar XVII – XVIII asrlarda Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida tashkil etildi. Markaziy banklarni tashkil etishdan asosiy maqsad muomalaga pul birliklari chikarilishini markazlashtirish va muomaladagi pul xajmini tartibga solishdan iborat edi. Markaziy bank tashkil etilishiga kadar kapitalizmning dastlabki davrida mamlakatdagi tijorat banklarining barchasi muomalaga o'z banknotlarini chiqarish huquqiga ega edi. Banknot - bu ushbu bankning undagi ko'rsatilgan miqdordagi pulni real, haqiqiy pulga xoxlagan paytda almashtirib berishi to'grisidagi majburiyatidir. Shunday ekan, har bir bank o'zining zahirasidagi mavjud real, haqiqiy (oltin, kumush) miqdorigacha muomalaga pul belgilari-banknotlar chiqarishi mumkin. Bunda muomalaga chiqarilgan banknotlar banklarning oltin zahiralari bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim, ya'ni muomaladagi banknotlar banklarning zahiralaridagi haqiqiy, real pullarning muomaladagi "o'rinbosarlari", belgilari hisoblangan.

Markaziy bankning maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati tamiyillari mamlakatning qonunlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan.

"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsad va vazifalari bayon etilgan. Unga kura. Markaziy bankning bosh maqsadi - milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

## Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy banklarni tashkil etishdan maqsad nima?
2. Markaziy bank ustav kapitali shakllanishi mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq qanday?
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ustav kapitali miqdori qancha?
4. Markaziy bank mustaqilligining ob'ektiv omillarini ayting.
5. Markaziy bank mustaqilligining sub'ektiv omillarini ayting.
6. Markaziy bankning bosh maqsadi nima?
7. Banklarning banki funksiyasi.
8. Markaziy bankning pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yunalishlari ayting.
9. Davlatning banki funksiyasi.
10. Emission funksiya.

## Tayanch so'z va birikmalar

Muvofiqlashtirish; maqom; shakl; tartibga solish; barqarorlashtirish; ustav kapitali; qonunchilik hujjatlari; davlat mablag'lari; yuridik shaxs; daromad; xarajat; hissadorlik; ob'ektiv omil, sub'ektiv omil

# IV BOB. PUL MUOMALASINI TARTIBGA SOLISH USULLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

## 4.1. Pul-kredit siyosatining usullari va ularni muvofiqlashtirish. Markaziy bank pul-kredit siyosatining tradision (an'anaviy) instrumentlari va ularni amalga oshirish tartibi.

Iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish vositalari nihoyatda turli-tumandir. Shu narsa ma'lumki, hozirgacha pul-kredit vositalarining turkumlanishi borasida yagona bir yo'nalish mavjud emas. Lekin, shu bilan birga ko'pchilik olimlar quyida keltirilgan vositalarni asosiy pul-kredit siyosati vositalari sifatida qayd etadilar. Biz ham, faqat umumiy va aniq tavsifdagi vositalar xususida fikr yuritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalaniladi:

1. Qayta moliyalash siyosati;
2. Majburiy zahiralar siyosati;
3. Ochiq bozor siyosati;
4. Valyuta siyosati ;
5. Depozit siyosati

Mazkur usullar jahon banklari amaliyotida tan olingan asosiy usullar hisoblanib, ularning qo'llanishi har bir davlatda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, AQSh da ko'proq ochiq bozordagi usullar qo'llanilsa, Germaniyada ko'proq majburiy zahiralar qo'llaniladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy bankining muomaladagi pul massasini tartibga solishda asosan majburiy zahiralar vositasidan foydalanilmoqda.

Pul-kredit vositalari va usullarini isloh qilish taktik va strategik

vazifalarni ajratishga asoslanadi. Strategik vazifa shakllangan bozor iqtisodi amal qilayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan, pul-kredit nazoratining umumiy qabul qilingan vositalaridan foydalana boshlashdir. Ushbu maqsadga erishish uzviy ravishda bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Monetar tartibga solish vositalarini takomillashtirishni bosqichlarga bo'lish o'tish davrining muayyan tarixiy bosqichlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi.

Bank tizimining taraqqiyoti aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifalar va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiqtisodiy masalalarni hal etish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini keng ko'lamli isloh qilish jarayonida muhim institusional va tuzilmaviy o'zgarishlarga erishildi. Ikki bosqichli bank tizimi tashkil etilgan, mulkchilikning turli shakllari asosida tijorat banklari tizimi tashkil etilgan va rivojlanmoqda, respublika banklarining yetakchi xorijiy banklar bilan hamkorligi yildan-yilga kengaymoqda, banklar faoliyati tobora har tomonlama ahamiyat kasb etmoqda.

Tijorat banklari faoliyatida hamon inflyatsiya sur'atlari ta'sir qiladigan, korxonalar tarmog'idagi to'lovlar amalga oshirib bo'lmagani, korxonalar tomonidan investitsiyalarga bo'lgan talabning susayishi, likvidlik ustidan qat'iy nazorat kabilar xos bo'lgan makroiqtisodiy muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Demak, bank tizimining keyingi taraqqiyoti iqtisodiyotning real tarmog'idagi ijobiy o'zgarishlar, korxonalar moliyaviy holatining, makroiqtisodiy muhitning yaxshilanishi bilan bog'liqdir. Bunday ijobiy muhitni bank tizimining, ayniqsa, Markaziy bank faoliyatiga davlat tashkilotlarining aralashuvini cheklash va ular mustaqilligini ta'minlash orqali vujudga keltirish mumkin.

Monetar siyosatning strategik maqsadlari:

1. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash.

2. Inflyatsiyaga qarshi kurashish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati. hozirgi kunda Respublika Oliy Majlisi va Hukumati tomonidan aniqlangan monetar siyosatning asosiy yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

## 4.2. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati va uning ahamiyati

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishda uning an'anaviy vositalaridan foydalanish amaliyoti hal qiluvchi o'rin tutadi. Nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlarida (katta yettilik davlatlari — AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada davlatlari nazarda tutilmoqda), balki o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ham an'anaviy monetar instrumentlardan foydalanish pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tayanch vositalari vazifasini bajarmoqda.

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati an'anaviy monetar instrumentlarning turlaridan biri hisoblanadi. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini kreditlash bilan bog'lik bo'lgan tadbirlarning majmui bo'lib, ushbu siyosat quyidagi uch hil kreditlash usulidan foydalanilgan holda amalga oshiriladi:

a) tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan ularning balansidagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan kreditlash usuli;

b) tijorat banklarini Markaziy bank tomonidan ularning balansidagi qimmador qog'ozlarni garovga lish yo'li bilan kreditlash usuli;

v) tijorat banklarini to'g'ridan to'g'ri kreditlash usuli.

Mazkur usulda berilgan kreditlar overdraft shaklida yoki muddatli kreditlar shaklida beriladi.

**O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiyaning yillik darajasi, foizda (har bir moliyaviy yilning so'ngidagi darajasi olingan )[3]**




*Rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki*, 2007-2012 yillarda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining barqaror saqlab qolinganligi inflyatsiya darajasining oshib ketishiga yo'l qo'ymagan.

O'zbekiston Respublikasining xo'jalik amaliyotida milliy valyutada emissiya qilingan trattalar muomalasining mavjud emasligi mamlakatimiz Markaziy bankining diskont siyosatini shakllantirish imkonini bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasining muomaladagi pul massasiga ta'sir etish darajasiga va shuning asosida milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini oshirishga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

---

[3] *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari. www.cbu.uz.*

Respublikamiz tijorat banklarining balansida yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlarga qilingan investitsiyalar miqdorining nisbatan juda kichikligi mamlakatimiz Markaziy banki tomonidan beriladigan lombard kreditlarining hajmini oshirishga jiddiy tarzda to'sqinlik qilmoqda.

So'nggi yillarda respublikamiz tijorat banklarining yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining brutto aktivlar xajmidagi salmog'ining pasayish sur'ati kuzatilmoqda.

Respublikamiz tijorat banklarining yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarining miqdori darajasining juda past ekanligi Markaziy bankning lombard kreditlari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini bermayapti.

Ko'pchilik xorijiy davlatlarda, shu jumladan, o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlarining ko'pchiligida yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalar tijorat banklari aktivlarining umumiy miqdorida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi.

Demak, xozirgi davrda, Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash siyosati doirasida amalga oshiriladigan diskont operatsiyalarining mavjud emasligi, lombard operatsiyalarining esa rivojlanmaganligi, bizning fikrimizcha, qisqa muddatli davriy oraliqlarda, Markaziy bankning tijorat banklariga beriladigan muddatli kreditlarining hajmini oshirish yo'li bilan milliy suda kapitallari bozoridagi resurslar taklifiga va kreditlarning o'rtacha bozor darajasiga ta'sir etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarini kreditlash hajmini oshirish yo'li bilan bank kreditlarining foiz stavkalarining darajasiga real ta'sir etishi va shu asosda ularning kreditlariga bo'lgan talabni rag'batlantirishi hamda tijorat banklarining joriy likvidlilik darajasini sezilarli darajada oshirishi lozim.

Bu esa, pirovard natijada, so'mning o'rta va o'zoq muddatli davriy oraliqlarda barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy muhitni yuzaga keltiradi.

2012 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2013 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi vositasidan ham pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida keng foydalanildi.

Inflyatsiya darajasi, pul massasi hajmining va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2012 yilda yillik 12 foiz miqdorida saqlab qolindi.

Qayta moliyalash stavkasining ushbu darajada ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investision imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklarining resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

**Foiz stavkalari dinamikasi**

Respublikadagi barqaror makroiqtisodiy holat va yuritilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasida o'z aksini topdi.

Xususan, 2012 yilda pul bozoridagi foiz stavkalarini qayta moliyalash stavkasiga yaqinlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yil boshidan buyon 0,3 foiz bandga o'sib, dekabr oyida 11,0 foizni tashkil etdi.

Aholi real daromadlarining o'sishi, bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi hamda iqtisodiyotdagi inflyasion kutilmalar-

ning pasayishi kabi omillar ta'sirida, 2012 yil davomida jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yil boshidagi 9,6 foizdan dekabr oyining oxirida 6,4 foizgacha, yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha stavka esa 6,8 foizdan 6,0 foizgacha pasaydi.

Natijada, 2012 yil davomida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlariga ajratilayotgan jami kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasini ham yil boshidagi 14,3 foizdan dekabr oyiga kelib 13,6 foizgacha pasayishi kuzatildi.[4]

Jumladan, tijorat banklarining kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar ulushining oshishini rag'batlantirishga qaratilgan foiz siyosatining olib borilishi natijasida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 13,5 foizdan 12,2 foizga pasaydi.

Shu o'rinda Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali tijorat banklarining kredit emissiyasini rag'batlantirilishi muomaladagi pul massasining keskin oshishiga va shuning asosida inflyatsiyaning kuchayishiga olib kelmaydimi, degan savol tug'ilishi mumkin, chunki buyuk M.Fridmenning pul-kredit konsepsiyasidagi muhim qoidalardan biri - tijorat banklarining kredit emissiyasini keskin oshishi muomaladagi pul massasining oshishiga va shu asosda inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladi, degan qoida hisoblanadi Ammo, bizning fikrimizcha, M.Fridmenning ushbu qoidasi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi davrida o'z isbotini topmaydi.

## 4.3.Majburiy zahiralar siyosati va uning pul-kredit siyosatida tutgan o'rni

Majburiy zahira siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining an'anaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ushbu instrument

[4] *www.Cbu.uz.*

dastlab tijorat banklarining kredit ekspansiyasini jilovlash maqsadida AQSh bank amaliyotiga joriy qilingan edi.

Hozirgi davrga kelib majburiy zahira siyosati muomaladagi pul massasini tartibga solishning, milliy bank tizimining likvidligiga Markaziy bank tomonidan ta'sir etishning muhim ta'sirchan vositasiga aylandi.

Majburiy zahira siyosati kam sonli davlatlarda pul-kredit siyosatining vositasi sifatida qo'llanilmaydi. Bunday davlatlar safiga Kanada, Lyuksemburg, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiyani kiritish mumkin.

Markaziy bank pul-kredit siyosatining vositalaridan foydalanish amaliyoti takomillashmagan mamlakatlarda, xususan, ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida majburiy zahira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri sifatida foydalanilmoqda. Buning boisi shundaki, birinchidan, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko'pchiligida moliya bozorlari rivojlanmagan bo'lib, bu holat markaziy banklarning ochiq bozor siyosatini, qayta moliyalash siyosati va valyuta siyosatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi; ikkinchidan, majburiy zahira siyosati muomaladagi pul massasiga bevosita va tez ta'sir qilish xususiyatiga ega.

Majburiy rezerv talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

2012 yilda inflyatsiya va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida, majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilingan depozitlar uchun – 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha

bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi.

2012 yilda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zahiralari hajmi 443 mlrd. so'mga yoki yil boshiga nisbatan 31,8 foizga ko'paydi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga qo'shimcha ravishda 3 176 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar yo'naltirilishi pul massasini mo'ljal ko'rsatkichdan ortiqcha o'sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

**Majburiy zahiralar qoldig'I diagrammasi**[5]




## 4.4. Majburiy zahira siyosatining muomaladagi pul massasi, inflyatsiya va tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'siri.

Xalqaro bank amaliyotida majburiy zahira stavkalarini depozitlarning summasi va muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish tartibi keng qo'llaniladi. Masalan, AQSh bank amaliyotida past za-

[5] *www.Cbu.uz.*

hira stavkalari (3%) 179 kundan ortiq muddatga jalb qilingan muddatli depozitlarga nisbatan qo'llaniladi, 179 kungacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlar uchun 5 foizli stavka joriy etilgan. Miqdori 5 mln. dollardan 52 mln. dollargacha bo'lgan transaksion depozitlarga nisbatan 3 foizli majburiy zahira stavkasi qo'llanilgani holda, summasi 52 mln. dollardan yuqori bo'lgan transaksion depozitlarga 10 foizli zahira stavkasi qo'llaniladi. Demak, transaksion depozitning summasi qanchalik katta bo'lsa, majburiy zahira stavkasi unga nisbatan shunchalik yuqori belgilanadi. Bu esa, xorijiy valyutalarga nisbatan joriy depozit hisob raqamlarining qoldiqlari sifatida yuzaga keladigan talabning miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Muddatli depozitlarga nisbatan past zahira stavkalarining belgilanishi majburiy zahira stavkalarining tijorat banklarining depozit bazasiga nisbatan yuzaga keladigan salbiy ta'siriga barham beradi va tijorat banklarining muddatli depozit hisob raqamlaridagi mablag'lar miqdorining oshishiga, joriy depozit hisob raqamlaridagi mablag'lar miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, milliy valyuta kursining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Lyuksemburg, Shvetsiyada majburiy zahira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining vositasi sifatida foydalanilmasligining asosiy sababi, fikrimizcha, mazkur mamlakatlarda pul-kredit siyosatining ochiq bozor siyosati, qayta moliyalash siyosati, valyuta siyosati kabi an'anaviy vositalardan foydalanish amaliyotining takomillashganligidir. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda majburiy zahira stavkalari orqali tijorat banklarining depozit bazasiga ta'sir qilish yo'li bilan ularning kredit tajovuzini jilovlash zaruriyati mavjud emas.

Majburiy zahira stavkalarini depozitlarning summasi va muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish zahira talabnomalari miqdorini hisoblash va uning to'g'ri hisoblanayotganligi ustidan

Markaziy bank nazoratini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Ammo qiyinchilikdan qochib, zahira stavkalarini tabaqalashtirmaslik majburiy zahira siyosatidan foydalanish amaliyotini takomillashtirish imkonini bermaydi.

Jadvaldakeltirilganma'lumotlardanko'rinadiki,respublikamizda Markaziy bankning majburiy zahira stavkasi boshqa Markaziy banklarning majburiy zahira stavkalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bu esa, mamlakatimizda pul miqdorining o'sish sur'atining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

**Yevropa Markaziy banki, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va O'zbekiston Markaziy banklari majburiy zahira stavkalarining o'rtacha darajasi[6]**

**(foizda)**

| Mamlakat | 2005 y | 2010 y | 2011 y |
|---|---|---|---|
| Evropa Markaziy banki | 2.0 | 2.0 | 2.0 |
| Rossiya | 3.0 | 2.5 | 4.5 |
| Ukraina | 2.7 | 5.5 | 5.0 |
| Qozog'iston | 6.0 | 2.0 | 2.0 |
| O'zbekiston | 13.3 | 12.5 | 12.5 |

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi majburiy zahira siyosatining so'mning almashuv kursiga nisbatan salbiy ta'sirining ikki jihati mavjud:

1 Majburiy zahira stavkalarining so'mdagi depozitlarning har bir turi buyicha (transaksion depozitlar, jamg'arma depozitlari, muddatli depozitlar) ularning miqdori va muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirilmaganligi transaksion depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog'ining yuqori darajada saqlanib qolayotganligining asosiy sabablaridan biridir. Chunki muddatli depozitlarga nis-

[6] *Markaziy banklarning yillik hisobotlari ma'lumotlaridan olingan.*

batan past darajadagi zahira stavkalarining qo'llanilmasligi tijorat banklariga mazkur depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish imkonini bermaydi. Natijada. joriy depozit hisob raqamlaridagi mablag'larning miqdori yirikligicha qolaveradi. Bu esa, xorijiy valyutalarga nisbatan yuqori darajadagi talabni yuzaga keltiradi.

2. Tijorat banklarining xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan majburiy zahira talabnomalarining joriy etilganligi ularning xorijiy valyutadagi mablag'larni muddatli va jamg'arma depozit hisob raqamlariga jalb etish imkoniyatini yanada pasaytiradi. «Yanada» deyishimizning sababi shundaki, hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari tomonidan jalb etilgan xorijiy valyutadagi muddatli depozitlarning asosiy qismi xorijiy banklarga depozit sifatida joylashtirilmoqda. Xorijiy banklar esa. bu depozitlarga bozor stavkalari (LIBOR, FIBOR)da foiz to'laydi. Depozitlarning bozor stavkalari esa sezilarli darajada past bo'lib, O'zbekiston ichki bozorida xorijiy valyutalardagi depozitlarga bo'lgan talabni ifoda etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi 1166-sonli Qaroriga muvofiq Markaziy bankning majburiy zahira stavkasi tijorat banklari depozitlarining muddatiga bog'liq ravishda tabaqalashtirildi

**O'zbekiston respublikasi markaziy bankining tabaqalashgan majburiy zahira stavkalari, foizda**[7]

| Depozit turlar | Majburiy zahira stavkasi |
|---|---|
| 1 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlar | 15 |
| 1 yildan 3 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlar | 12 |
| 3 yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar | 10.5 |

2009 yil sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi

[7] *Jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining e'lon qilingan ma'lumotlari asosida tuzildi.*

Markaziy bankining majburiy zahira stavkalarining tabaqalashtirilganligi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi.

Hozirgi davrda respublikamizning tijorat banklari transakasion depozitlardan to'g'ridan to'g'ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan kredit resursi sifatida foydalanilmoqda. Bu esa, banklarning barqaror resurs manbalarini qidirib topishdan manfaatdorligini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Holbuki, AQSh bank amaliyotida ham, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining bank amaliyotida ham transaksion depozitlardan tijorat banklarining faoliyatida to'g'ridan to'g'ri foydalanish taqiqlangan.

## 4.5. Majburiy zahiraning tijorat banklarining minimal likvidlilik darajasini muvofiqlashtirishdagi ahamiyati

Majburiy zahiralardan pul-kredit siyosatining vositasi sifatida foydalanish darajasi, ularga foiz hisoblash tartibi, majburiy zahiralar me'yorining miqdori, ularni tabaqalashtirish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Bunday farqlarning mavjudligi, asosan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari, pul muomalasi sohasidagi vaziyat kabi omillar bilan tariflanadi. Pul-kredit siyosatining vositasi sifatida majburiy zahiralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– bank tizimining likvidliligiga ta'sir etish funksiyasi;

– tijorat banklarining kredit emissiyasini cheklash funksiyasi;

– tijorat banki bankrot bo'lganda, uning majburiyatlari bo'yicha hisoblashish vazifasi.

Markaziy bank majburiy rezervlar miqdorini o'zgartirish yo'li bilan bank tizimining likvidliligiga ta'sir qila oladi.

Ikkinchi vazifasining mazmuni shundaki, majburiy zahiralar, mavjud miqdorlar sharoitida, banklarning Markaziy bank pullariga bo'lgan ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bu ehtiyojning miqdori

rezerv talablari qo'yiladigan majburiyatlar summasining o'sishiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ular markaziy banklarning pullariga bo'lgan barqaror talabning yuzaga kelishiga olib keladi. Bu talab pul-kredit siyosatining ta'sir vositasini kuchaytiradi, chunki minimal zahiralarning sezilarli darajada tebranishi kredit institutlarini Markaziy bankka murojaat qilishga majbur qiladi.

Hozirgi kunda ko'pchilik rivojlangan davlatlarda majburiy rezervlar bank tizimining likvidliligini ta'minlovchi vosita sifatida emas, balki banklarning kredit faoliyatini tartibga solish vositasi sifatida qaralmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, minimal rezervlar miqdorining o'zgarishi kredit institutlarining kredit faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Majburiy zahira miqdorlarining tez-tez o'zgarib turishi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar uchun xos hisoblanadi. Buning asosiy sababi, inflyatsiya jarayonlarining nisbatan yuqoriligi va xalq xo'jaligini tubdan qayta qurish bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida muomaladagi pul miqdorining ko'payib ketishidir.

## 4.6. Markaziy bank tomonidan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish va sotib olish tartibi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan qisqa muddatli obligatsiyalar oldi-sotdisi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining muomalaga davlat qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi depozitariysida kerakli summada «depo» hisob varag'i ochadi;

investor uchun depozitariyda depo hisobvarag'i va u bilan xiz-

mat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan diler depo topshiriqnomasi asosida ochiladi;

investor bitta dilerda depo topshiriqnomasi bo'yicha ochilgan faqat bitta depo hisobvarag'iga ega bo'lishi mumkin;

diler va investorning depo hisobvarag'iga quyidagi bo'limlar ochiladi va operatsiyalar olib boriladi.

- "asosiy bo'lim".
- "to'siq qo'yilgan bo'lim"

O'z navbatida "to'siq qo'yilgan bo'lim" o'z ichiga quyidagi bo'linmalarni oladi:

-garovga olinib to'siq qo'yilgan bo'linma;

-Repo bitimi bo'yicha to'siq qo'yilgan bo'linma;

-xatlash bo'yicha to'siq qo'yilgan bo'linma.

Bundan tashqari "Garovga olinib to'siq qo'yilgan bo'linma" garovga qo'yilgan obligatsiyalarni joylashtirish uchun sotish uchun to'siq qo'yilgan subhisobvarag'i ochiladi.

Asosiy bo'lim- depo hsobvarag'ining davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bo'yicha o'tkazishlarning amalga oshirishni hech qanday cheklashlar belgilanmagan bo'limi hisoblanadi.

To'siq qo'yilgan bo'lim amaldagi qonunchilik va shartnoma asosida davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga huquqiy cheklashlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan depo hisobvarag'ining bo'limi hisoblanadi.

Garovga olinib to'siq qo'yilgan bo'linma-depo hisobvarag'ining davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining huquqlariga garov majburiyatlari bo'yicha qo'yiladigan cheklashlarni hisobga olish uchun garovga oluvchining depo hisobvarag'ida ochiladigan bo'linmadir. Bu bo'linmada garov to'g'risidagi shartnomada quyidagi shartlar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak:

-garovga qo'yilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalar garovga

oluvchiga o'tkazib berilishi;

-garovga qo'yilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning ularni to'sig'i bekor qilingan sanadan va garovga beruvchining hisobvarag'iga qaytarilgan sana kelgandan keyin 10 kalendar kunidan kam bo'lmagan muddat o'tgach so'ndirish muddati kelishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga har hil shartnomalar garovi asosida paydo bo'lgan qiyinlashgan garov huquqlarini ushbu bo'linma bo'yicha hisobi xir bir shartnoma bo'yicha alohida-alohida yurgiziladi.

Repo bitimi bo'yicha to'siq qo'yilgan bo'linma qayta sotib olinishi bilan dvlat qisqa muddatli obligatsiyalar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismi bo'yicha davlat qisqa muddatli obligatsiyalar haridorining depo hisobvaragida ochiladigan depo hisobvarag'i bo'linmasi hisoblanadi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining ushbu bo'linma bo'yicha hisobi davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini qayta sotib olish sharti bilan oldi-sotdi bitimi har bir kelishuv to'g'risida alohida yuritiladi.

Xatlash bo'yicha to'siq qo'yilgan bo'linma depo xsobvarag'ining quyidagi cheklashlarni navsiflovchi bo'linma hisoblanadi:

-ushbu bo'linmadan diler yoki investorning roziligisiz qonunga asoslangan vakolatli organning ko'rsatmasi bo'yicha faqat depozitariyning o'zi tomonidan tuzilgan depo topshiriqnoamsi asosida davlat qisqa muddatli obligatsiyalar shu bo'linmaga o'tkazilishi mumkin.

-davlat qisqa muddatli obligatsiyalar ushbu bo'linmadan tashqari organlar ruxsati bo'lgan taqdirda, shuningdek davlat qisqa muddatli obligatsiyalar so'ndirilganda o'tkazilishi mumkin.

-ushbu bo'linmaga davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni o'tkazish va ularni xatlash uchun asos bo'ladigan kerakli hujjatlar olingan kunda amalga oshirilgan bo'lishi kerak.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning auksion oldi-sotdisi

maxsus hisob-kitob tizimi, bu – hisob-kitob operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan tuzilgan shartnoma asosida pulli hisob-kitoblarni ta'minlashga vakil qilingan O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi hisoblanadi. Tijorat banklari ushbu hisob-kitob tizimida vakillik hisobvaraqlarini ochadi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning birlamchi yoki ikkilamchi bozorda savdolar boshlangunga qadar tijorat banki o'zlari sotib olishni rejalashtirgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni to'lash uchun kerakli mablag'ni O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasidagi hisobvaraqqa o'tkazishlari shart. Birja esa ushbu mablag'larni tijorat banklarning vakillik hisobvaraqlarida zahiralashtiradi. Ushbu ma'lumotlar har bir diler hisoblangan tijorat bankining pul pozitsiyasi boshlang'ich qiymatlari hisoblanadi.

Oldi-sotdi bitimlarni tuzish dilerlarning davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni sotishga yoki sotib olishga bergan raqobatli va raqobatsiz buyurtmalari asosida amalga oshadi. Bu holatda raqobatli buyurtmalar ikki hilda bo'lishi mumkin:

-kotirovka hisobga olinuvchi raqobatli buyurtma;

-kotirovkada hisobga olinmaydigan raqobatli buyurtma;

Raqobatsiz buyurtmalar kotirovkada hisobga olinmaydigan buyurtmalar hisoblanadi va ular asosida garovga olingan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni sotish bo'yicha bitimlar amalga oshadi.

Tijorat banklari davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni sotib olish (yoki sotish) ga raqobatli buyurtmalarni bitimning yo'nalishi davlat qisqa muddatli obligatsiyalar miqdori, ularni narxi va sotib oluvchi (yoki sotuvchi) ning maxsus kodini ko'rsatgan holda savdo tizimiga kiritadi. Raqobatsiz buyurtmalar uchun narx bo'lib, buyurtma berilgan vaqtdagi savdo tizimi tomonidan avtomatik tartibda hisobga olinadigan savdolar narxining o'rtacha baholangan narx hisoblanadi. Buyurtma berilgan paytida uning vaqti savdo tizimi-

da qayd etiladi. Garovdagi davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining sotilishi dilerning depo hisobvarag'idagi garovga olinib to'sib *qo'yilgan bo'linmasiga mos keluvchi sotish uchun to'siq qo'yilgan* bo'linmasiga subhisobvarag'idan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari davlat qisqa muddatli obligatsiyasi sotib olishga buyurtma tushganda savdo tizimi pul pozitsiyasining qiymatini berilgan buyurtma qiymatini to'liq qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan pul summasi mablag'lariga (vositachilik to'lovi haqi summasini qo'shib hisoblangan holda) kamaytiradi. Agar olingan natija O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ushbu tijorat banki uchun belgilangan limitdan kam bo'lsa, mazkur buyurtma ijroga qabul qilinmaydi. Tijorat bankidan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni sotishga buyurtma tushganda savdo tizimi depo pozitsiyasi qiymatini berilgan buyurtmani to'la qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalar soniga kamaytiradi. Agar olingan natija salbiy bo'lsa, berilgan buyurtma ijroga qabul qilinmaydi. Agar kotirovka hisobga olinadigan raqobatli buyurtma u berilgan vaqtdagi narx bo'yicha shartlarni joriy kotirovkaga mos kelmasligi sababli qanoatlantirilmasa, unda buyurtma navbatga qo'yiladi.

Agar kotirovka hisobga olinmaydigan raqobatli buyurtma, shuningdek, garovga olingan obligatsiyalarni sotish uchun berilgan raqobatsiz buyurtma bilan bitim tuzishning, ular berilgan paytdagi narxlar shartlarning mos kelmasligi sababli iloji bo'lmasa, unda ushbu buyurtma savdo tizimidan olib tashlanadi.

Buyurtmalar quyidagi shartlarga rioya qilgan holda qanoatlantiriladi:

-buyurtmaning xajmi uning ustunligiga ta'sir qilmaydigan holatda;

-berilgan vaqtidan qat'iy nazar, afzalroq narxga ega bo'lgan buyurtma, afzalligi kamroq bo'lgan narxdagi buyurtmaga nisbatan oldinroq qanoatlantiriladi;

-narxlari bir hil bo'lganda, oldin berilgan buyurtma, undan key-

inroq berilgan buyurtmaga nisbatan ilgari qanoatlantiriladi;

-bitim hamisha navbatda birinchi turgan buyurtmaning narxi bo'yicha tuziladi;

-agar buyurtma bitim tuzish paytida faqat qisman qanoatlantirilishi mumkin bo'lsa, unda uning qanoatlantirilmagan qismi alohida buyurtma sifatida qarab chiqiladi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar oldi-sotdisi bo'yicha ijro etilgan bitim natijalari bo'yicha dilerning buyurtmasi (to'liq yoki qisman) qanoatlantirilgan taqdirda, ushbu dilerning buyurtmalari ta'minoti vositasi bo'lib xizmat qiladigan pul mablag'lari pozitsiyasi va depo pozitsiyasi qayta hisoblanishi amalga oshiriladi.

Biz quyidagi jadvalda davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni joylashtirish yuzasidan o'tkaziladigan kim oshdi savdolarining o'tkazilish tartibini ko'rib chiqamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muomalaga chiqarilishining belgilab qo'yilgan xajmlari doirasida davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni sotishning eng past bahosini va auksionning o'rtacha tortilgan bahosini belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga buyurtmalarni qanoatlantirish haqida topshiriq beradi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar daromadliligini oddiy foizning yillik stavkasi quyidagicha formulada hisoblanadi.

**Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini joylashtirish tartibi.**[8]

| T/r | Ko'rsatkichlar | 24064UMFS | 24065UMFS |
|---|---|---|---|
| 1. | Kimoshdi savdosi o'tkazilgan sana | 07.04.11 | 21.04.11 |
| 2. | Qoplanish sanasi | 06.04.12 | 20.04.12 |
| 3. | Emissiya miqyosi (mln so'm) | 2300.0 | 700.0 |

[8] www.Cbu.uz.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. | *Eng yuqori baho (nominal-belgilangan narxiga nisbatan foizlarda)* | 88,92 | 88,91 |
| 5. | Eng past baho (nominal belgilangan narxga nisbatan foizlarda) | 88,92 | 75.00 |
| 6. | Ajratish bahosi (nominal narxga nisbatan foizlarda) | 88,92 | 88.91 |
| 7. | Qoniqtirilgan hama talabnomalarning o'ratacha chamalangan bahosi (nominal narxiga nisbatan foizlarda) | 88,92 | 88,91 |
| 8. | *O'rtacha chamalangan bahoda qoplashga* daromadliligi (murakkab yillik foizda) | 12,50 | 12.51 |
| 9. | Nominal narxi bo'yicha tushgan talabnomalar (mln. so'mda) | 1506,46 | 422,47 |
| 10. | Nominal narxi bo'yicha qondirilgan talabnomalar (mln so'mda) | 1506,46 | 422,47 |
| 11. | Haqiqatda jalb qilingan mablag (mln so'mda) | 1339.54 | 375,62 |
| 12 | Ilgari chiqarilgan davlat qisqa muddatli *obligatsiyalarining -qoplanishi* | 2800,0 | 700,0 |

$$P = \frac{N - P \cdot D}{365}$$

Bunda: N-davlat qisqa muddatli obligatsiya nominal qiymati

R- harid qilish bahosi

D-so'ndirishgacha qolgan davr (kun hisobida)

Samarali daromadlilik shuningdek davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning qolgan davrdagi daromadliligini ham belgilab beradi, lekin bu holatda yillik stavka murakkab foiz bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar savdolar tugagandan so'ng, savdo tizimi hamma qanoatlantirilmagan buyurtmalarni chiqaradi va barcha dilerlarning barcha pozitsiyalari yakuniy qiymatlarini hisoblab chiqadi. Savdo tizimi har bir dilerning hisob-kitob tizimidagi vakillik hisobvarag'idan o'tkazilish (yoki hisobvarag'iga

o'tkazilishi) kerak bo'lgan pul mablag'larini sof saldosini, shuningdek, har bir dilerning (sarmoyadorning) depozitariydagi depo hisobvarag'idan o'tkazilishi yoki depo hisobvarag'iga kiritib qo'yilishi kerak bo'lgan obligatsiyalarning sof saldosini aniqlaydi va O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi depozitariysi hisob-kitoblarga asos bo'ladigan hujjatlar asosida barcha yakuniy operatsiyalarni amalga oshiradi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalardan olinadigan daromad amaldagi qonunchilikka ko'ra soliqqa tortilmaydi va bu holat respublikamizdagi tijorat banklarini ushbu bozordagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2013 yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi hukumatining qimmatdor qog'ozlarini muomalaga chiqarish to'xtatildi.

## 4.7.Pul-kredit orqali muvofiqlashtirishda ochiq bozor operatsiyasining o'rni. Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyasi.

Markaziy bankning ochik bozor siyosati deganda, odatda, Markaziy bank tomonidan qimmatdor qog'ozlar bozorida qimmatdor qog'ozlarni sotib olinishi yoki sotilishi tushuniladi.

Markaziy banklarning ochiq bozor operatsiyalarida oldi-sotdi ob'ekti sifatida, asosan, quyidagi qimmatdor qog'ozlardan foydalaniladi:

- xazina veksellari;
- hukumatning obligatsiyalari;
- hukumatning o'rta va uzoq muddatli xazina majburiyatlari;
- korporativ obligatsiyalar;
- tijorat banklarining depozit sertifikatlari;
- korxonalarning tijorat veksellari.

Mazkur qimmatdor qog'ozlarning bir qismi pul bozoriga tegishli bo'lsa, ikkinchi qismi kapitallar bozoriga tegishlidir. Masalan, *xazina veksellari pul bozorining vositasi hisoblanadi, korporativ obligatsiyalar* esa, kapitallar bozoriga tegishlidir.

Bir qator rivojlangan sanoat davlatlarida, masalan, AQSh GFR, Buyuk Britaniya va Fransiyada Markaziy bankning qimmatdor qog'ozni bevosita emitentning o'zidan sotib olishi ochiq bozor operatsiyasi hisoblanmaydi, balki kredit operatsiyasi hisoblanadi. Masalan, hukumatning qimmatdor qog'ozlarni bevosita hukumatning o'zidan sotib olish Davlat byudjeti xarajatlarini Markaziy bank tomonidan kreditlanishi hisoblanadi. Shuningdek, hukumat*ning qimmatdor qog'ozlarining* kursini *saqlash maqsadida amalga* oshiriladigan joriy operatsiyalar ham ochiq bozor operatsiyalari hisoblanmaydi.

Rasmiy ma'lumotlardan ko'rinadiki, Markaziy bank depozit sertifikatlarida ochiq bozor operatsiyalari orqali bank tizimidagi katta miqdordagi likvidlilikni olib qo'ymoqda

Markaziy bank, odatda, ochiq bozor siyosatini amalga oshirish yo'li bilan milliy bank tizimining zahiralariga ikki usul bilan ta'sir qiladi:

1. Agar Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligini oshirishni va milliy valyutadagi pullarning taklifini oshirishni maqsad qilib olgan bo'lsa, u holda, Markaziy bank bozorda qimmatdor qog'ozlarni sotib oluvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunda Markaziy bank qimmatdor qog'ozlarga qat'iy belgilangan kurs o'rnatishi va kurs shu belgilangan darajaga yetishi bilan taklif qilingan barcha qimmatdor qog'ozlarni sotib olish yo'lidan foydalanishi mumkin. Yoki *Markaziy bank taklif etilgan paytdagi kursning qanday* bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum turdagi qimmatdor qog'ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit operatsiyalari hamda obligatsiyalari va depozit sertifikatlarini sotish orqali jalb etilgan mablag'lari hajmi, trln.so'm[9]**




2. Agar Markaziy bank milliy bank tizimidagi ortiqcha likvidlilikni kamaytirishni maqsad qilib olgan bo'lsa, u holda, Markaziy bank qimmatdor qog'ozlar bozorida sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunda ham Markaziy bank ikki imkoniyatga ega bo'ladi:

- markaziy bank ma'lum kursni e'lon qilishi va qimmatdor qog'ozlarning kursi e'lon qilingan darajaga yetishi bilan istalgan miqdordagi qimmatdor qog'ozni sotish majburiyatini olishi mumkin;

- markaziy bank qo'shimcha tarzda ma'lum miqdordagi qimmatdor qog'ozni sotish majburiyatini olishi mumkin. Buning natijasida davlatning qimmatdor qog'ozlaridan va boshqa yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlardan keladigan daromadlarning miqdori oshadi va shuning asosida ularning investitsion jozibadorligi oshadi. Pirovard natijada, tijorat banklari va boshqa kredit institutlarining maz-

---

[9] *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari. www.cbu.uz.*

kur qimmatdor qog'ozlarga bo'lgan qiziqishi kuchayadi va ularning kreditlash salohiyati pasayadi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlar foiz stavkalarining oshishiga olib keladi. Agarda foiz stavkalarining shu tahlitda o'sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatdor qog'ozlarni sotib olishi mumkin. Bunday holatni bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklarining faoliyatida kuzatish mumkin. Masalan GFR, Federal banki (Bundesbank) tomonidan ochik bozorda qat'iy foizli qimmatdor qog'ozlarni sotib olish 1975 yilning ikkinchi yarmiga kelib o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu vaqtda Bundesbank banklarning likvidliligini ta'minlash va foiz stavkalarini o'zining pul-kredit siyosatining oraliq va taktik maqsadlariga mos keladigan darajasidan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 7,5 mlrd. nemis markasi miqdoridagi summaga yuqori likvidli qimmatdor qog'ozlar sotib olgan edi. 1976 yilda esa, aksincha, Bundesbank bunday qimmatdor qog'ozlarni juda katta miqdorda sotdi. Buning sababi shundaki, Bundesbank qat'iy foizli qimmatdor qog'ozlarning kursini oshishi natijasida bank kreditlari va depozitlari foiz stavkalarining pasayish jarayonini to'xtatib qo'ymasdan turib, bozordan katta miqdordagi likvidlilikni olib qo'yishi zarur edi. Birgina 1976 yilning o'zida Bundesbankning qimmatdor qog'ozlar portfeli 6,5 mlrd. nemis markasiga kamaydi.

Shunisi e'tiborliki, ko'pchilik rivojlangan sanoat mamlakatlarida ma'lum turdagi qimmatdor qog'ozlarga nisbatan kursni belgilab qo'yish siyosati qo'llaniladi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, Markaziy bank, qisqa muddatli qarz majburiyatlari bilan operatsiyalarni amalga oshirayotganida, minimal stavkani ko'rsatadi. Shundan keyin tijorat banklari, ularning kreditga bo'lgan talablari qondirilgan sharoitda, to'lashga rozi bo'lgan stavkani ko'rsatib ariza beradilar. Markaziy bank tushgan arizalar asosida o'zining hisob stavkasini aniqlaydi. Bunda yuqori foiz stavkalari taklif qilgan kredit institutlari katta miqdorda kredit resurslari oladi.

Ochiq bozor operatsiyalarining e'tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, xalqaro bank amaliyotida Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasida kursni belgilash borasidagi shartnomani imzolashda quyidagi ikki hil standart mavjud:

1. Foiz stavkalari barcha tijorat banklari uchun yagona stavkada belgilanadi.Ushbu standart «kreditlarni taqsimlashning gollandcha usuli» deb ataladi.

2. Foiz stavkalari har bir tijorat bankiga nisbatan alohida o'rnatiladi. Ushbu standart «amerikacha standart» deb ataladi.

Markaziy bankning ochiq bozor siyosati orqali tijorat banklari tomonidan depozitlarga to'lanadigan va kreditlardan olinadigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish mumkin. Mazkur ta'sir vositasi quyidagi ko'rinishga ega: Markaziy bank iqtisodiyotning nobank sektoridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirganida pul bozorini tartibga solish maqsadini ko'zlamaydi.

Demak, Markaziy bank tomonidan sotib olinuvchi qimmatdor qog'ozlar tarkibiga kirmaydigan qimmatdor qog'ozlarning sotilishi ham bank tizimining likvidliligini kamaytiradi. Bundan tashqari, Markaziy bank, nobank sektoridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qimmatdor qog'ozlarni sotishda yuqori foizlar belgilash yo'li bilan, tijorat banklarining depozitlarga to'laydigan foiz stavkalariga faol tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarida oldisotdi ob'ekti bo'lib, hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalari va o'rta muddatli xazina majburiyatlaridan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, respublikamizda muomalada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari mavjud. Ammo bu obligatsiyalar tijorat banklarining vakillik hisob raqamlaridagi likvidlilikning ma'lum qismini olib qo'yish maqsadida emissiya qilingan.

Rivojlangan davlatlarda va bir qator o'tish iqtisodiyoti davlatlarida hukumatning qimmatdor qog'ozlariga tijorat banklari tomonidan qilingan investitsiyalar ular aktivlarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, mazkur mamlakatlarning markaziy banklariga ochiq bozor siyosatini faol tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrimizcha. Markaziy bankning ochiq bozor siyosatini amalga oshirishda Markaziy bankning savdo hamkorlarini tanlashning xalqaro amaliyotda qabul qilingan tamoyillariga qat'iy rioya qilish lozim. Xalqaro amaliyotda Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarida ishtirok etuvchi tijorat banklari (savdo hamkorlari) ni tanlashda quyidagi ikki tamoyildan foydalaniladi:

1. Agar Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini doimiy ravishda amalga oshirmasa (masalan, xaftada bir marta amalga oshirsa), ushbu operatsiyalarda barcha tijorat banklari ishtirok etadi.

2. Agar Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini doimiy ravishda amalga oshirsa, ya'ni har kuni yoki bir kunda bir necha marta amalga oshirsa, Markaziy bank uncha ko'p sonli bo'lmagan bir nechta tijorat bankini tanlaydi.Ayrim hollarda, Markaziy bank pullar taklifiga tez ta'sir qilish maqsadida bitta tijorat banki bilan yirik summada ochiq bozor operatsiyasini amalga oshiradi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida Markaziy bankning bitta tijorat banki bilan ochiq bozor operatsiyasini amalga oshirishining jiddiy havfli jihati mavjud. Ushbu havfli jihatning mohiyati shundaki, respublikamiz bank amaliyotida mo''tadil sog'lom raqobat muhiti hozirga qadar shakllantirilmagan.

Markaziy bank tomonidan ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirishda tijorat banklariga nisbatan aniq mezonlarga asoslangan

majburiyatlar belgilanishi lozim. Bu borada ochiq bozor siyosati bo'yicha katta tajriba to'plagan markaziy banklar (Angliya, GFR Bundesbanki, AQSh FZT) ning ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish tartibini o'rganish maqsadga muvofiq. Masalan, Angliya Markaziy bankining amaldagi talabiga ko'ra, Markaziy bank bilan ochiq bozor operatsiyalarida ishtirok etuvchi tijorat banklari quyidagi mezonlar bo'yicha talabga javob berishlari lozim:

- operatsiyani to'lik va havfsiz rejimda amalga oshirish imkonini beradigan darajada texnik imkoniyatlarga ega bo'lishi;
- turli bozorlarda likvidlilikni talab qilinadigan darajada o'zgartirish uchun zarur bo'lgan miqyosda operatsiyalarni faol tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ochiq bozordagi operatsiyalarda doimiy tarzda ishtirok etishi;
- Markaziy bankni bozorda yuzaga kelgan sharoitlar va vaziyatlar to'grisidagi foydali ma'lumotlar bilan doimiy ravishda ta'minlab turish zarur.

## 4.8. Pul muomalasini muvofiqlashtirishda valyuta siyosatining o'rni va ahamiyati

Markaziy bankning valyuta siyosati uning an'anaviy pul-kredit vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, valyuta siyosatining pirovard maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining uch asosiy turi xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilmokda. Ular quyidagi operatsiyalardan iborat:

1. Valyuta tajovuzini amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyalar. Valyuta tajovuzi doirasida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari xorijiy valyutani milliy valyutaga sotib olish va

sotish operatsiyalaridan iborat. Respublikamizda tajovuz vositasi sifatida ishlatilayotgan bazaviy valyuta AQSh dollari bo'lganligi sababli, shu maqsadda amalga oshirilayotgan operatsiyalar AQSh dollarini sotib olish va sotish operatsiyalaridan iborat.

Odatda Markaziy banklar valyuta tajovuzining samaradorligini ta'minlash maqsadida tajovuz fondidan sotilgan xorijiy valyutadagi mablag'larning miqdorini va tajovuz hisobraqami qoldig'ini sir tutadilar. Buning sababi shundaki, valyuta tajovuzining samaradorligi deganda uning vositasida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan almashuv kursining favqulodda va keskin tebranishiga barham berilishi hisoblanadi. Agar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotish hajmining o'sib borishi sharoitida milliy valyutaning qadrsizlanishi davom etayotganligini sezib qolsalar, bu holat valyuta bozorida ruhiy vahima holatini yuzaga keltiradi va buning natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab keskin ortishi mumkin. Bunga xalqaro amaliyotdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 1992 yilning sentyabr oyida G'arbiy Yevropadagi valyuta bozorlarida yuz bergan inqiroz natijasida Buyuk Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasining nominal almashuv kursining keskin pasayib ketishi natijasida ular Yevropa valyuta tizimidan chiqib ketdi. Buning sababi shundaki, Angliya va Italiya markaziy banklari o'z milliy valyutalari kurslarining favqulodda tebranishiga valyuta tajovuzi orqali barham berishning uddasidan chiqa olmadilar. Masalan, Angliya Markaziy banki valyuta tajovuzi doirasida AQSh dollarini sotish hajmini oshirishi bilan London valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan AQSh dollarini sotib olish hajmi ham oshib bordi. Buning oqibatida valyuta tajovuzi samara bermadi. Chunki bozorda ruhiy vahima kuchli edi. Bu esa, bozorda AQSh dollariga nisbatan kuchli talabni yuzaga keltirdi.

2. Hukumatning tashqi qarzini to'lash bo'yicha Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

Ma'lumki, sanoati rivojlangan mamlakatlarida, xususan, AQSh, GFR, Fransiyada hukumat xorijiy valyutalarda zahiralarga ega emas, chunki bu mamlakatlarda davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zahiralari Markaziy bankning balansiga qonuniy ososda o'tkazilgan. Bunday sharoitda hukumatning tashqi qarzi Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zahiralari hisobidan to'lanadi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, Markaziy bank, xorijiy valyutada to'langan mablag'ning milliy valyutadagi ekvi- valentini hukumatning joriy hisob raqamidan chegirib oladi.

Hukumatning tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning mazkur shakli hukumatning tashqi qarz botqog'iga botib qolishdan saqlaydi. Chunki Markaziy bank hukumatning to'lanishi lozim bo'lgan tashqi qarzining milliy valyutadagi ekvivalenti mavjud bo'lmagan sharoitda to'lov topshiriknomasini qabul qilmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hukumatning tashqi qarziga hizmat ko'rsatishning mazkur tartibidan foydalanishda Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqilligining ta'minlanganligi muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki Markaziy bankning mustaqilligi to'liq ta'minlangan sharoitdagina uning Prezidenti hukumatning tashqi qarzi qonuniy to'lanishini talab qila oladi. Aks holda, Hukumat Markaziy bankni tashqi qarzni to'lashga majbur qiladi. Bunday sharoitda hukumat Markaziy bankning kreditlaridan tashqi qarzni to'lashda manbaa sifatida foydalanishi mumkin.

3. Markaziy bankning balansidagi oltin-valyuta zahiralarini boshqarish operatsiyalari.

Xalqaro bank amaliyoti tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda, Markaziy bank o'zining balansidagi oltin valyuta zahiralarini boshqarishda asosan quyidagi usullardan foydalanadi:

- valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish usuli;
- valyutaviy svop operatsiyalaridan foydalanish;
- gold svop operatsiyalaridan foydalanish;
- ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish.

Valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish deganda tarixan bir vaqtning o'zida bir nechta yetakchi va barqaror valyutalarda zahiralar tashkil qilish tushuniladi. So'nggi yillarda bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan (masalan, L. Krasavina, A. Kireev va b.) tomonidan valyuta zahiralarining tarkibini nobarqaror valyutalarni sotish va ularning o'rniga barqaror valyutalarni sotib olish yuli bilan yangilash operatsiyalari ham valyuta zahiralarini diversifikatsiya qilish sifatida e'tirof etilmoqda. Bu e'tirof mantiqan asoslidir. Chunki valyuta zahiralarining tarkibini oldi-sotdi operatsiyalari orqali yangilash valyuta zahiralarining diversifikatsiya darajasining sifatini oshiradi va valyuta zahiralarining tavakkalchilikka uchrash xavfini pasaytirishga xizmat qiladi.

Oltinni xalqaro bozorlarda (asosan London va Syurix bozorlarida) qulay bozor baholarida sotish malakali mutaxassislarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, mabodo, respublikamiz Markaziy bankida bunday kadrlarning, ya'ni oltin savdosi bilan shug'ullanuvchi kadrlarning yetishmasligi muammosi mavjud bo'lsa, u holda gold svop operatsiyalarini xalqaro hisob-kitoblar banki orqali amalga oshirish mumkin. Xalqaro hisob-kitoblar banki markaziy banklarga valyutalar va oltindagi zahiralarni svop sharti bo'yicha joylashtirish, depozit-suda operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, Markaziy bank O'zbekiston hukumatiga, uning xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo'yicha bergan kafilliklari bo'yicha majburiyatlarini bajarishda, Gold svop operatsiyalari orqali amaliy yordam ko'rsatishi mumkin. Ya'ni Markaziy bank hukumatning xorijiy valyutadagi to'lovlari uchun zarur bo'lgan

miqdordagi tushumni olish imkonini beradigan miqdordagi spot sharti bo'yicha sotadi. Xorijiy valyutada olingan tushumni hukumatga beradi. Undan keyin esa, Markaziy bank bilan hukumat o'rtasida tuzilgan tulov shartnomasining muddatidan kelib chiqqan holda, Markaziy bank xorijiy Markaziy bank bilan forvard valyuta shartnomasini tuzadi. Forvard shartnomasining muddati tugashi bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatdan olingan xorijiy valyutadagi tushum hisobidan oltinni forvard kursi bo'yicha sotib oladi.

Milliy valyuta kursining iste'mol tovarlarining bahosiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siriga barham berish markaziy banklarning valyuta siyosatida muhim o'rin egallaydi. Buning boisi shundaki, inflyatsiya va valyuta kursi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odatda, milliy valyuta kursining pasayishi kelgusida inflyatsiyaning o'sishiga olib keladi. Inflyatsion tazyiq foiz stavkalarining o'sishi bilan susayishi mumkin, ammo foiz stavkalarining o'sishi investision va iste'molchi talabining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya portfelining o'zgarishi natijasi bo'lsa, u holda, bunday qadrsizlanish yuqori darajadagi inflyatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bunday sharoitda foiz stavkalarining o'sishini ta'minlash inflyatsiyani jilovlashning oqilona yuli hisoblanadi. Agar milliy valyutaning qadrsizlanishi tashqi savdo shartlarining o'zgarishi oqibati bo'lsa, u holda foiz stavkalari pasaytirilishi lozim. Chunki bunday sharoitda sof eksport va umumiy talab qisqaradi.

Shunisi e'tiborliki, milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qullanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni YIMning o'sish sur'ati sekinlashadi.

Markaziy bankning valyuta siyosati an'anaviy monetar instrument sifatida pul-kredit siyosatining oraliq va pirovard maqsadlariga mos kelishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy bankning valyuta siyosati bilan pul-kredit siyosati o'rtasida qarama-qarshilik tez-tez uchrab turadi. Masalan, respublikamizda tijorat banklariga naqd pul tushumi buyicha "naqd pullarning qaytish koeffisienti" deb nomlanuvchi ko'rsatkich sifatida majburiyat yuklangan. Bundan tashqari, respublikamiz tijorat banklarining aylanma kassalariga kelib tushgan naqd pullarning asosiy qismi (75-80%) birinchi darajali tulovlarni (davlat byudjetining kassa ijrosi bilan bog'lik bo'lgan to'lovlar) to'lashga yunaltirilmoqda. Natijada, respublikamizning tijorat banklarida so'mdagi naqd pullarning yetishmasligi muammosi yuzaga keldi. Bunday sharoitda tijorat banklari naqd xorijiy valyutalarni sotib olishdan manfaatdor bo'lmaydi. Chunki naqd xorijiy valyutalarning bank tomonidan sotib olinishi uning so'mdagi chiqimlari summasining oshishiga olib keladi va buning oqibatida naqd pul yetishmasligi muammosi yanada chuqurlashadi.

Xorijiy mamlakatlarning amaliyotida ham pul-kredit siyosati bilan valyuta siyosati o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuzatish mumkin. Masalan, Rossiyada 1998-2000 yillarda milliy bank tizimidagi zahiralarning o'sishi sharoitida rubldagi pul massasining ma'lum qismini muomaladan olish imkonini beradigan moliyaviy instrumentlar yetarli bo'lmaganligi sababli pul agregatlarining o'sishi yuz beradi. Buning natijasida baholarning o'sishi jadallashdi.

Shunday qilib, pul-kredit munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining diskont, ochiq bozorlardagi operatsiyalar, majburiy zahira normalari va valyuta siyosati vositalaridan foydalaniladi. Ushbu vositalardan foydalanishdan bosh maqsad mamlakat pul birligi barqarorligini

ta'minlashdan iborat. Bunga erishish uchun esa pul bozorida talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali muomaladagi pul massasini muvofiqlashtirishdan iborat.

## 4.9. Markaziy bankning valyuta tajovuzi. Deviz siyosati. Svop operatsiyalari. Devalvatsiya va revalvatsiya. Valyutaviy cheklashlar siyosati.

Valyuta tajovuzi XIX asrdan boshlab qo'llanila boshlandi. Masalan, Rossiyaning Davlat banki, Avstro-Vengriya banki o'z milliy valyutalari kursini qo'llab-quvvatlash maqsadida i tajovuzdan foydalangan. Oltin monometalizmi bekor qilinishidan so'ng valyuta tajovuzi keng qo'llanila boshlandi. 1929-1933 yillar jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida valyuta tajovuzi markaziy banklar valyuta dempingiga ko'maklashish uchun o'z valyutalari kursini pasaytirish maqsadida foydalangan.

Valyuta intervensiyalarini o'tkazishning moddiy asosi bo'lib AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda 1930- yillarda tashkil etilgan valyuta barqarorlashtirish fondlari xizmat qildi. Valyuta barqarorlashtirish fondlari - bu, valyuta kursini muvofiqlashtirish maqsadida valyuta intervensiyasida ishlatiladigan oltin, xorijiy va milliy valyutalardagi davlat fondlaridir. Zamonaviy sharoitda ayrim mamlakatlarda ushbu fondlarning belgilanishi va roli o'z xususiyatlariga ega. Fransiyada yuqorida zikr etilgan fond maqsadli fond bo'lib rasmiy oltin-valyuta zahiralari doirasida ajratiladi. Fransiya banki o'z intervensiya operatsiyalarining harakteri va ko'lamini oshkora etmaslik uchun ushbu fondning hajmini matbuotda e'lon qilmaydi. AQShda esa valyuta barqarorlashtirish fondi o'z ahamiyatini yo'qotdi (uning 2 mlrd. AQSh dollaridagi hajmi barpo etilish paytidan boshlab, ya'ni 1934

yildan o'zgarmasdan kelmoqda). chunki federal zahira banklari valyuta intervensiyasini asosan "svop" kelishuvining shartlari asosida xorijiy markaziy banklar kreditlari hisobiga amalga oshiradilar. Buyuk Britaniyada hozirgi kunda valyuta barqarorlashtirish fondi mamlakatning barcha rasmiy oltin-valyuta zahiralarini o'zida birlashtiradi.

Deviz - bu, xorijiy valyutadagi har qanday to'lov vositasidir. Xorijiy valyuta valyuta bozorida oldi-sotdi ob'kti bo'ladi. xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklarda hisob-varaqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob-kitob vositasi bo'lib hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmagan holda). *Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy* valyutani nisbatan barqaror bo'lgan xorijiy valyuta siqib chiqaradi, zamonaviy sharoitda bu AQSh dollari va Yevrodir.

Deviz siyosati. Bu, milliy valyuta kursiga davlat organlari tomonidan xorijiy valyutani (deviz) oldi-sottisi orqali ta'sir etish uslubidir. Milliy valyuta kursini ko'tarish maqsadida Markaziy bank xorijiy valyutani milliy valyutaga sotadi, pasaytirish uchun esa aksincha sotib oladi. Deviz siyosati asosan valyuta tajovuzi shaklida amalga oshadi. Valyuta tajovuzi rasmiy oltin-valyuta zahiralari yoki markaziy banklarning banklararo "svop" kelishuvlariga asosan milliy valyutadagi qisqa muddatli o'zaro kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

Deviz siyosati bevosita valyuta kursiga ta'sir etadi, ammo ushbu ta'sir muvaqqat va cheklangan ko'lamlardadir. Valyuta tajovuzi bo'lgan yirik xarajatlar, agarda kurs shakllanishining bozor omillari davlat muvofiqlashtirishidan ustunroq bo'lsa. hamma vaqt ham valyuta kurslari barqarorligini ta'minlay olmaydi.

Valyuta zahiralarining diversifikatsiyasi - davlatlar, banklar, TMKlarning Xalqaro hisob-kitoblar, valyuta i tajovuzini amalga

oshirish va valyuta yo'qotishlaridan o'zini himoyalashni ta'minlash maqsadida valyuta zahiralari tarkibiga turli valyutalarni kiritish orqali tarkibiy tuzilishini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan siyosatidir. Ushbu siyosat odatda barqarorsiz valyutalarni sotish va nisbatan barqaror hamda xalqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan valyutalarni sotib olish orqali amalga oshiriladi. AQSh dollarining beqarorligi uning kapitalistik dunyo rasmiy zahiralaridagi ulushini tebranishiga sabab bo'ldi (1973 yilda-84,5 foiz, 1982 yilda-71,4 foiz, 1990 yilda-60 foizga yaqin).

Devalvatsiya va revalvatsiya valyuta siyosatining an'anaviy uslublaridir. Devalvatsiya - bu, xorijiy valyutalar yoki Xalqaro valyuta birliklariga, oltinga nisbatan milliy valyuta kursining pasayishi. Uning ob'yektiv asosi bo'lib rasmiy valyuta kursining bozor kursiga nisbatan yuqoriroq qo'yilishi hisoblanadi. Revalvatsiya - bu, xorijiy valyutalar yoki Xalqaro valyuta birliklariga, oltinga nisbatan milliy valyuta kursining ko'tarilishidir.

Devalvatsiya eksportni rag'batlantiradi, ammo investitsiyalarni moliyalashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kurslar farqi nuqtai nazaridan funt-sterling devalvatsiyasi oqibatida AQSh dollarining haqiqiy revalvatsiyasidan AQSh ning yutuq va yo'qotishlari shartli hisob-kitoblarini ko'rib chiqamiz.

1. Tashqi savdo. AQSh ning Buyuk Britaniyaga eksporti bo'yicha bajarilmagan shartnomalar qiymati 20 mln. Funt-sterlingni tashkil etadi deb faraz qilamiz. Amerika eksportchilarining zararlari (himoya shartlashuvi yo'qligi paytda) 8 mln. dollarni tashkil etadi, chunki ular tushum sifatida olingan funt-sterlinglarni AQSh dollarlariga 1 funt uchun 2,8 dollar kursi o'rniga 2,4 dollar kursi bo'yicha almashtiradilar, ya'ni:

20 mln. f. st. * (2,8 - 2,4) q 8 mln. dollar.

Buyuk Britaniyadan import bo'yicha bajarilmagan shartnomalar

qiymati - 15 mln. f. st. Amerikalik eksportchilar qo'shimcha 6 mln. dollar oladilar, chunki devalvatsiya qilingan valyutani nisbatan qimmatlashgan o'z valyutalariga sotib olganda ular yutadilar.

15 mln. f. st. * (2,8 - 2,4) q 6 mln. dollar.

2. Xalqaro kredit. Amerikalik qarzdorlarga qarzlari bo'yicha hisob-kitoblarni funt-sterlinglarda qilish qulay, chunki qarzni so'ndirish uchun ular nisbatan kam miqdorda dollar sarflaydilar. Agar 5 mln. f. st. hajmida qarz so'ndirilsa 2 mln. AQSh dollari tejaladi (5 mln. f. st. 0,4 dollar miqdoridagi kurslar farqiga ko'paytiriladi). Ammo amerikalik kreditorlar zarar ko'radilar, chunki ular nominal jihatdan avvalgi hajmda, lekin devalvatsiya qilingan valyutada real jihatdan kamroq miqdordagi mablag'ni oladilar. Ya'ni, AQSh lik kreditorning 10 mln. f. st. talabi mavjud bo'lgan paytda yo'qotishlar hajmi 4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda devalvatsiya qilingan naqd valyuta va sterlingli hisobvaraq egalari ham zarar ko'radilar. Bunda agressiv va mudofaali devalvatsiya hamda revalvatsiyalar farqlanadi.

Devalvatsiya va revalvatsiya natijalari aniq shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi hamda ta'siri, agar boshqa omillarning aks ta'siri bo'lmasa, ma'lum bir vaqtdan (lag) so'ng o'zini namoyon etadi. Xususan, AQSh dollarining 1971 yildagi devalvatsiyasi faqat 1973 yildagina AQSh to'lov balansining aktivlashishiga ko'maklashdi. Dollar kursini ko'tarishga qaratilgan AQShning valyuta siyosati (1980-1984 yillarda haqiqatda 80%ga) ularga, inflyatsiya sur'atini pasaytirgan holda, xorijiy kapitallar va arzon tovarlarning oqib kelishi sifatida foyda keltirdi.

Devalvatsiya baholarning o'sishiga va mehnatkashlar hayot darajasini pasayishiga, revalvatsiya esa arzon xorijiy tovarlar raqobatini ko'tara olmayotgan tarmoqlardagi ishsizlikning ko'payishiga ko'maklashadi. Devalvatsiya mamlakatlar o'rtasida raqobatchilik

kurashini kuchaytirib yuboradi. G'arbiy Yevropa davlatlarining dollarning ikki devalvatsiyasidan yo'qotishlari taxminan 10 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Rivojlanib borayotgan davlatlar esa yetakchi valyutalar devalvatsiyalaridan zarar ko'radilar.

Valyuta siyosatida ikki qarama-qarshi bo'lgan tendensiya o'zaro chambarchas bog'lanib ketadi: harakatlarning muvofiqlashtirilishi, valyuta muammolarini hal etishning o'zaro yo'llarini topish, har bir alohida mamlakatni boshqalar evaziga imtiyozga ega bo'lishga intilish oqibatidagi kelishmovchiliklar. Buning munosabati bilan vaqti-vaqti bilan mamlakatlarning valyuta siyosatining turli shakllari yordamida iste'mol bozorlari, kapital qo'yilmalar jarayonlari, hom ashyo manbalari uchun valyuta janglari qo'zib turadi. Ushbu janglarda devalvatsiya va revalvatsiya, valyuta kurslari rejimining ko'p hilligi, valyuta tajovuzi, valyuta cheklovlari ishlatiladi.

Valyuta cheklovlari valyuta siyosatining shakllaridan biri sifatida muntazam ravishda ishlatiladi. Valyuta cheklovlari - bu, rezident va norezidentlarning valyuta hamda boshqa valyuta qimmatdorklari bilan operatsiyalarini qonunchilik yoki ma'muriy jihatdan taqiqlash, limitlash va cheklashdir. Valyuta cheklovlari rezident va norezidentlar valyuta operatsiyalarini tekshirish orqali valyuta qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydigan valyuta nazoratining tarkibiy qismidir. Valyuta cheklanishlari mavjudligida valyuta nazorati jarayonida litsenziya va ruxsatnomalarning bor-yo'qligi, rezidentlar tomonidan milliy valyuta bozorida xorijiy valyutalarning sotilishi bilan bog'liq talablarning bajarilishi, xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslanganligi, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisobni yuritish hamda hisobotning sifati tekshiriladi. Valyuta cheklovlari mavjudligida valyuta nazorati funksiyalari odatda Markaziy bankka yuklatiladi, ayrim davlatlarda esa buning uchun maxsus organlar tashkil etiladi (masalan, Fransiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng).

Valyuta siyosatining turli-tumanligi sifatidagi valyuta cheklovlari quyidagi maqsadlarni koʻzlaydi: 1) toʻlov balansini birhillashtirish; 2)valyuta kursini qoʻllab quvvatlash; 3)joriy strategik vazifalarni bajarish uchun valyuta qimmatdorklarining davlat qoʻlida toʻplanuvi. Valyuta cheklanishlari oʻzining kamsitish harakteri bilan ajralib turadi, chunki valyuta qimmatdorklarini, mayda va oʻrta tadbirkorlar hisobiga, ularni xorijiy valyutalar olishi uchun qiyinchiliklar tugʻdirgan holda, davlat hamda yirik korxonalar foydasiga qayta taqsimlanishiga koʻmaklashadi. Shu sababli monopollashmagan sektor valyuta cheklanishlari kiritilishiga odatda qarshi chiqadi. Valyuta cheklanishlari odatda hamkor savdogarlarga nisbatan qoʻllaniladigan tazyiq va kamsitish siyosatining tarkibiy qismi boʻlib hisoblanadi. Ushbularni qoʻllanilishida siyosat sabab boʻladi.

Valyuta cheklovlari quyidagilarni nazarda tutadi:

1) Xalqaro pul toʻlovlari va kapital oʻtkazmalarini muvofiqlashtirish, eksport tushumi, foyda, oltin harakati, pul belgilari hamda qimmatdor qogʻozlar repatriatsiyasi;

2) xorijiy valyutaning erkin oldi-sotdisini taqiqlash;

3) xorijiy valyuta va boshqa valyuta qimmatdorliklarining davlat qoʻlida toʻplanuvi. Shu jumladan, toʻlov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar), nominali xorijiy valyutada koʻrsatilgan qimmatdor qogʻozlar, qimmatbaho metallarning toʻplanuvi.

## Qisqacha xulosa

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish toʻgʻrisida hilma-hil nazariyalar mavjud boʻlib, ular mazmuniga koʻra bir-biridan farq qiluvchi turli oqimlarga birlashib ketgan. Ana shu oqimlar majmuida monetarizm va keynschilik oqimini, shubhasiz, bu sohadagi eng yirik va eng yetakchi gʻoyaviy yoʻnalishlar sifatida ajratib koʻrsatish mumkin.

Pul massasining o'sishini cheklash borasidagi muhim masalalardan biri - qaysi pul agregatini nazorat ob'ekti sifatida tanlash hisoblanadi.

Majburiy zahira - bu banklarning resurslarining bir qismi va u hukumatning Markaziy bankda foizsiz hisobraqamga qo'yilishi talabidir.

Ochiq bozor operatsiyalari - Markaziy bankning tijorat va xazina veksellarini, davlat obligatsiyalarini va boshqa qimmatdor qog'ozlarni, shu jumladan, qimmatdor qog'ozlar bilan qisqa muddatli operatsiyalarni o'tkazishi tushuniladi.

Valyuta tajovuzi - milliy valyuta kursiga ta'sir o'tkazish maqsadida xorijiy valyutalarni oldi-sotdisini o'tkazishdir.

Majburiy investitsiyalash me'yori banklar va investision institutlar uchun davlatning qimmatdor qog'ozlarini joylashtirish.

## Nazorat uchun savollar

1. Pulning paydo bo'lish sabablari nima va uning dastlabki ko'rinishlari qanday?
2. Yevropada birinchi emission banklar qachon paydo bo'lgan?
3. Pulning bimetal tizimi haqida nimalarni bilasiz ?
4. Klassik oltin monometallizmi nima?
5. Markaziy banklarning asosiy faoliyati nimalardan iborat?
6. Pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlarni nimalarda ko'rasiz?
7. Pul-kredit siyosati qoidalari deganda nimani tushunasiz?
8. Pul-kredit siyosatining transmissiya usuli nima?

## Tayanch so'z va birikmalar

Pul-kredit usullari; tradision; pul-kredit vositalari; taktik, strategik vazifalar; institutsional; inflyatsiya; monetar siyosat; monetar vosita; qimmatdor qog'ozlar; foiz; yuqori likvidlilik.

# V BOB. NAQD PUL MUOMALASI VA UNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

## 5.1. Mamlakatda kassa operatsiyalarini olib borish tartibi.

Mamlakatda naqd pul aylanmasini tashkil etish "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonunga asoslangan holda ishlab chiqilgan "Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari" (1998 yil 17 dekabr № 565) asosida amalga oshiriladi.

Ushbu yo'riqnomaga asosan quyidagi qoidalar asosida naqd pul aylanmasi tashkil qilinadi. Bular:

1. Barcha yuridik shaxslar mulkchilik shaklidan qatiy nazar, o'zlarining pul mablag'larini bank muassasalarida saqlashlari shart.

2. Yuridik shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar bank muassasalari orqali, qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlardan tashqari naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Z.Tashkilotlar tomonidan bank muassasalaridan olingan naqd pullar qanday maqsadlar uchun olingan bo'lsa, faqat shu maqsadlar uchun sarflanadi.

4.Tashkilot o'z kassasida naqd pullarni ular qoldig'ini belgilangan limiti doirasida saqlashi va ulardan tushum hisobidan belgilangan me'yorlar chegarasida sarflanishi mumkin.

5. Mulkchilik shaklidan qatiy nazar savdo va maishiy hizmat ko'rsatish sohasidagi tashkilotlarning naqd pul tushumidan ish haqi, pensiya va nafaqalar to'lash uchun foydalanish man etiladi.

6. Naqd pul tushumi hisobidan mablag' sarf qilish huquqi faqatgina Vazirlar Maxkamasining qarorida ko'rsatilgan tashkilotlarga beriladi.

7.Tashkilotlar kassasidagi naqd pul qoldig'ining belgilangan limitdan ortiqcha qismining hammasini bankka belgilangan tartibda va muddatda topshiradilar.

8. Tashkilotlar o'z kassalarida limitdan ortiqcha faqat mehnatga haq to'lash, mukofot, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar, stipendiya, pensiya berish uchun bankdan olingan kunni qo'shib hisoblaganda 3 kun (bankdan uzoqda joylashgan xo'jaliklar esa 5 kun) ushlab turishlariga ruxsat etiladi.

9.Hizmat safari bilan bog'liq xarajatlar uchun naqd pullar hizmat safariga yuborilayotgan shaxslarga mazkur hududda amal qilayotgan tartib bo'yicha tegishli miqdorda, keyin hisob berish sharti bilan beriladi. Pulning sarflanmagan qismi berilgan muddat tugagandan keyin 3-kun ichida tashkilot kassasiga qaytarilishi kerak.

10. Naqd pul qabul qilish va topshirish bo'yicha kassa operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tasdiqlangan birlamchi hisob hujjat shakllari bilan rasmiylashtiriladi.

Har bir bank muassasasi mulkchilik shaklidan qatiy nazar mijozlarga kassa hizmati ko'rsatish uchun o'z tarkibiy bo'linma kassa operatsiyalari bo'limi (kassalarga ega) bo'lishi kerak. Bank muassasasi mijozlarga kassa hizmati ko'rsatish uchun Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasiga pul aylanmasining to'ldirilgan pasporti va tegishli hujjatlarni (534-yo'riqnoma 14-ilova) o'rnatilgan tartibda taqdim etadi. O'z navbatida, MBXBB yuqoridagi hujjatlarni ko'rib chiqib, o'z xulosasini tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki emissiya - kassa operatsiyalari departamentiga yuboradi. Shu tartibda bankda kassa operatsiyalarini yuritish buyicha ruhsatnoma (litsenziya) olinadi. Bunda asosiy e'tibor kassa xonalarini jixozlashga qaratiladi.

IIV va INVYoKBB qoidalariga ham rioya qilinishi kerak. Yirik banklarda kassa operatsiyalarini amalga oshirish 15 kishidan ortiq

bo'lganda bo'limni alohida operatsiyalar bajarishdan ozod etilgan boshliq boshqarishi mumkin.

Kassa operatsiyalari bo'limlarining boshliqlari egallab turgan lavozimlariga Markaziy bank va tijorat banklarining viloyat boshqarmalarida tayinlanadilar, tasdiqlanadilar va undan ozod etiladilar. Bo'lim boshlig'i yoki kassa mudiri lavozimiga bank tizimida kamida 3 yil ishlagan shaxslar tayinlanadi.

Bank muassasalarining rahbarlari kassalar va pul omborlarida boyliklar bilan ishlashning belgilangan qoidalarini ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarni ta'minlashlari lozim. Banklardagi kassa tarmoqlari "Kassa tarmoqlarini loyihalashtirish va o'rnatishning texnikaviy talablariga muvofiq holda jihozlanadi, uni boshqa xizmatlardan ajratib qo'yish va qoidaga ko'ra, binoning birinchi qavatida joylashtirilishi lozim.

Begona shaxslarning pul omborlari joylashuvini kuzatishlari va o'rganishlari uchun hech qanday imkoniyat bo'lmasligi kerak. Kassa binosining eshiklari kun bo'yi ichkaridan berkitilgan bo'lishi lozim. Eshiklarga tashqarini ko'rish uchun kichkina maxsus oynacha o'rnatilgan bo'lishi kerak. Kassa tarmog'ining barcha derazalari kechki payt pardalar bilan to'silgan bo'lishi shart.

Operatsiya kassasi har bir kassirning ish joyi kabina o'rnatish orqali ajratib quyilishi lozim. Bunday holda boyliklar saqlanishi ustidan mas'ul bo'lgan shaxslarga kassirlar ishini kuzatib turish imkoniyati tug'iladi.

Kassirlar stolida qulflanadigan tortmalar bo'lishi kerak, uning kod nomerini faqat kassirlar bilishi kerak. Kassirlar kun davomida boyliklarni saqlash uchun seyflar, metall shkaflar, boyliklarni tashish uchun aravachalar bilan ta'minlanishi lozim. Mijozlarga hizmat ko'rsatiladigan darchalarga ichkari tomondan qulflanadigan eshikchalar o'rnatilishi lozim.

## 5.2. Bank kassalariga naqd pul qabul qilishni tashkil etish.

Kassa kirim operatsiyalarini amalga oshirish banklar tomonidan tegishli yo'riqnomaga asosan amalga oshiriladi. Naqd pulni operatsiya kuni mobaynida qabul kilish uchun bank muassasalarida kassa kirimlari tashkil etiladi. Korxona va tashkilotlardan tushadigan naqd pul tushumini, turli naqd pul ko'rinishidagi badallari, fuqarolarning naqd pul omonatlari, ish haqiga olingan pul mablag'larining tarqatilmay qolgan qismi kabi to'lovlarni naqd pul ko'rinishida bank kassa xodimi tomonidan qabul kilinishiga kassasining kirim operatsiyalari deyiladi. Bank tomonidan naqd pul quyidagi hujjatlar asosida qabul qilinadi:

a) korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholidan 0402001 shakldagi badalnomalar bo'yicha kvitansiyalar berish bilan, fuqarolar omonatga pul quyganlarida omonat daftarchasiga shu to'g'rida yozib quyiladi, daftarcha ko'rsatilmagan taqdirda pul qo'yuvchiga 0402004 shakldagi kvitansiya beriladi;

b) transport korxonalari va tashkilotlaridan 0402003 shakldagi naqd pul badalnomalari bo'yicha 0402003 shakldagi kvitansiya berish bilan;

v) xayriya fondlariga o'tkaziluvchi naqd pulli badallar 0402001 shakldagi badalnomalar bo'yicha 0402004 shakldagi kvitansiyalar berish sharti bilan 0402001 shakldagi badalnomalar mas'ul ijrochining imzosidan tashqari nazoratchining imzosi bo'lishi kerak. Mazkur operatsiyalar buxgalteriya xodimlari tomonidan alohida daftarga qayd etilishi lozim;

g) boshqa barcha tushumlar 0482005 shakldagi kirim kassa orderlar bo'yicha 0402004 shaklidagi kvitansiyalar berish orqali qabul qilinadi.

Endi kirim kassa operatsiyalarini bajarish tartibi xakida batafsil tanishib chiqamiz. Kirim kassa operatsiyalarini bajarishdagi asosiy

hujjat bu badalnoma, ya'ni pul topshirganlik haqidagi e'londir. Pul topshirishdan avval mijoz tomonidan ushbu badalnoma rasmiylashtiriladi. Badalnomaning o'zi 3 qismdan iborat:

1. Badalnomaning o'zi.
2. Order.
3. Kvitansiya.

Hujjatning uchchala qismida ham bir xil ko'rsatkichlar tuldirilishi shart. Ya'ni hujjat rasmiylashtirilgan sana, mijoz korxonasi nomi, uning hisob-kitob, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlar hisobvarag'i nomeri, operatsiya mazmuni, ya'ni nima maqsadda pul topshirilayotganligi, pul topshirayotgan shaxsning familiyasi, ismi, pul summasi to'lik ko'rsatilishi va imzo qo'yilishi kerak.

Badalnomaning raqamini esa uni qabul qilayotgan mas'ul bank xodimi bankka kelib tushayotgan badalnomalarni qayd etish tartibida belgilaydi. Badalnomani qabul qilish bankda asosan nazoratchiga yuklatiladi. Ba'zi banklarda, ularning ichki tartibidan kelib chiqqan holda bu vazifa shu korxonaga hizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochi tomonidan yoki bosh buxgalter yordamchisi tomonidan bajariladi.

## 5.3. Bank kassalaridan naqd pul berishning shartlari va tartibi

Kassadan naqd pulni berish tartibi banklar tomonidan tegishli yo'riqnomaga asosan amalga oshiriladi. Tijorat banklarining kassa chiqim operatsiyalari deganda bank kassalaridan naqd pulning berilishi bilan bog'liq operatsiyalar tushuniladi. Korxona va tashkilotlarning o'z ishchi xodimlari uchun ish haqi, pensiya, stipendiya, boshqa nafaqalar, mukofotlar, xizmat safari xarajatlari uchun pul olishi mumkin.

Korxona va tashkilotlar bankdan yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga naqd pul olish uchun pul cheki rasmiylashtirishlari lozim. Lekin bundan avval korxonaga yangi hisobvaraq ochilayotgan paytda bankka pul chek daftarchasi olish uchun ariza topshirishlari lozim. Arizada bank nomi va kodi, korxona nomi, uning talab qilib olinadigan depozit bo'yicha hisobvaraq nomeri, chek daftarchasiing nomi, soni, ariza rasmiylashtirilgan sana ko'rsatiladi. Arizaga korxona rahbari va buxgalterining imzosi hamda muxr ko'yiladi. Bank korxonaning arizasiga asosan pul chek daftarchasi yozib, har bir varaqda bank nomi, uning kodi, korxona nomi, uning bankdagi hisobvaraq nomerini ko'rsatadi va mijozga beradi. Chek daftarchasining cheklari bankdan naqd pul olish uchun asos bo'ladi. Ish haqi olishdan bir kun avval chek rasmiylashtirilib, mijoz tomonidan pasporti bilan birgalikda ularga hizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochiga beriladi. Mas'ul ijrochi, eng avvalo, shu tashkilotning hisob raqamida yetarli pul miqdori borligini tekshirib, shundan so'nggina chekning to'liq va to'g'ri to'ldirilganligini, ikkita imzo va muxrning imzolar qamda muhr namunasi tushirilgan kartochkalar bilan solishtirib ko'radi. Hammasi to'g'ri bo'lsa, chekning burchagidagi nazorat markasini qirqib olib pasport bilan birga mijozga qaytarib beradi. Nazoratchi yana bir bor tekshiruv o'tkazib, so'ng rekvizitlarni kassaning chiqim jurnaliga qayd qiladi. Chiqim jurnalida sana, hisob raqam nomeri, chek summasi, hisobot simvoli, korrespondensiya hisobvarag'i nomeri ko'rsatiladi.

Nazoratchi chiqim jurnali bilan birgalikda cheklarni ichki tartibda kassaga topshiradi. Kassir mijozni chaqirib uning pasporti va nazorat markasini oladi. Nazorat markasi nomeri chek nomeri bilan to'g'ri kelsa, chekdagi pasport ko'rsatkichlari bilan to'g'ri kelsa, kassir chekda ko'rsatilgan mablag'ni mijozga sanab beradi.

Har bir tijorat bankida korxona va tashkilotlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bir qancha kassalar tashkil etiladi, ya'ni bank muassasasi o'z tarkibida tarkibiy bo'linma - kassa operatsiyalari bo'limiga ega. Kassa operatsiyalari bo'limida bajariladigan kirim va chiqim kassa operatsiyalari, ularning hisobga olinishi va rasmiylashtirilishi "O'zbekiston Respublikasida emissiya - kassa ishi, pul tushumini inkassatsiya qilish, yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidilari"ga va boshqa yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Pul yoki boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun kassa operatsiyalari bo'limi tarkibida kirim kassasi, chiqim kassasi, kirim- chiqim kassasi, maydalab berish kassasi, kechki kassalar tashkil etiladi. Banklarda kassaning kirim va chiqim operatsiyalarini tashkil qilish uchun bir qancha hisobvaraqlar rejasi ochilgan.

### 5.4.Kassa qoldig'i limiti va tushumdan naqd pul ishlatishning me'yorini o'rnatish tartibi

Banklar naqd pul aylanmasini tashkil etadilar, tashkilotlarga tushgan pul tushumini topshirish tartibi va muddatlarini, tushumdan pul sarflash me'yorlarini hamda ularning kassalardagi qoldiq pullar limitini belgilab beradilar.

Yuqorida qayd etilgani kabi tashkilot o'z kassasida naqd pullarni ular koldig'ining belgilangan limiti doirasida saqlashi va ulardan tushum hisobidan belgilangan me'yorlar chegarasida sarflashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarni inobatga olgan holda, kassalardagi naqd pul qoldig'i limitlari va tushum hisobidan foydalanish me'yorlari banklar tomonidan ushbu tashkilotlar rahbariyati bilan kelishuvga muvofiq belgilanadi.

Korxona va tashkilotlar banklardan naqd pul olishlari va naqd pul topshirish tartiblarini yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga asosan olib boradilar. Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasi banklarida pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to'g'risida" gi yo'riqnoma bo'yicha amalga oshiradilar.

"Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari"ga muvofiq tashkilotlar o'z kassalarida naqd pul qoldiqlari bo'yicha belgilangan limitlar doirasida naqd pulga ega bo'lishlari va tushgan pullardan har yili banklar mazkur tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida belgilaydigan me'yorlar doirasida foydalanishlari mumkin. Tashkilotlar kassadagi belgilangan naqd pul qoldig'ining limitdan ortiqcha qismini banklar bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlariga kiritib qo'yish uchun banklarga topshirishlari shart.

Kassadagi naqd pul qoldig'i limitlarini, tushumdan pul sarflash me'yorlarini, tushumini bankka topshirish tartibi va muddatlarini belgilash uchun banklar yilning birinchi choragida savdo tashkilotlaridan va boshqa tashkilotlardan yo'riqnomada ko'rsatilgan shakllar bo'yicha ikki nusxada buyurtma hisob-kitoqbini oladilar. Mustaqil balansga egaligi va ega emasligidan qatiy nazar, doimiy naqd pul tushumiga ega bo'lgan har bir tashkilot uchun kassada qoladigan naqd pullar limiti tushumdan pul sarflash me'yori har yili belgilanadi, zarur hollarda esa yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Kassa aylanmalari uncha katta bo'lmagan savdo tashkilotlari uchun kassada qoladigan naqd pullar limiti tashkilot rahbarlarining roziligi bilan, bank tomonidan 2 yilga tasdiqlanishi mumkin. Boshqa tumanlarda joylashgan savdo tashkilotlariga kassa qoldig'i limitlari hamda tushumdan pul sarflash me'yorlari savdo

tashkilotining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i qaysi bankda bo'lsa, o'sha bank tomonidan belgilanadi. Ushbu o'rnatilgan limit va me'yorlar savdo tashkilotlari joylashgan joy-dagi bank bo'limlariga ma'lum qilinadi.

Bank bo'limlari naqd pul qoldiqlarining belgilangan limitlarini, tushumdan pul sarflash me'yorlarini va tushumqni topshirish muddatlarini yozma ravishda har bir korxona, tashkilot va muassasaga ma'lum qiladi. Kassadagi naqd pul qoldig'i limiti kassaga ega bo'lgan va naqd puli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi barcha yuridik shaxslarga o'rnatiladi.

Kassadagi naqd pul qoldig'ining quyidagi me'yorlari o'rnatiladi:

Doimiy naqd pul tushumiga ega bo'lgan va uni har kuni ish kuni oxirida bankka topshirishi lozim bo'lgan tashkilot uchun keyingi ish kuni ertasiga normal ish faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda;

keyingi ish kunida topshirishi lozim bo'lgan korxona va tashkilotlar uchun o'rtacha kunlik naqd pul tushumidan ortiq bo'lmagan miqdorda.

tushumni har kuni topshirmaslik huquqiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarga jami tushum va uni topshirish bo'yicha o'rnatilgan muddatga bog'liq bo'lgan miqdorda.

Doimiy naqd pul tushumiga ega bo'lmagan tashkilotlar uchun o'rtacha kunlik naqd pul xarajati miqdorida (mehnat haqi to'lovlari, vaqtinchalik ishga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa, mukofot va stipendiya xarajatlaridan tashqari).

Tashkilotlar o'z kassalarida naqd pulni belgilangan limitlardan ortiqcha miqdorda faqat mehnatga haq to'lash, ijtimoiy sug'urta bo'yicha pensiya, nafaqa va stipendiyalar berish uchun bankdan olgan kunini qo'shib hisoblagan holda 3 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddat mobaynida (banklardan uzoq masofada joylashgan tashki-

lotlar esa, 5 ish kunigacha) saqlash huquqiga ega. Bu muddat tugagach, ko'zlangan maqsadga ishlatilmagan pullar bankga qaytariladi va keyinchalik tashkilotlarga ularning birinchi talabi bilanoq o'sha maqsadlarga ishlatish uchun beriladi. Tayyorlov tashkilotlarining kassa limitiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini topshiruvchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun bankdan olingan naqd pul kiritilmaydi. Shuningdek, tashkilotlarga o'z kassalaridan kutilayotgan xarajatlar uchun o'matilgan limitdan ortiq naqd pul sarflashga ruxsat etilmaganligi hisobga olinadi.

Tushum hisobidan pul sarflashning quyidagi me'yorlari o'rnatiladi;

Mulkchilik shaklidan qatiy nazar, barcha umumiy ovqatlanish korxonalariga aholidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish uchun naqd pul tushumlarini ishlatishning cheklangan me'yori ehtiyojdan kelib chiqqan holda, oylik tovar aylanmasiga nisbatan foizlarda, lekin 20 foizdan oshmagan miqdorda o'rnatiladi. Mulkchilik shaklidan qatiy nazar barcha komission savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi savdo tashkilotlari tushgan savdo tushumining o'rnatilgan kassa limitidan ortiq qismini to'laligicha bank kassasiga topshirishlari, komitentlar bilan hisob-kitob qilishni tushumdan xarajat qilish orqali amalga oшirishlari belgilanadi, bunda yetmagan qismiga bank kassasidan naqd pul olinadi.

Umumiy ovqaglanish korxonalariga aholidan qishloq; xo'jalik mahsulotlarini harid qilish uchun tushum hisobidan pul sarflash me'yorlari belgilab qo'yiladi, bunda tushumning bir qismidan xarajat qilishning eng ko'p me'yori bank muassasalari tomonidan oylik tovar aylanmasiga nisbatan foizlar hisobida quyidagicha belgilanadi: markazlashtirilgan fondlar hisobidan go'sht oluvchi korxonalar uchun-ehtiyojiga qarab, ammo 7 foizdan oshmagan miqdorda, boshqa umumiy ovqatlanish korxonalari uchun - 10 foiz miqdorida; mulkchilik shakli-

dan qatiy nazar barcha savdo tashkilotlariga sotilgan komission tovar uchun naqd pul berishga tovar qiymatidan savdo ustama haqi chegirib tashlangan miqdorda; xududiy savdo - ishlab chikarish aksiyadorlik kompaniyalari tashkilotlari, Toshkent shahar xoqimiyati qoshidagi savdo, xizmat sohasi va xalk iste'moli mollarini ishlab chiqarnsh Departamenti va "Matlubotsavdo"ning hududiy aksiyadorlik kompaniyalari topshirilgan shisha idishlar uchun savqdo tushumidan oylik tovar aylanmasiga nisbatan 5 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda.

Savdo tashkilotlari va doimiy pul tushumiga ega bo'lgan barcha korxonalarga boshqa ehtiyojlar uchun tushum hisobidan pul sarflash me'yorlari belgilanmaydi.

Tashkilotlarga tushumlar hisobidan naqd pul sarflash me'yorlari haqiqiy ehtiyojlar doirasida, ammo hisob-kitob buyurtmasida o'rnatilgan chegara me'yorlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Tashkilotlar pul tushumlarini quyidagilarga topshiradilar;

-bankning kunduzgi va kechki kassalariga;

-keyinchalik bankka topshirish uchun inkassatorlarga;

-keyinchalik bank kassalariga topshirish uchun tashkilotlar xuzuridagi birlashgan kassalarga.

Bank bo'limlari doimiy pul tushumiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar hisobini maxsus daftarda olib boradilar. Unda doimiy pul tushumiga ega bo'lgan savdo va boshqa korxonalar, jumladan, mustaqil balansga ega bo'lmaganlari ham qayd etib boriladi. Sotuvchilari savdo korxonalari tarkibiga kirib, ular oldida moddiy javobgar bo'lgan hamda tushumni ularning kassalariga topshiradigan palatkalar, kioskalar, pavilonlar, bufetlar va sh.k. qayd etilmaydi.

Korxonalar va tashkilotlar pul tushumini o'z vaqtida topshirishlarini bank bo'limlarining iqtisodchilari nazorat qiladilar. Ana shu

nazoratni amalga oshirish uchun pul muomalasi bo'yicha iqtisodchilar daftar asosida tushumni bankning kunduzgi, kechki kassalariga hamda pochta orqali topshiradigan korxonalar va tashkilotlar bo'yicha ro'yxatlar - nazorat qaydnomalari tuzadilar va ularni mijozlarning hisob varaqlari yuritiladigan joydagi bank buxgalterlariga hamda kechki kassalarning nazoratchilarga topshiradilar. Bu buxgalter va nazoratchilar korxonalar va tashkilotlar bo'yicha tuzilgan a_na shu nazorat qaydnomalariga tushum topshirilganligi haqida belgi qo'yadilar.

Keyingi yillarda korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan naqd pul tushumlarini o'z vaqtida va to'liq topshirilishi soliq organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tushumni bank inkassatorlari orqali topshiradigan korxonalar va tashkilotlar doirasi bo'yicha inkassatsiya bo'limi (guruhi) boshlig'i har kuni pul muomalasi bo'yicha iqtisodchiga oldingi kungi tushumni topshirmagan korxonalar va tashkilotlar haqida sabablari ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi. Markazlashtirilgan inkassatsiya sharoitlarida ushbu ma'lumotlarni inkassatsiya bo'limlari bankning tegishli bo'limlari iqtisodchilariga taqdim etadilar.

Bank bo'limlarining iqtisodchilari har kuni inkassatsiya bo'limi tuzgan nazorat qaydnomalarini va ma'lumotlarini ko'rib borishlari hamda oldingi kun topshirilmay qolgan tushumning hammasi kunduzgi kassaga. albatta, topshirilishi, shuningdek, bundan keyin topshirmaslik hollari yuz bermasligi uchun choralar ko'rishlari kerak. Bank iqtisodchilari ushbu qaydnomalar va ma'lumotlarda ko'rilgan chora-tadbirlarni yozib qo'yadilar.

Bank muassasalari korxonalar va tashkilotlar tushumlarini topshirishni kechiktirganliklari yoki topshirmaganliklari to'g'risida ularning rahbarlarini javobgarlikka tortish uchun hoqimliklarga axborot berib turadilar.

Pul tushumlarini birlashgan kassalar orqali topshiradigan korxona va tashkilotlar bo'yicha bank bo'limining iqtisodchilari vaqti-vaqti bilan birlashgan kassaga tushumlarni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qaydnomasidagi kassa xodimining belgisi asosida tekshirib boradi.

Bank bo'limlari mulkchilik shaklidan qatiy nazar, o'zlarida hisobvaraqlariga ega bo'lgan ayrim savdo tashkilotlari bo'yicha savdodan tushgan pulni inkassatsiya qilishning ahvolini oy sayin va yilning har choragida tahlil qilib boradilar.

Ayrim savdo tashkilotlari bo'yicha savdodan tushgan pulni inkassatsiya qilishning ahvolini tahlil etish uchun hisob-kitob o'tkazilib, unda tashkilot chakana tovar aylanmasining haqiqiy xajmi ushbu tashkilotning hisobvaragiga kelib tushgan pul (shu bank bulimlari kassalari orqali, shu jumladan, hisob-kitob cheklarining tushishi va tovarlar uchun omonatchilarning hisobvarakdaridan o'tkazilgan pullar, boshqa bank bo'limlari kassalariga, pochta orqali o'tkazilgan pullar) miqdori bilan solishtiriladi. Avvalo, haqiqiy tushum miqdoriga bankning hisobot ma'lumotlari bo'yicha savdoning tushumi miqdorida tuzatish kiritiladi. Bu ish oldingi chorakdan (oydan) o'tgan mablag'ni chiqarib tashlash va keyingi chorakka (oyga) o'tgan tushumni qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi. Chorak davomida savdo tushumining inkassatsiyasini tahlil qilish uchun savdo tashkilotlari kassasining aylanmasi va aholiga kreditga tovarlar sotish haqidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Mazkur hisob-kitob natijasida tovar aylanmasining inkassatsiya qilinmaydigan qismi chiqariladi hamda uning miqdori qanchalik asoslanganligi, xususan, savdo korxonalari tushgan puldan sarflash huquqidan qanchalik to'g'ri foydalanayotganliklari, mayda ulgurji aylanmasi va tovarlarni kreditga sotish hajmlarini o'zgartirishning sabablari va qonuniyligi ko'rib chiqiladi; pullarning asossiz muqobil aylanmalarini to'xtatish, kassada pul sarflash me'yorlariga.

tovarning mayda ulgurji savdo qoidalariga va tovarlarni kreditga sotish tartibiga rioya etish choralari ko'riladi.

Butun tuman bo'yicha savdo tushumini inkassatsiya qilishning ahvolini tahlil etish uchun bank bo'limlari tovar aylanmasi hamda savdo tushumining barcha manbalar orqali kelishi haqidagi haqiqiy ma'lumotlarni, tushumning inkassatsiya qilish foizini xomcho't qilingan ma'lumotlar bilan taqqoslaydilar.

Bank bo'limlari tahlil natijalari bo'yicha tegishli savdo korxonalari va tashkilotlari raxbariyati oldiga talablar ko'yadilar, zarur hollarda yuqori tashkilotlarning muhokamasiga naqd pullarning asossiz muqobil aylanmalariga barham berish xususida va hal qilinishi natijasida bankka savdo tushumi xomcho't qilingan xajmda kelib turishini ta'minlaydigan boshqa masalalar yuzasidan takliflar kiritadilar.

Savdo qoidalari va pul topshirish tartiblari qo'pol ravishda buzilganda, ushbu holat yuzasidan soliq idoralariga va zarur hollarda huquqni muxofaza qilish organlariga habar beriladi.

Markaziy bankning Bosh boshqarmalari savdo tushumi inkassatsiyasining hisob-kitoblarini butun respublika, viloyat, shahar bo'yicha har oyda va yil choraklari bo'yicha amalga oshiradilar.

Haqiqatda kirim qilingan tushum bilan haqiqatda vujudga kelgan chakana tovar aylanmasi xajmiga muvofiq tushishi kerak bo'lgan tushum o'rtasida farq yuzaga kelgan taqdirda, bunday farqning vujudga kelish sabablari aniqlanadi va bank kassalariga pul tushumini ko'paytirish choralari ko'riladi.

Boshqarma bo'yicha yil choragidagi savdo tushumining inkassatsiyasi tahlil qilinganda, quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi: savdo tashkilotlarining kassa aylanmasi to'g'risidagi hisoboti, puli oldindan to'langan obuna bo'yicha tarqatiladigan vaqtli matbaa nashrlarining qiymati to'g'risidagi hisobot, keyinchalik tarqatiladigan vaqtli matbaa nashrlari uchun tushgan obuna haqi haqidagi ma'lumotlar.

Barcha xo'jalik sub'ektlariga naqd pullar, ularning mulkchilik shaklidan qatiy nazar, qonuniy tartibda o'rnatilgan, shuningdek, faqat mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, pensiya, nafaqa, stipendiya, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun beriladi.

Banklar ulardan naqd pul tushumi manbalari va pul sarflashning maqsadga muvofiqligi haqida ma'lumotlar olish huquqiga ega.

Barcha tashkilotlarga kassa xizmatini Markaziy bankning maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) ga ega bo'lgan tijorat banklari muassasalari ko'rsatadi.

## Qisqacha xulosa

Mamlakatda naqd pul aylanmasini tashkil etish "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonunga asoslangan holda ishlab chiqilgan "Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari" (1998 yil 17 dekabr № 565) asosida amalga oshiriladi.

Ushbu yo'riqnomaga asosan quyidagi qoidalar asosida naqd pul aylanmasi tashkil qilinadi.

Har bir bank muassasasi mulkchilik shaklidan qatiy nazar mijozlarga kassa hizmati ko'rsatish uchun o'z tarkibiy bo'linma kassa operatsiyalari bo'limi (kassalarga ega) bo'lishi kerak. Bank muassasasi mijozlarga kassa hizmati ko'rsatish uchun Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasiga pul aylanmasining to'ldirilgan pasporti va tegishli hujjatlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etadi.

Banklar naqd pul aylanmasini tashkil etadilar, tashkilotlarga tushgan pul tushumini topshirish tartibi va muddatlarini, tushumdan pul sarflash me'yorlarini hamda ularning kassalardagi qoldiq pullar limitini belgilab beradilar.

## Nazorat uchun savollar

1. Pul muomalasi deganda nimani tushunasiz?

2. Kassa operatsiyalari va ularni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?

3. Naqd pul aylanmasini tashkil etishning qanday qoidalari mavjud?

4. Kirim kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini aytib bering?

5. Chiqim kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini aytib bering?

6. Operatsion kassa operatsiyalarini bajarish tartibini aytib bering?

7. Kechki kassa operatsiyalarini bajarish tartibini aytib bering?

8. Bank kassasidagi naqd pul qoldig'ining me'yori qanday o'rnatiladi?

## Tayanch so'z va birikmalar

Kassa operatsiyalari; naqd pul aylanmasi; yo'riqnoma; qoidalar; hisob-kitoblar; naqd pul tushumi; limit; pul omborlari; kechki kassa; badalnoma; order; kvitansiya; chek daftarchasi; kassa qoldig'i limiti; naqd pul qoldig'ining me'yori.

# VI BOB. PUL MUOMALASINI BASHORATLASH

## 6.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pul oborotini bashoratlashda kelib chiqadigan o'zgarishlar

Pul muomalasi pulning doimo aylanishda bo'lishi, o'z vazifalarini uzluksiz bajarib turishi orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni naqd pul va naqd pulsiz o'z vazifalarini bajarishidagi harakati pul muomalasini keltirib chiqaradi.

Har bir davlatda pul muomalasi ma'lum qonun va qoidalar asosida tartibga solib turiladi. Rejali boshqaruvga asoslangan iqtisodiy tizimda pul muomalasi rejalashtirish asosida boshqarib kelingan. Jumladan, aholining daromadi va xarajatlari davlat tomonidan muvofiqlashtirilib turilgan. Ya'ni tovar ishlab chiqarishni kengaytirish, aholiga kreditga tovarlar berish, baholar tizimini o'zgartirib turish va xokazolar orqali.

Barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqarilgani uchun pul muomalasi qonuni buzilganda davlat o'z valyuta doirasida narxlarni o'zlashtirish, pul islohoti bilan pul muomalasini tartibga solib kelgan. 1991 yilgacha sobiq Ittifoq hududida pul muomalasini tashkil etish va rejalashtirish aholi daromad va xarajatlari balansi hamda kassa va kredit rejalari asosida amalga oshirib kelingan.

Butun mamlakat va respublikalar miqyosida balans ikki bo'lim bo'yicha keng jarayonlarni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqarilgan. Balansda aholi daromadi va xarajatlarining taqsimoti ijtimoiy guruxlar: ishchi va hizmatchilar, kolxozchilar bo'yicha ko'rsatilgan.

Balansning A qismida aholining davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlaridan oladigan daromadlari hamda shu daromadlar ishlatilishining asosiy yunaltirishlari aks ettirilgan. B qismida esa aholi guruhlari orasida tovarlar sotish va hizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan pulli daromad va xarajatlar hisobga olingan.

Aholining daromadlari va xarajatlari balansini tuzishdan asosiy maqsad aholining bo'lishi mumkin bo'lgan pulli daromad va xarajatlarini iqtisodiy asoslangan bashorat qilishdan iborat. Balansning naqd pul aylanishini tashkil topishidagi ahamiyati shu bilan belgilangan.

Mamlakatdagi naqd pullarning muomalasi ko'lami asosan aholi pul daromadlarini tarkib toptirish jarayoni va ularning keyinchalik muayyan maqsadga yo'naltirishi bilan chegaralangan. Balansda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar aks ettirilgan. Balansda asosan aholi tomonidan tovarlarni harid qilish uchun mo'ljallangan aholining harid fondi aniqlanadi.

Aholi daromadlar va xarajatlar balansida daromadlarning xarajatlardan ko'proq bo'lishi aholining qo'lida naqd pul ko'payganligini, xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi esa aksincha, aholi qo'lidagi naqd pul qoldig'ining kamayishini bildiradi.

Aholi daromad va xarajatlarini muvozanatlash xalq iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, aholiga pulli xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ifoda etadi.

1991 yildan boshlab, aholining daromadlari va xarajatlari balansini hisoblash quyidagicha qisqartirilgan shaklda tuzila boshlandi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, balans ikki qismdan iborat bo'lib, daromadlar va xarajatlarni o'zida ifoda etgan, bunda aholi daromadlarining asosiy qismini ish haqi, xarajatlarnikini esa tovarlarni harid qilish tashkil qiladi.

O'z navbatida, aholi daromadlarining xarajatlaridan oshishi aholi qo'lidagi pul qoldig'ining ortishini ko'rsatadi. Bu hol aholi daromad va xarajatlarini balanslashtirish bo'yicha qator talablar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni talab qiladi.

**1-jadval**

**Aholi daromadlari va xarajatlari balansi**

| № | Daromadlar | № | Xarajatlar |
|---|---|---|---|
| 11. | Ish haqi | 1. | Tovarlar uchun tulovlar |
| 22. | Ish haqi daromadlari shu jumladan, jamoa va shaxsiy tomorqa xo'jaliklaridan daromadlar | 2. | Xizmatlarga xaq to'lash |
| 33. | Pensiya, stipendiya va nafaqalar | 3. | Majburiy to'lovlar va ixtiyoriy badallar |
| 44. | Moliya-kredit tizimlaridan tushumlar | 4. | Qo'yilmalarga o'tkaziladigan to'lovlar |
| 55. | Dividendlardan daromadlar | 5. | Aksiya obligatsiyalarni harid qilish va kechiktirilgan to'lovlarni qoplash |
| 66. | Boshqa daromadlar | 6. | Boshqa xarajatlar |
| | **Jami** | | **Jami** |

Mamlakatimizda 1993 yilda aholi daromad va xarajatlar balansida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan, yani daromad va xarajatlar orasidagi farq yanada chuqurlashgan. 1993 yilda ish haqi minimal miqdorining uch oyliklararo qayta qurilishi va barcha turdagi hamda boshqa ijtimoiy to'lovlar indeksatsiyalashtirilishi natijasida aholining pul daromadlari 1992 yilga nisbatan bir necha marta oshdi.

Barcha oshgan pul daromadlarining asosiy qismi ish haqiga, pensiya, stipendiya va nafaqalarga, moliya va kredit tizimidan tushumlarga va boshqa daromadlarga to'g'ri kelgan. Oilalarning pul xarajatlari asosan joriy iste'molga qaratilgan, masalan, birinchi yarim yillikda aholining tovarlar harid qilish va hizmatlarga xaq to'lashga barcha xarajatlarning yetmish foizga yaqini sarf qilingan.

1991 yildan boshlab mamlakatimizda kreditni rejalashtirish va kassa rejalarini tuzishdan kassa aylanishlarini tuzishga o'tildi.

Kassa aylanishlarini tuzishdan asosiy maqsad naqd pulga bo'lgan ehtiyojni butun respublika hududlari va bank muassasal-

ari bo'yicha aniqlash hamda pul muomalasini barqarorlashtirish tadbirlarini ishlab chiqishni amalga oshirishdan iborat. Kassa aylanishlari bashorati barcha naqd pullarning bank kassalariga kelib tushish manbalari va xajmini, korxonalar va tashkilotlar, muassasa va alohida shaxslarga beriladigan barcha naqd pullarning miqdori va ularning qanday maqsadga yunaltirilganligini hamda emissiya natijasi, yani pulni muomalaga chiqarish yoki muomaladan olish holatini o'zida aks ettiradi.

Markaziy banklar tomonidan milliy valyutani barqarorligini. narhlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishni taminlab turish maqsadida muomaladagi pul massasi miqdori tartibga solib turiladi. Pul massasi, o'z navbatida, bank tizimining majburiyati bo'lib, muomaladagi naqd pullar talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlari va xorijiy valyutadagi depozitlarni o'z ichiga oladi.

Bu jarayonda barcha tijorat banklarining kassa aylanishini bashoratlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatining asosiy vazifasi - tuziladigan hisob-kitoblarning imkon qadar haqqoniyligiga erishish va banklarga pulning kelib tushish salmog'i va tezligini oshirish, emissiya bilan bog'lik bo'lgan xarajatlar salmog'ini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

**2-jadval**

**Kassa aylanishlari bashoratining shartli tasviri**

| Kirim moddalari | Ramzlar |
|---|---|
| Yakka tartibdat tadbirkorlardan tushgan tushumlar | 01 |
| Iste'mol tovarlarini sotishdan tushgan savdo tushumlari | 02 |
| Avtotransport vositalarini sotishdan tushgan tushumlar | 03 |
| Umumiy ovqatlanish korxonalaridan tushgan tushumlar | 04 |
| Temir yul va havo transportidan tushgan tushumlar | 05 |
| Mahalliy transportdan tushgan tushumlar | 06 |
| Telefon xizmatlari uchun tushgan tushumlar | 07 |

| | |
|---|---|
| Uy-joy haqlari va kommunal xizmat tulovlaridan tushgan tushumlar | 08 |
| Tomoshagoh tashkilotlardan tushgan tushumlar | 09 |
| Lotereya biletlari va boshqa pul-buyum yutuqli o'yinlardan tushgan tushumlar | 10 |
| *Maishiy hamda medisina, sog'lomlashtirish va sayyohlik* xizmatlaridan (shu jumladan, bolalar muassasalaridan) tushgan tushumlar | 11 |
| Soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlardan tushgan tushumlar | 12 |
| Kishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlardan tushgan tushumlar | 13 |
| *Muqobil harbiy hizmatni o'tash, maktab va o'quv yurtlarida* o'kish uchun topshirilgan pullar | 14 |
| Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga topshirilgan pullar | 15 |
| Omonat hisob raqamlariga (avtokredit omonatidan tashqari) topshirilgan pullar | 16 |
| Pochta aloqasi korxonalaridan tushgan tushumlar | 17 |
| Bank plastik kartochkasiga kirim qilish uchun topshirilgan pullar | 18 |
| Xo'jalik sub'ektlari ustav kapitalini shakllantirish uchun topshirilgan pullar | 19 |
| «Avtokredit» omonat hisob raqamiga topshirilgan pullar | 20 |
| Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga berilgan, lekin ishlatilmasdan qaytarib topshirilgan pullar | 28 |
| Kreditlar va ularning foizlarini qaytarish uchun topshirilgan pullar | 29 |
| Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida chet el valyutasini sotishdan tushgan "so'm"dagi tushumlar | 30 |
| Qimmaqtdor qog'ozlarni sotishdan va xususiylashtirishdan tushgan tushumlar | 31 |
| Boshqa tushumlar | 32 |
| Jami kirim: (01-32- ramzlar buyicha) | 0 |
| Tijorat banki bo'limiga qarashli boshqa kassalardan keltirilib (o'tkazilib), *mazkur bank bo'limi 10101* aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 33 |
| Kun boshiga MB XBBXKKM kassasidagi naqd pullar qoldiqlari | 34 |
| Kun boshiga tijorat banki kassalaridagi naqd pullar qoldiklari | 35 |
| Tijorat banki aylanma kassasidan keltirilib, MB XBB XKKM 10101 aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 36 |

| | |
|---|---|
| MB zahira fondidan o'tkazilib, MB XBB XKKM 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 38 |
| Tijorat banki (bo'limi) barcha (ichki) kassalaridan keltirilib (o'tkazilib), 10101-aylanma kassadan tashqari, boshqa qassalariga kirim qilingan madad pullari | 39 |
| Ja'mi: keltirilib bank kassalariga kirim qilingan madad pullari (33-39 ramzlar bo'yicha) | (ramzsiz) |
| **Hammasi: kirim bo'yicha (01-39 ramzlar jami )** | **(ramzsiz)** |

Tijorat banklari ularning shahobchalari hamda Markaziy bank Hududiy bosh boshqarmalari Hisob-kitob kassa markazlari tomonidan amalga oshirilgan chiqim operatsiyalari quyidagi ramzlarda aks ettiriladi;

| **Chiqim moddalari** | **Ramzlar** |
|---|---|
| Mehnat haqiga (ish haqiga) berilgan pullar | 40 |
| Stipenliyalprga berilgan pullar | 41 |
| Xizmat safari xarajatlari uchun berilgan pullar | 42 |
| Gaz va neft mahsulotlarini sotib olish uchun berilgan pullpar | 43 |
| Topshiirilgan tushumlar doirasida berilgan pullar | 44 |
| Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan pullar | 45 |
| Qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarga berilgan pullar | 47 |
| Pensiya, nafaqa va sug'urta kompaniyasi to'lovlariga berilgan pullar | 50 |
| Xo'jalik sub'ektlariga dividendlarni to'lash uchun berilgan pulpnr | 51 |
| Bank plastik kartochkalaridan berilgan naqd pullar | 52 |
| Boshqa maqsadlar uchun berilgan pullar | 53 |
| Naqd pulda berilgan kreditlar | 54 |
| Valyuta ayirboshlash shahobchalarida chet el valyutasini sotib olish uchun so'mdagi chiqimlar | 57 |
| Pochta aloqasi korxonalariga berilgan madad pullari | 59 |
| **Jami chiqim: (40-59- ramzlar buyicha)** | 0 |

| | |
|---|---|
| Tijorat banki (bo'limi) barcha (ichki) kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun mazkur bank bo'limi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 60 |

| | |
|---|---|
| Tijorat banki bo'limi barcha (ichki) kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun. 10101-aylanma kassadan tashqari, boshqa kassalaridan chiqim qilingan madad pullari | 61 |
| Kun oxiriga MB XBB XKKMning kassasidagi naqd pullar qoldiqlari | 69 |
| Kun oxiriga tijorat banki (bo'limi) kassalaridagi naqd pullar qoldiqlari | 70 |
| Tijorat banki(bo'limi)ga madad puli berish uchun MB HBB XKKM aylanma kassasidan chiqim kilingan pullar | 71 |
| MB XBB HKKMga yoki tijorat banki(bo'limi)ga jo'natish uchun tijorat banki(bo'limi)ning 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 72 |
| MB zahira fondiga o'tkazish uchun MB XBB XKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 73 |
| Jami: Bank kassalaridan chiqim qilinib, jo'natilgan (o'tkazilgan) madad pullari (60-73 ramzlar bo'yicha) | (ramzsiz) |
| Hammasi: Chiqim bo'yicha (40-73 ramzlar jami) | (ramzsiz) |

Tijorat banklari va MB XBB HKKM kassalarida amalga oshirilgan barcha naqd pul aylanmalari (naqd pullarning kirim chiqimi va harakati) 01-73 ramzlar orqali aks ettirib boriladi.

Naqd pul mablag'larining kirim-chiqimi yoki harakatiga (kassadan kassaga o'tkazilishi, jo'natilishiga) doir operatsiyalarni tegishli ramzlar orqali aks ettirib borishda, (bir necha ramz osti guruhlarga bo'lingan ramz uchun masalan 40 (00) ramz 40 (01), 40 (02) 40 (03) va 40 (04) guruh, osti ramzlarga bo'lingan) faqat mos keluvchi ramz osti guruxdaridan (40 (01), 40 (02) 40 (03) va 40 (04)) foydalanishi mumkin.

Demak, bir necha ramz osti guruhlariga bo'lingan barcha ramzlarni asosiy, bosh (misolimizda bu 40 (00) - ramz ) ramzidan foydalanishga ruhsat etilmaydi. Ramz ostiga bo'linmagan barcha ramzlar masalan 15 (00) -ramz bundan mustasno.

Kassa kirim-chiqimi va aylanmalarini tegishli ramzlar orqali aks ettirishda, amalga oshirilayotgan naqd pulga doir operatsiyalar mazmunidan kelib chiqqan holda ularga mos keluvchi ramzlar belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

Kassa aylanishi bashorati natijasida xarajatlarining tushumdan oshib ketishi muomalaga qo'shimcha pul chiqarish zarurligini, aks holda *muomaladan pullarni olish kerakligini* ko'rsatadi. Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi va kassa aylanishi prognozi, pul muomalasini muvofiqlashtiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu ikkala ko'rsatkich asosiy pul aylanishini aks ettirish bilan umumiy bo'lsada, ular o'rtasida ma'lum farqlar mavjud:

1. Kassa aylanishida faqat naqd pul aylanishi ko'rsatilsa, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansida aholi amalga oshiradigan naqd *pullik va naqd pulsiz aylanish* to'la-to'kis ko'rsatiladi.

2. Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansida kassa aylanishi bashoratidan farqliroq aholining shaxsiy tomorqa xo'jaligi, hunarmandchilikdan va boshqa ko'rsatiladigan xizmatlari bo'yicha oladigan daromadlari va qiladigan xarajatlari ko'rsatiladi.

3. Aholining pul daromadlari kassa aylanishining xarajatlar qismida aholining xarajatlari kassa aylanishining kirim qismida o'z ifodasini topadi. Kassa aylanishi *prognozini bajarish* pul muomalasi barqarorligi ta'minlanishida birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan maqsad hisoblanadi.

## 6.2. Bank kassa oborotlarining prognoz hisob-kitoblarini tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi

O'zbekiston Respublikasida naqd pul aylanmasini prognoz qilish mamlakatimizdagi banklar kassa aylanmalari prognozini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Respublikamiz Markaziy banki va MB XBB, shuningdek, tijorat banklari tegishli hudud bo'yicha kassa aylanmalari prognozini amalga oshiradi va pul muomalasi holatini tahlil iladi.

Respublikamizdagi banklar, kassa aylanmalarining prognozi mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining taxmin qilinayotgan hisob-kitobi hamda respublika byudjeti ko'rsatkichlari asosida tuziladi.

Banklar kassa aylanmalarining choraklik bashorati tuzish uchun bankda asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga ega bo'lgan yuridik shaxslardan kassa buyurtmanomalarini oladilar.

Tijorat banklarining filiallari va filialga ega bo'lmagan tijorat banklari bashorat qilinayotgan chorakning boshlanishidan 30 kun oldin asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatilayotgan yuridik shaxslardan 1-ilovadagi shakl bo'yicha kassa buyurtmanomalarini oladilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki Ishlar vazirligi, Milliy Xavfsizlik xizmati, Favqulodda Vaziyatlar vazirligining harbiy qismlari va tashkilotlari (savdo va tomosha tashkilotlari bundan mustasno) banklarga bashorat qilinayotgan chorakda tushadigan hamda beriladigan naqd pullarning umumiy summalariga doir ma'lumotlarni ma'lum qiladilar. Banklar bu summalarni kassa aylanmalari bashoratiga "Boshqa tushumlar" va "Ish haqiga berilgan naqd pullar" moddalari bo'yicha kiritadilar.

Kassa aylanmalari tushum manbalari va chiqimlar tarkibi bo'yicha 4-ilovadagi shaklga muvofiq qaydnomada jamlanadi.

Kassa buyurtmanomalarida ko'rsatilgan to'lovlar summasi yuridik shaxslarga faqat ushbu buyurtmanomalar chegarasida naqd pullar berilishini anglatmaydi.

Tijorat banklarining lari va shahobchaga ega bo'lmagan tijorat banklari yuridik shaxslar faoliyatining bashorat hisob-kitoblari hamda pul tushumlarini ko'paytirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularning kassalariga tushadigan pullarning to'liq hisobga olinishiga alohida e'tibor berib, yuridik shaxslardan olingan kassa buyurtmanomalarini ko'rib chiqadilar.

Banklar yuridik shaxslardan olingan kassa buyurtmanomalarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha, zarur bo'lsa, mijozlar bilan kelishgan holda ularga aniqliklar kiritadilar.

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga depozit hisobvaraqlardan naqd pullarning uzluksiz berilishi tijorat banklarining chorak, yarim yillik va umuman yillik ish yakunlarini sarhisob qilishda ular faoliyati samaradorligi va ishonchliligini baholashning eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari pul muomalasining holatini muntazam o'rganadilar, tahlil qiladilar va uni mustahkamlash uchun amaliy choralar ko'radilar. Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning naqd pulga bo'ltan ehtiyojlarini ularning talabi bo'yicha uzluksiz qondirilishini ta'minlaydilar.

Tijorat banklari jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilishga, jismoniy shaxslar daromadlarining naqd pulsiz tartibda omonatlarga o'tkazilishini kengaytirishga, tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni riiojlantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar.

Shunipgdsk, yuridik shaxslar bilan kelishgan holda ularning kassalaridagi naqd pul qoldig'i limitlari, pul tushumlarini bankka topshirish tartibi va muddatlarini belgilaydilar.

Naqd pul mablag'larining har kuni kelib tushishi ustidan doimiy monitoringi amalga oshirib, haiqatda tushgan tushumlar va berilgan naqd pullarning kassa aylanmalarining prognoz hisob-kitoblaridan farq qilish sabablarini tahlil qiladilar. Naqd pul tushumlarining ko'payishini ta'minlash choralarini ko'rib. naqd pul zahiralari holati va ulardan foydalanishni tezkorlik bilan boshqaradilar, shuningdek, bo'sh naqd mablag'lar yetarli hajmda bo'lishini taminlash maqsadida ulardan oqilona foydalanishni amalga oshiradilar.

Tijorat banklarining filiallari va filialga ega bo'lmagan tijorat banklari pul muomalasining holatini hamda bu holatni tavsiflov-

chi ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida pul muomalasini barqarorlashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning naqd pulga bo'lgan ehtiyojlarini uzluksiz qondirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishlari hamda joylardagi davlat hoqimligi organlari muhokamasiga ko'yishlari maqsadga muvofiq.

MB XBB pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish maqsadida Koraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tijorat banklarining faoliyatini muvofiqlashtirib uning monitoringini olib boradilar.

## 6.3.Bank kassalaridan naqd pul berilishini bashoratlash. Banklar kassa aylanmasi bashorat hisob-kitoblar bo'yicha hisoboti

Aholi va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga naqd pullarni berish ularning depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar chegarasida to'lov hujjatlarida ko'rsatilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

Banklar aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga naqd pullarni ularning birinchi talabi bo'yicha uzluksiz berishni ta'minlaydilar. Bunda ular naqd pullarni berish birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga, pensiya nafaqa, stipendiya, xizmat safari xarajatlari shuningdek, aholi omonatlarini to'lash uchun amalga oshiradilar.

Yuridik shaxslar tomonidan bankdan olingan naqd pullarning kirim qilinishi va sarflanishi, yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyati uchun berilishi lozim bo'lgan naqd pullar ularning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi omonat hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin.

Yuridik shaxslar bankga jamoa shartnomasida yoki boshqa lokal me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan, mehnatga ha to'lashning muddatlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadilar. Ko'rsatilgan ma'lumotlar yuridik shaxslarga taqdim etiladigan kassa buyurtmanomalarida xabar qilinadi.

Yuridik shaxslar bilan mehnatga haq to'lash uchun naqd pul berishning aniq muddatlarini kelishish paytida banklar yuridik shaxslarga jamoa shartnomalari yoki boshqa lokal me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan mehnatga haq to'lash muddatlarini hisobga olgan holda, pul berishni butun bank bo'yicha oydagi kunlarga mumkin qadar bir me'yorda taqsimlash zarurligini hisobga oladilar.

Banklar yuridik shaxslarga mehnat haqi to'lash uchun belgilangan muddatdan oldin naqd pul berilishiga yo'l ko'ymaydi, ushbu holat yuriqnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Byudjet tashkilotlariga mehnatga haq to'lash uchun pul berish, agar byudjet tashkilotining jamoa shartnomalari yoki boshqa lokal me'yoriy hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, oyda ikki marta: oyning birinchi yarmi uchun - shu oyning 16-20 kunlarida va oyning ikkinchi yarmi uchun - keyingi oyning 1-5 kunlarida amalga oshiriladi.

Har bir byudjet tashkiloti uchun yuqorida ko'rsatilgan pul berish davri doirasida ularning rahbarlari bilan kelishilgan holda mehnat haqi to'lanadigan aniq muddat belgilab qo'iilishi kerak.

Barcha boshqa yuridik shaxslarga pul berish muddatlari jamoa shartnomalari yoki boshqa lokal me'yoriy hujjatlarga asosan ular bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Mudofaa vazirligining harbiy qismlari va tashkilotlari harbiy xizmatchilariga pul taminoti uchun, erkin yollangan tarkibga ish haqi uchun naqd pul berish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: safdagi qismlarning harbiy xizmatchilariga joriy oy uchun - oyning

1-kunidan 20-kunigacha, tashkilot va muassasalardagi harbiy xizmatchilarga oyning 23-kunidan 29-kunigacha, erkin yollangan xizmatchilar tarkibiga oyning birinchi yarmi uchun shu oyning 16-20 kunlari va oyning ikkinchi yarmi uchun keyingi oyning 1-5 kunlari. Garnizon boshliqlari banklar rahbarlari bilan kelishib, yuqorida ko'rsatilgan muddatlar doirasida har qaysi harbiy qism, tashkilot uchun pul olishning aniq muddatini belgilaydilar.

O'zbekistan Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati harbiy hizmatchilariga pul ta'minotini to'lash bir oyda bir marta, safdagi qismlar va harbiy o'quv yurtlariga joriy oy uchun oyning 15-20 kunlarida, ularning boshqarmalari tashkilotlariga esa - oyning 20-25 kunlarida amalga oshiriladi.

Favqulotda vaziyatlar vazirligining xizmatchilariga pul ta'minoti uchun pul berish har oyning 5 va 20-kunlarida amalga oshiriladi.

Talabalarga stipendiyalar to'lash muddatlari banklar tomonidan tegishli o'quv yurtlari yoki ular bo'ysunadigan yuqori tashkilotlarning rahbarlari bilan kelishilgan holda belgilanadi. Ishlab chiqarish amaliyotiga jo'nab ketayotgan talabalarga stipendiyalarni to'lash muddati kelgunga qadar, shuningdek, butun amaliyot davri uchun stipendiyalarni to'lash uchun naqd pul berilishiga yo'l qo'yiladi. Ta'til kunlari boshlangan taqdirda o'quv yurtlariga talabalarga stipendiya to'lash uchun pullar stipendiya to'lash muddatidan qat'iy nazar beriladi.

To'lash muddatlari dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelib qolganida mehnatga haq to'lash hamda stipendiyalar uchun naqd pullar banklar tomonidan ish kunidan bir kun oldin beriladi. Dam olish kunlari umumbelgilangan kunlarga to'g'ri kelmaydigan yuridik shaxslarga, ularning dam olish kunlariga to'g'ri keladigan muddatlar bo'yicha mehnatga haq to'lash uchun pul shu kunlardan bir kun oldin beriladi.

Hodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilayotgan vaqtda ular bilan hamda mehnat ta'tiliga chiqadiganlar bilan, shuningdek,

shtatdan (ro'yxatdan) tashqari xodimlar bilan hisob-kitob qilish uchun yuridik shaxslarga mehnat haqini to'lashga belgilab qo'yilgan muddatlardan qatiy nazar pul beriladi.

Pul berish kalendarida yuridik shaxslar bo'yicha pul berishning yuqorida belgilangan tartibda kelishilgan muddatlari ko'rsatiladi. Beriladigan pullarning aniq miqdori kalendarda yuridik shaxslar 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha taqdim etadigan kassa buyurtmanomalari asosida yilning har choragida oyma-oy qo'yib boriladi. Bunda banklar kassa buyurtmanomalarida ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash va stipendiyalar to'lash muddatlari pul berish kalendarida belgilangan muddatlarga mos kelish-kelmasligini tekshiradilar.

Mehnat haqiga pul berish kalendarida oydagi barcha kunlar, shu jumladan, ish kunidan tashqari kunlar (dam olish va bayram kunlari) bo'yicha ham to'lovlar ko'rsatiladi.

Kalendarga bank kassalaridan mehnat haqi va stipendiyalar uchun beriladigan naqd pullarning barcha summasi kiritiladi. Kalendarga yuridik shaxslarga pochta orqali hamda omonatlarga kiritish uchun o'tkaziladigan mehnat haqi to'lovlari kiritilmaydi.

Naqd pul mablag'larining berilishi monitoringi bo'yicha Markaziy bank va tijorat banklarining maxsus bo'linmalari:

- kundalik naqd pul mablag'lari kelib tushishi ustidan doimiy monitoringni, shuningdek, naqd pul hisob-kitoblarining holati tahlilini amalga oshiradi va naqd mablag'larni to'lash holati, ularni berishni kechiktirish hollari mavjudligi to'g'risida oylik hisobotlar tuzadi;
- bank mijozlarining naqd pul mablag'larini cheklovsiz va uzluksiz berish masalalari bo'yicha murojaat va shikoyatlarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan zudlik bilan choralar ko'radi, tijorat banklarining bo'limlari va shahobcharida ushbu masalalar yuzasidan tekshirishlar o'tkazadi.

*Jismoniy shaxslar tomonidan bank plastik kartochkalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan tovarlar bo'yicha hisob-kitoblar naqd pulli hisob-kitoblarga tenglashtiriladi.*

*Yuridik shaxslar, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan korporativ bank plastik kartochkalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan tovarlar bo'yicha hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblarga tenglashtiriladi.*

Tijorat banklari tomonidan naqd pul mablag'larining bank kassalariga kirim chiqim va aylanmasi bo'yicha 1302 shakldagi 5 kunlik, 1312 shakldagi oylik hisobotlar, shu davrga taaluqli bo'lgan bir kunlik ma'lumotlarni umumlashtirish asosida tuziladi. Naqd pul mablag'larining hisoboti tijorat banklari hamda MB HBB HKKM tomonidan Markaziy bank axborotlashtirish bosh markaziga elektron ko'rinishda berib boriladigan ma'lumotlar asosida shakllantiriladi. Shuning uchun ham, respublika bo'yicha naqd pul mablag'lari kirim-chiqimi hamda harakati bo'yicha hisobotlarni to'liq va o'z vaqgida tuzilishini ta'minlash, bevosita har bir bank tomonidan tegishli elektron ma'lumotlarni to'g'ri hamda belgilangan muddatlarda taqdim etilishiga bog'liq.

**Kunlik.** 5 kunlik va oylik hisobotlarni tuzishda tijorat banklari hamda MB HBB HKKM kassalarida hisobot davrida amalga oshirilgan naqd pul aylanmalarini tashkil etuvchi har bir kirim va chiqim summalari ramzlar bo'yicha jamlanadi. Hisobot davri mobaynida bank kassasiga mijozlardan kelib tushgan naqd pullar miqdorini aniqlash uchun 01-32 ramzlar bo'yicha summalarni, bank kassasidan mijozlarga chiqim qilingan naqd pullar miqdorini aniqlash uchun 40-59 ramzlar bo'yicha summalarni jamlash talab etiladi.

*Kirim yoki chiqim ramzlari bo'yicha summalarni* jamlashda, bir necha ramz osti guruhlariga ega bo'lgan (masalan 40 (00)- ramz 40 (01), 40 (02), 40 (03) va 40 (04) ramz osti guruhlariga bo'lingan )

ramzlar bo'yicha. faqat *ramz osti guruhlariga* mos keluvchi summalar jamlanadi. Bank kassalari orqali kirim yoki chiqim operatsiyalarini aks ettirishda, ramz osti guruhlariga ega bo'lgan bosh ramzlardan, masalan, 40 (00) ramzdan foydalanish taqiqlanadi. Ramz osti guruhlariga ega bo'lmagan ramzlar, masalan, 15 (00) ramz bundan mustasno.

Tijorat banki kassalariga yoki MB HBB HKKM aylanma kassasiga kirim qilingan boshqa bank kassalaridan keltirilgan pullar 33 va 36-39 ramzlarda aks ettiriladi. Tijorat banki kassalariga jo'natish maqsadida bank kassalaridan yoki MB HBB HKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar 60-61 va 71-73 ramzlarda aks ettirilib boriladi. Tijorat banki *kassalaridagi naqd pullar* qoldiqlari summasi kun boshiga 35 ramzda kun oxiriga esa 70 ramzlarda aks ettirilishi hamda ular mos ravishda 10101, 10102, 10103, 10107, 10109, va 10111-hisobvaraqlardagi qoldiqlar summasiga teng bo'lishi lozim.

Bank kassalariga mijozlardan kelib tushgan tushumlar va mijozlarga qilingan chiqimlar summasini aniqlashda, 33-39 hamda 60-61 va 69-73 ramzlarda aks ettirilgan summalar, kirim 01-32 yoki chiqim 40-59 ramzlar bo'yicha jamlangan umumiy summalarga ko'shilmaydi. Hisobot davrining oxiriga kassa *qoldiqlari, ya'ni 69*-70 ramzlardagi summalar keyingi qhisobot davrining boshiga kassa qoldiklari bo'lib o'tadi va mos ravishda 34-35 ramzlarda aks ettirilishi lozim.

Naqd pul mablag'lari kirim-chiqimi va aylanmasiga doir kunlik, 1302-shakldagi besh kunlik va 1312-shakldagi oylik hisobotlar tuzilayotganda kassalardagi kun boshiga va kun oxiriga qolayotgan qoldiqlar o'rtasida quyidagi tengliklar bo'lishi shart.

**3-jadval**

**Tijorat banklarida naqd pul mablag'lari kirim-chiqim va aylanmasi bo'yicha tuzilayotgan kunlik, besh kunlik va oylik *hisobotlarni tekshirish asoslari***

**a) Tijorat banki (bo'limi) dagi barcha kassalar bo'yicha umumiy holda:**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| *35(01-06)* | *+(01-32)* | *+33(01-04)* | *+37(01,03,04)* | *+39(01-04)* |

Ushbu jadvalda qayd etilgan tengliklarning tijorat banklaqri tomonidan bajarilmasligi, o'z-o'zidan naqd pul mablag'lari kirim-chiqimi va harakati bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini bankda to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidan yoki kassa operatsiyalari mazmunini aks ettiruvchi ramzlarni noto'g'ri tanlanganligidan *dalolat beradi. Shuningdek*, hisobotlarni shakllantirish jarayonida tengliklarni sun'iy ravishda bajarilishini ta'minlash maqsadida. tenglikda ko'zda tutilgan biror bir kirim yoki chiqim ramzlari orqali ifodalangan summalarini inobatga *olinmasligiga, chegirib* tashlanishiga yoki o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Chunki 5 kunlik va oylik hisobotlarni yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad, naqd pul mablag'larini kirim-chiqim va harakati bo'yicha haqiqiy holatni o'rganishdan iborat. Tijorat bank kassalariga kirim qilingan naqd pullar summasi, tijorat banklaridagi 10101, 10102, 10103, 10105, 10107 va 10111-hisobvaraqlar debet aylanmasiga, chiqim qilingan naqd pullar summasi esa, mazkur hisobvaraqlar kredit aylanmasi summasiga mos kelishi lozim.

Tijorat bank bo'limi bir kassasidan boshqa bir kassasiga naqd pul mablag'lari o'tkazilganida, (bank binosida joylashmagan kassalar, bankomatlar bundan mustasno) *tranzit* hisobvarag'i sifatida-10109-»yo'ldagi pullar» hisobvarag'idan, albatta, foydala-

nishi shart. Biroq bank bo'limiga qarashli kassalar o'rtasida naqd pul mablag'larini qayta taqsimlashda yoki bir bank bo'limi kassasidan boshqa bir bank bo'limi kassasiga madad pullarini jo'natishda 10109-hisobvarag'idan foydalanilganda, kun oxiriga 10109-hisobvaraqda qoldiqlar (naqd pullar) qolib ketishiga yo'l qo'yilishi mumkin emasligi inobatga olinishi lozim. Tijorat banklaridagi 10102-naqd pullar zahirasi hisobarag'iga naqd pullarni kirim yoki chiqim qilish faqat shu bankning 10101 kassasi orqali 17301-tranzit hisob raqamidan, albatta, foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Xuddi shuningdek, bir tijorat bank bo'limi kassasidan boshqa bir tijorat bank bo'limiga yoki shu bankning ikkinchi bir bo'limiga MB HBB farmoyishi asosida madad pullar ajratilganida ham, albatta, 10109-»yo'ldagi pullar» hisobvarag'idan foydalanilishi lozim.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, bank kassalarida amalga oshirilgan naqd pul mablag'lari kirim-chiqimi aylanmalarga doir buxgalteriya o'tkazmalarini belgilangan tartibda amalga oshirilishi va ular bo'yicha ramzlarni to'g'ri tanlanishi bosh buxgalter tomonidan o'rnatilgan tartibda tekshirilishi shart.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida banklar tomonidan kassa aylanmalarining bashoratlarini tuzish va ularning bajarilishini doimiy nazorat qilish, mulkchilik shaklidan qatiy nazar mijozlarning talablariga asosan, ularning hisob raqamlaridagi mavjud pul mablag'lari doirasida o'z vaqtida va to'liq naqd pul berilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**1-ilova.**

Kassa buyurtmanomasi

| |
|---|
| 20 yil chorak uchun |
| Yuridik shaxs nomi |
| Bankning nomi |

(ming so'm)

I. Pul tushumlari (bankdan olinadigan naqd puldan tashqari)

| Ko'rsatkichlar nomi | O'tgan yilning tegishli choragi uchun amaldagi ijro | | 20 yilning choragi uchun prognoz | |
|---|---|---|---|---|
| | ja'mi | Shu jumladan bankka topshiriladigan | ja'mi | Shu jumladan bankka topshiriladigan |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| Naqd pul tushumlari: | | | | |
| 1. Savdo tushumi | | | | |
| 2 Barcha turdagi pullik xizmatlar | | | | |
| 3. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar | | | | |
| 4. Sug'urta to'lovlari | | | | |
| 5. Boshqa tushumlar | | | | |
| 6. Ja'mi tushumlar | | | | |

## II.Ish haqi va mehnat haqining boshqa turlariga to'lovlar

| Ko'rsatkichlar nomi | O'tgan yilning tegishli choragi uchun amaldagi ijro | 20__yilning choragi uchun xomcho't |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 1. Ish haqi fondi | | |
| 2. Ushlab qolingan pullar | | |
| 2.1. Soliqlar | | |
| 2.2. Maxsus kiyim-kechak uchun | | |
| 2.3. Umumiy ovqatlanish korxona-lari va bolalar muassasalarida ov-qatlanish uchun to'lovlar | | |
| 2.4. Ihtiyoriy sug'urga turlari bo'yi-cha to'lovlar | | |
| 2.5. Kasaba uyushmasi a'zolik badali | | |
| 2.6. Pensiya jamg'armasiga ushlab qolingan pullar | | |
| 2.7. Boshqa ushlab qolingan pullar | | |
| 2. Ja'mi ushlab qolingan pullar | | |
| 3. Ja'mi ushlab qolingan pullar | | |
| 3.1. Banklarlagi omonatlarga | | |
| 3.2. Pochta orqali o'tkazilgan pullar | | |
| 3.3. Boshqa banklarga berish uchun | | |
| 3. Ja'mi o'tkazmalar | | |
| 1. (1-2-3) Ja'mi naqd pul to'lovlari | | |

III.Boshqa to'lovlar

| Ko'rsatkichlar nomi | O'tgan yilning tegishli choragi uchun amaldagi ijro | 20_yilning__ choragi uchun naqd pul chiqimlari bashorati |
|---|---|---|
| 1. Stipendiyalar | | |
| 2. Xizmat safari xarajatlari | | |
| 3. Nafaqlar | | |
| 4. Pensiyalar | | |
| 5. Boshqa maqsadlar | | |

## IV. Belgilangan muddatlarda mehnat haqi berish kalendari

(bankdan olinadigan naqd pul to'lovlari summasi)

| Kunlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | | | 30 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

**Yuridik shaxs rahbari**______________________

**Bosh hisobchi** ___________________________

**2-ilova**

**Kassa aylanmalarining bashorat hisob-kitoblariga 20__ yilning __-choragi uchun YIG'MA QAYDNOMA**

**Bankning nomi**______________________________

| Yuridik shaxsning nomi | Bashorat moddalari | Mablag' (ming so'm) |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

**Imzo**__________

**3- ilova**

## Tijorat banklari va MB HBB HKKM tomonidan amalga oshiriladigan kirim-chiqim operatsiyalari quyidagi ramzlarda aks ettiriladi.

| Kirim moddalari | |
|---|---|
| | 01 |
| Avtomobil gaz yoqilg'isini sotishdan tushumlar<br>Alkogolli ichimliklarni sotishdan tushumlar<br>Tamaki mahsulotlarini sotishdan tushumlar | 02 02 (01) 02 (02) 02 (03) |
| Usimlik yog'ini sotishdan tushumlar | 02 (04) |
| Neft maksulotlari (benzin va dizel yoqilg'i)ni sotishdan tushumlar | 02 (05) |
| Boshqa iste'mol tovarlarini (aksizli va yoqilg'i mahsulotlaridan tashqari) sotishdan tushumlar<br>Avtotransport vositalarini sotishdan tushumlar | 02 (06) 03 |
| «UzDEU avto» qo'shma korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan avtomashinalarni sotishdan tushgan tushumlar | 03 (01) |
| Boshqa avtotransport vositalarini sotishdan tushumlar | 03 (02) |
| Umumiy ovqatlanish korxonalaridan tushumlar | 04 |
| *Temir yo'l va havo tansportidan tushumlar* | 05 |
| Maxalliy transportdan tushumlar. | 06 |
| Telefon xizmatlari uchun tushumlar | 07 |
| Uyali aloqa bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan tushumlar | 07 (01) |
| Oddiy telefonlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan tushumlar | 07 (02) |
| Uy-joy haqlari va kommunal xizmat to'lovlaridan tushumlar | 08 |
| Elektr energiyasi uchun tushumlar | 08 (01) |
| *Issiq suv va isitish xizmatlaridan tushumlar* | 08 (02) |
| Gaz uchun to'lov tushumlar | 08 (03) |
| Boshqa kommunal xizmat to'lovlaridan tushumlar | 08 (04) |
| Tomoshagoh muassasa tushumlar | 09 |
| Lotoreya biletlari va boshqa pul-buyum yutuqli o'yinlardan tushumlar | 10 |
| Maishiy hamda meditsina, sog'lomlashtirish va sayyohlik xizmatlaridan (shu jumladan, bolalar muassasalaridan) tushumlar | 11 |
| Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan tushumlar | 11 (01) |

| | |
|---|---|
| Medisina, soglomlashtirish va sayyohlik xizmatlaridan hamda bolalar muassasalaridan tushumlar | 11(02) |
| Soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlardan tushumlar | 12 |
| Qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlardan tushgan tushumlar | 13 |
| *tKun boshiga tijorat banki (bulimi) 10101-aylanma kassasidagi naqd pullar qoldiqlari* | *35(01)* |
| *Kun boshi tijorat banki (bo'limi) 10102-naqd pullar zahirasidagi qoldiqlar* | *35(02)* |
| *Kun boshiga tijorat banki (bo'limi) valyuta ayirboshlash shahochasi kassasidagi naqd pullarqoldiqlari* | *35(03)* |
| *Kun boshiga tijorat banki (bulimi) bankomatlaridagi naqd pullar qoldiqlari* | *35 (04)* |
| *— Kun boshiga.tijorat banklari kassalaridagi va bank binosida joylashmagan kassalardagi naqd pullar qoldiqlari* | *35(05)* |
| *Kun boshiga tijorat banki (bo'limi)da 10109-yuldagi pullarda aks ettiriyagan naqd pullar qoldiqlari* | *35(06)* |
| Tijorat banki (bo'pimi) aylanma kassasidan keltirilib, MB HBB HKKM 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 36 |
| MB HBB HKKM dan yoki tijorat banki (bo'limi)dan keltirilib, tijorat banki (bo'limi) ning 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 37 |
| *MB HBB HKKM aylanma kassasidan keltirilib, tijorat banki (bo'limi)ning 10101- aylanma kassasiga kirim qilingan pullar* | *37(01)* |
| *Boshqa tijorat banki(bo'limi)dan keltirilib, tijorat banki (bo'limi) ning 10101 aylanma kassasiga kirim qilingan pullar* | *37(03)* |
| *Mazkur tijorat banki boshqa bo'limidan keltirilib, tijorat banki(bo'limi)ning 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan pullar* | *37(04)* |
| MB zahira fondidan o'tkazilib, MB HBB HKKM 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan pullar | 38 |
| *MB zahira fondidan o'tkazilib, MB XBB XKKM 10101-aylanma kassasiga kirim qilingan madad pullari* | *38 (01)* |
| *MBning zahira fondidan MB XBB XKKM aylanma kassasiga «yaroqsiz pullarni «yaroqli» pullarga almashtirish uchun o'tkazilgan pullar* | *38 (02)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) barcha (ichki) kassalaridan keltirilib (o'tkazilib), 10101-aylanma kassadan tashqari, boshqa kassalarga kirim qilingan madad pullari* | *39* |

| | |
|---|---|
| *Tijorat banki (bo'limi) 10101-aylanma kassasidan, 10102-naqd pullar zahirasiga kirim qilingan pullar* | *39 (01)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) valyuta ayirboshlash shahobchasi kassasiga kirim qilingan madad pullari* | *39 (02)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) bankomatlariga qo'yilgan (kirim qilingan) madad pullari* | *39 (03)* |
| *Mini banklar kassalariga va bank binosida joylashmagan kassalarga kirim qilingan madad pullari* | *39 (04)* |
| *Jami: Keltirilib; (o'tkazilib) bank kassalariga kirim qilingan madad pullari (33-39ramzlar bo'yicha)* | *(ramzsiz)* |
| *Hammasi: Kirim bo'yicha (01-39 ramzlar jami)* | *(ramzsiz)* |
| ***Chiqim moddalari*** | ***Ramzlar*** |
| *Mehnat haqiga (ish haqiga) berilgan pullar* | *40(01)* |
| *Byudjet tashkilotlariga ish haqiga berilgan pullar* | *40(02)* |
| *Kontingentga berilgan pullar* | |
| *Monitoringga olingan vazirliklar korxona va tashkilotlariga ish haqi uchun berilgan pullar* | *40 (03)* |
| *Boshqa o'ujalik sub'ektlari ish xaqlariga berilgan pullar* | *40 (04)* |
| *Stipendiyalarga berilgan pullar* | *41* |
| *Xizmat safari xarajatlari uchun berilgan pullar* | *42* |
| *Byudjet tashkilotlariga xizmat safari xarajatlariga berilgan pullar* | *42 (01)* |
| | |
| *Monitoringga olingan vazirliklar korxona va tashkilotlarga xizmat safari xarajatlariga berilgan pullar* | *42 (02)* |
| *Boshqa xo'jalik sub'ektlariga xizmat safari xarajatlariga berilgan pullar* | *42 (03)* |
| *Gaz va neft mahsulotlarini sotib olish uchun berilgan pullar* | *43* |
| *Topshirilgan tushumlar doirasida berilgan pullar* | *44* |
| *Yuridik shaxslarga topshirilgan tushumlari doirasida berilgan pullar* | *44(02)* |
| **Yakka tartibda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga berilgan pullar** | **45** |
| **Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash uchun tayyorlov korxonalariga berilgan pullar** | **46** |
| **Qishloq xo'jalik faoliyati bilan shugullanuvchi sub'ektlarga berilgan pullar** | **47** |
| *Paxta yigim-terimi ishtirokchilariga berilgan pullar* | *47(01)* |

| | |
|---|---|
| *G'alla yig'im-terimi ishtirokchilariga berilgan pullar* | *47(02)* |
| *Qishloq, xo'jalik sub'ektlariga oylik va boshqa ish haqlariga berilgan pullar* | *47(03)* |
| Pensiya, nafaqa va sug'urta qoplamasi to'lovlariga berilgan pullar | 50 |
| *Byudjet tashkilotlariga pensiya, nafaqa va boshqa shu kabi to'lovlarga berilgan pullar* | *50 (01)* |
| *Xalq banki filiallari orqali bolalar nafaqalarini uchun berilgan pullar* | *50 (02)* |
| *Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlaridan berilgan pullar* | *50 (03)* |
| *Xo'jalik hisobidagi xo'jalik sub'ektlariga pensiya, nafaqa va boshqa shu kabi to'lovlar uchun berilgan pullar* | *50 (04)* |
| *Sug'urta koplamasi to'lovlariga berilgan pullar* | *50 (05)* |
| Xo'jalik sub'ektlariga dividendlarni to'lash uchun berilgan pullar | 51 |
| Bank plastik kartochkalaridan berilgan naqd pullar | 52 |
| *Bankomatlar orqali berilgan naqd pullar* | 52(01) |
| *Bank kassalaridagi terminallar orqali berilgan naqd pullar* | 52 (02) |
| Boshqa maqsadlar uchun berilgan pullar | 53 |
| *Naqd pulda berilgan mikrokreditlar* | *54 (01)* |
| *Xorijiy banklar kredit liniyalari bo'yicha naqd pulda berilgan kreditlar* | *54 (02)* |
| Omonat hisob raqamlaridan berilgan pullar | 55 |
| *Naqd pullarni topshirish hisobiga shakllangan omonatlarga berilgan pullar* | *55(01)* |
| *Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni naqd pulsiz kelib tushishi hisobiga shakllangan omonatlarga berilgan pullar* | *55(02)* |
| *Boshqa maqsadlar ko'rsatilgan holda naqd pulsiz kelib tushishi hisobiga shakllangan omonatlar* | *55(03)* |
| *tushgan omonatlarga berilgan pullar* | 56 |
| Valyuta ayirboshlash shahobchalarida chet el valyutasini sotib olish uchun qilingan "so'm"dagi chiqimlar | 57 |
| Pochta aloqasi korxonalariga berilgan madad pullari | 59 |
| Ja'mi chiqim: (40-59- ramzlar bo'yicha) | |
| Tijorat banki (bo'limi) barcha (ichki) kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun mazkur bank bulimi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 60 |

| | |
|---|---|
| *Tijorat banki bo'limi valyuta ayirboshlash shaxobchasi kassasiga jo'natish (o'tkazish) uchun mazkur bank bo'limi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *60(01)* |
| *Tijorat banki bo'limi bankomatlariga qo'yish (kirim qilish) uchun mazkur bank bo'limi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *60(02)* |
| *Mini banklar kassalariga va bank binosida joylashmagan kassalarga jo'natish uchun mazkur bank bo'limi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *60 (03)* |
| *Tijorat banki bo'limi 10102-naqd pullar zahirasiga o'tkazish uchun mazkur bank bo'limi 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *60 (04)* |
| Tijorat banki (bo'limi) barcha (ichki) kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun, 10101-aylanma kassadan tashqari, boshqa kassalaridan chiqim qilingan madad pullari | 61 |
| *Tijorat banki (bo'limi) 10101-aylanma kassasiga o'tkazish uchun 10102-naqd pullar zahirasidan chiqim qilingan pullar* | *61(01)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) boshqa kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun valyuta ayirboshlash shahobchasi kassasidan chiqim qilingan pullar* | *61(02)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) boshqa kassalariga berish maqsadida bankomatlardan olingan, chiqim qilingan pullar* | *61(03)* |
| *Tijorat banki (bo'limi) boshqa kassalariga jo'natish (o'tkazish) uchun mini banklar kassalaridan va bank binosida joylashmagan kassalardan chiqim qilingan pullar* | *61(04)* |
| Kun oxiriga MB HBB HKKM ning kassasidagi naqd pullar qoldiqlari | 69 |
| *Kun oxiriga MB XBB XKKM 10101-aylanma kassasidagi naqd pullar qoldiqlari* | *69(01)* |
| *Kun oxiriga MB HBB HKKMga 10109-yuldagi naqd pullarda aks ettirilgan naqd pullar qoldiqlari* | *69(02)* |
| Tijorat banki (bo'limi) ga madad puli berish uchun MB XBB XKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 71 |
| MB XBB HKKMga yoki tijorat banki (bo'limi) ga jo'natish uchun tijorat banki (bo'limi)ning 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar | 72 |
| *MB HBB HKKM aylanma kassasiga jo'natish uchun tijorat banki (bo'limi) ning 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *72(01)* |
| *Boshqa tijorat banki(o'ulimi)ga jo'natish uchun tijorat banki (bo'limi)ning 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *72(03)* |

| | |
|---|---|
| *Mazkur tijorat bankining boshqa bo'limiga jo'natish uchun tijorat banki (bo'limi) ning 10101-aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar* | *72(04)* |
| **MB zahira fondiga o'tkazish uchun MB XBB XKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar** | **73** |
| ***MB zahira fondini to'ldirish uchun MB HBB HKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar*** | ***73(01)*** |
| ***MB HBB HKKM aylanma kassasidagi "yaroqsiz" pullarni MB zahirafondidagi "yaroqli" pullarga almashtirish uchun XKKM aylanma kassasidan chiqim qilingan pullar*** | ***73(02)*** |
| **Jami: Bank kassalaridan chiqim qilinib, jo'natilgan (o'tkazilgan) madad pullari (60-73 ramzlar buyicha)** | **(ramzsiz)** |
| **Hammasi: Chiqim bo'yicha (40-73 *ramzlar jami*)** | **(ramzsiz)** |

## 6.4. Bank kassalariga naqd pul tushumini va inkassatsiya ishlarini tashkil qilish.

Pul tushumlarini turli hil yo'llar bilan bank kassasiga topshirilishi inkassatsiya deb yuritiladi.

Bugungi kunda pul tushumlari quyidagi tartibda inkassatsiya qilinadi:

• to'g'ridan to'g'ri bank kassasiga (kunduzgi va kechki) xo'jaliklar tomonidan naqd pullarni topshirish;

• inkassatorlarga - keyinchalik bankka topshirish uchun;

• tashkilotlar qoshidagi birlashgan kassalarga - keyinchalik bankka topshirish uchun;

• *aloqa korxonalariga - bank muassasalari hisob raqamlariga* o'tkazish uchun topshirishlari mumkin;

• XB muassasalariga — keyinchalik bank muassasasiga o'tkazish uchun.

Xo'jalik sub'ektlari naqd pul qoldig'ining belgilangan limitidan ortiqcha bo'lgan qismini bank muassasasi bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda o'zining bankidagi hisob raqamlariga kiritish uchun yuqoridagi yo'llar bilan bankka topshirishlari shart.

Pul tushumlarini o'z vaqtida va to'liq topshirilishi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatilgan. Bu nazorat soliq tashkiloti tomonidan olib boriladi. Banklar tomonidan nazoratni olib borish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Har bir bank muassasasi doimiy tushumga ega bo'lgan korxona, tashkilotlar ro'yxatini tuzib, unga asosan kunlik pul tushumlarining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi ustidan nazorat olib boradi.

Doimiy pul tushumiga ega bo'lmagan tashkilotlarga esa ular rahbarlari bilan kelishilgan holda pul tushumlarini topshirish tartibi va muddatlarini belgilab beradi.

Mamlakatda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul tushumini inkassatsiya qilish va bank bo'limlari o'rtasida qimmatdorklarni tashish UzR MB huzuridagi xo'jalik hisobidagi inkassatsiya birlashmasining xududiy boshkarmalari va bo'limlari tomonidan O'z R ning amaldagi qonunlariga muvofiq tomonlar tuzgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Bu shartnoma uch tomonlama, bank, mijoz va inkassatsiya xizmati o'rtasida tuziladi. O'zR MB xuzuridagi xo'jalik hisobidagi inkassatsiya birlashmasi mustaqil xo'jalik hisobidagi tashkilot bo'lib, u o'z nizomi asosida ish yuritadi.

Inkassatsiya xizmati xodimlari tegishli tartib qoidalar asosida ishga qabul qilinib, ular bilan shartnoma tuziladi.

Naqd pul mablag'larini inkassatsiya qilish xizmatlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan vositachilik to'lovlari undirilmagan holda pul tushumlarini inkassatsiya qiladilar. Keyinchalik ushbu ishlar bilan bog'liq xarajatlar banklar tomonidan bank bo'limi va inkassatsiya xizmati o'rtalarida tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida inkassatsiya xizmati har oyda taqdim etadigan to'lov hisoblari bo'yicha qoplanadi.

Inkassatorlar tomonidan pul tushumi yig'iladigan xo'jalik sub'ektlari ro'yxati maxsus kitobda ro'yxatga olinadi va kompyuterlarga kiritiladi.

Har bir xo'jalik sub'ekti uchun har oyda tashrif varaqasi tuzilib, unga sub'ekt ro'yxatga olingan raqam beriladi. Pul tushumining hajmiga qarab, xo'jalik sub'ektlariga tegishli tartibda zarur xaltalar sotiladi.

Xo'jalik sub'ekt tomonidan plomba (xo'jalik sub'ektining qisqartirilgan nomi yozilgan) 3 nusxada bankka taqdim etilishi kerak.

Har bir xo'jalik sub'ekti inkassatorlarga pul topshirayotganda xaltalarga ilova qaydnomasini 3 nusxada yozib beradilar. 1-nusxa - inkas-

satsiya xaltasiga; 2-nusxa - inkassatorga; 3-nusxa - mijozda qoladi.

Pul solingan xaltani qabul qilishdan avval inkassator pul topshiruvchiga fotosurati bo'lgan shaxsiy guvoxnomasini, pul tushumini olish uchun tegishli shakldagi ishonchnomani, tashrif varaqasini taqdim etishi kerak. Pul topshiruvchi javobgar shaxs inkassatorga pul solingan xaltani topshirishda tashrif varaqasida ko'zda tutilgan barcha yozuvlarni qayd etadi.

Pul solingan xaltalarni qabul qilib olishda inkassator quyidagilarni tekshiradi:

xaltaning yaroqliligi va butligi;

uning to'g'ri plombalanganligini (plomba izining aniqligi va namuna bilan birligi);

qabul qilinayotgan va topshirilayotgan xaltalarning raqamlari tashrif varaqasida, yukxatda va kvitansiyada ko'rsatilgan raqamlarga mos kelishini;

xo'jalik yurituvchi sub'ektning javobgar shaxsini yukxat va kvitansiyalarga imzo qo'yganligini;

tashrif varaqasida ko'rsatilgan pul tushumi summasining yukxat va kvitansiyadagi yozuvlarga mos kelishini hamda raqam va so'z bilan yozilgan summalarning o'zaro mos kelishini;

kvitansiyaning 3-nusxasiga imzo qo'yib, unga sana, qabul qilib olinayotgan xaltaning raqamini yozib, yo'nalish muxrini bosadi. Shundan so'ng xo'jalik yurituvchi sub'ektning javobgar shaxsiga bo'sh xaltani beradi.

Banklarga olib kelingan pul tushumli xaltalarni inkasqsatorlar bankning kechki kassasiga nazoratchi - buxgalterga topshiradilar. Xaltalar tegishli daftarlarga imzo qo'yilgan holda topshiriladi. O'z navbatida, kassir naqd pul solingan xaltalarni qabul qilib olishda quyidagilarni tekshiradi:

pul solingan xaltalarning butligi (yirtiq, yamoq);

plomba izining aniqligi va tasdiqlangan namunalarga mos kelishi;

xaltalar raqamlarining yukxatlarda ko'rsatilgan raqamlarga mos kelishi;

tanga solingan qoplarning soni, tushumning umumiy summasi yukxatlarda ko'rsatilganiga mos kelishi va boshqalar.

Agar nuqsonli xalta aniqlansa, u holda kassir, nazoratchi buxgalter va inkassator ishtirokida xalta ochilib, uning ichidagi qimmatdorklar sanaladi. Kamchilik aniqlansa, 3 nusxada dalolatnoma tuziladi. Unga barcha qatnashgan shaxslar imzo qo'yadilar.

1-nusxa - bank yig'ma jildiga;

2-nusxa - tergov organlariga;

3-nusxa - pul topshirgan xo'jalik sub'ektiga beriladi.

Pul tushumlarini o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash va bankdan tashqari muomalasini qisqartirish bo'yicha VM №280 (5.08.02 y. dagi) raqamli qaroriga asosan inkassatorlik guruhi tarkibiga DS xizmatining xodimini kiritish majburiy qilib belgilandi. Bu esa pul muomalasini mustahkamlashga yordam beradi.

## Qisqacha xulosa

Pul muomalasi pulning doimo aylanishda bo'lishi, o'z vazifalarini uzluksiz bajarib turishi orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni naqd va naqd bo'lmagan pullarning o'z vazifalarini bajarishidagi harakati pul muomalasini keltirib chiqaradi.

Har bir davlatda pul muomalasi ma'lum qonun va qoidalar asosida tartibga solib turiladi.

Kassa aylanishlarini tuzishdan asosiy maqsad naqd pulga bo'lgan ehtiyojni butun respublika hududlar va bank muassasalari bo'yicha aniqlash hamda pul muomalasini barqarorlashtirish tadbirlarini ishlab chiqishni amalga oshirishdan iborat. Kassa aylanishlari prognozi barcha naqd pullarning bank kassalariga kelib tushish manbalari va xajmini, korxonalar va tashkilotlar, muassasa va alohida shaxslarga beriladigan barcha naqd pullarning miqdori va ularning qanday maqsadga yunaltirilganligini hamda emissiya natijasi, yani pulni muomalaga chiqarish yoki muomaladan olish holatini o'zida aks ettiradi.

## Nazorat uchun savollar

1.Pul tushumlarini inkassatsiya kilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

2.Pul muomalasini bashoratlash qanday amalga oshiriladi?

3.Kassa aylanishlarini tuzishdan asosiy maqsad nima?

## Tayanch so'z va birikmalar

Bashoratlash; pul islohoti; balans; pul qoldig'i; kassa rejasi; depozitlar; kirim moddalari; chiqim moddalari; ramzlar; kassa aylanishi; kassa buyurtmanomasi; omonatlar; monitoring; inkassatsiya.

# VII BOB. EMISSIYA-KASSA OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH

## 7.1. Emission operatsiya tushunchasi. Emissiya turlari, pul belgilarining kafolatlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda pul muomalasini tartibga soluvchi yagona bank hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri emissiya operatsiyasi hisoblanadi. "Emissiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "miqdor" degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunda emissiya operatsiyalari faqat muomalaga pul chiqarish va olishnigina emas balki soxta pullarni aniqlash kabi ishlarni ham o'z ichiga oladi.

Barchaga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yagona emissiya va zahira banki hisoblanadi. Unga O'zbekiston Respublikasi xududida pulni muomalaga chiqarish va muomaladan qaytarib olishning yagona huquqi berilgan. U tomonidan O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida naqd pul birligini boshqarish tartibi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri pul emissiyasi vazifasini bajarishdir, ya'ni muomalaga pul chiqarish va muomaladagi ortiqcha pul belgilarini muomaladan olish Markaziy bankka yuklatilgan. Emissiya operatsiyalarini bajarish uchun pul zahira fondlari bo'lishi lozim.

Markaziy bank emissiya operatsiyalarini bajarish maqsadida, Markaziy bank tasarrufidagi hududiy boshqarmalarida hisob-kitob kassa markazlari va ularning filiallarini ochadi. Bunda banklarni naqd pul bilan ta'minlash va ulardan limitdan ortiqcha bo'lgan kassa qoldiqlarini qabul qilish uchun Markaziy bank ruhsati bilan pul biletlari metall tangalarning zahira fondlari tashkil etiladi.

Naqd pul, pul biletlari va tangalar ko'rinishida bo'ladi. Markaziy bank *pul biletlari va tangalarining zahira fondlari uning ruxsati* bilan hisob-kitob kassa markazi va ularning shahobchalaridagi pul omborlarida tashkil etiladi. Ruxsat olish uchun Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmalari Markaziy bankning emissiya kassa operatsiyalari departamentiga ruxsat berish to'g'risidagi zahira fondini ochish zarurligiga asoslangan iltimosnoma va pul omborining to'ldirilgan pasportini taqdim etadi.

### 7.2. Emissiya operatsiyalarini tashkil etish qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqarmasi zahira fondlarini ochish to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqadi. Boyliklar saqlanishi, ularga doir operatsiyalar bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan me'yorlarga muvofiq ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit mavjudligini tekshiradi. Shundan so'ng zahira fondlarini tashkil etish uchun ruxsatnomani beradi. Shu bilan birga, zahira fondlarining limitlari ham belgilab beriladi.

Zahira fondlarining belgilangan limitidan oshib ketishiga ruxsat etiladi. Zahira fondlarining limit ko'rinishidagi xajmi quyidagi tartibda belgilanadi:

Markaziy bank zahira fondlari limitini butun respublika buyicha tasdiqlaydi va Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmalari zahira fondlari limitini belgilaydi, shu bilan birga, Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmalari belgilangan zahira fondlari limiti doirasida hisob-kitob kassa markazlari va ularning filiallari uchun zahira fondlari limitini belgilab boradi.

Bunda zahira fondlarining belgilangan limiti pul biletlari bo'yicha - bank kassasidan bir oyda olinadigan naqd pulning

o'rtacha miqdoridan, tangalar buyicha yarim yillik o'rtacha chiqimdan kam bo'lmasligi kerak.

Zahira fondlariga ko'shimcha olingan pul biletlari va tangalar zahira fondlari hisobiga ilova hujjatlarida ko'rsatilgan miqdorda to'liq kiritiladi.

Hisob-kitob kassa markazining zahira fondlarining eskirgan pul biletlari qoldig'i belgilangan limitga kiritilmaydi. Zahira fondlari temir javonlarda va po'lat sandiqlarda saqlanadi.

Pul biletlari va tangalarning zahira fondlari O'zbekistan Respublikasi Markaziy bankining ixtiyorida bo'lib, faqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi raisining yoki boshqaruv raisi o'rinbosarining muomalaga pul chiqarish yoki ularni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa mintaqaviy hisob-kitob kassa markazlariga jo'natish haqidagi yozma ko'rsatmasi asosida sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqarmalarining rahbarlari zahira fondlarini tasarruf etadilar. Mintaqaviy hisob-kitob kassa markazlarining shahobchalari rahbarlari esa ularni lavozimiga tayinlash tug'risidagi buyruq asosida zahira fondlariga doir operatsiyalarni amalga oshiradilar. Markaziy bank bosh muassasasida zahira fondlarida saqlanuvchi pul biletlari va tangalar shu muassasa rahbarlari, bosh buxgalter va kassa mudirlarining bevosita javobgarligida bo'ladi. Zahira fondlari ba'zan to'ldirilib turiladi.

## 7.3. Rezerv fondi va oborot kassasi, emissiya operatsiyalarni tashkil qilishdagi ularning ahamiyati. Emissiya operatsiyalarini muvofiqlashtirish.

Markaziy bank mintaqaviy hisob-kitob kassa markazlarining pul biletlari va tangalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining farmoyishiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa hi-

sob-kitob kassa markazlarining zahira fondlarini to'ldirish uchun yuborilishi mumkin. Zahira fondlariga qo'shimcha olingan pul biletlari va tangalar zahira fondlariga ilova hujjatlarida ko'rsatilgan miqdorda to'liq kiritiladi. Zahira fondlari hisobiga kiritilishidan oldin pul biletlari va tangalar belgilangan tartibda bog'lamlab, dastalab va ustki yorliqlardagi yozuvlar bo'yicha tekshirilib chiqiladi. Agar pullar tartibsiz o'ralgan bo'lsa, ular qayta sanaladi. Pul ortiqcha chiqishi ham mumkin, ortiqcha chiqqan pul summasi qanchaligidan qat'iy nazar, pul oluvchi bankning aylanma kassasiga kiritiladi va bank daromadiga kirim qilinadi. Aksincha kamomad chiqsa, kamomad summasi aylanma kassasi hisobidan qoplanadi va jo'natuvchi bankning aybdor shaxslaridan undirib olish uchun alohida olishi lozim bo'lgan hisobvaraqga kirim qilib qo'yiladi. Pul belgilarining haqiqiy yoki qalbaki ekanligi, to'lovga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligi ham tekshiriladi. Qalbaki pul biletlarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ko'rsatmalariga amal qilinadi.

Zahira fondlarining limiti quyidagicha belgilanadi:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki zahira fondlari limitini umuman respublika bo'yicha tasdiklaydi. Shu bilan birga, Markaziy bank boshqarmalari va Markaziy bankning mintaqaviy hisob-kitob kassa markazlari uchun zahira fondlari limitini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqarmasi belgilangan zahira fondlari limiti doirasida o'ziga bo'ysunuvchi hisob-kitob kassa markazlari uchun zahira fondlari limitini belgilab beradi. Bunda zahira fondlarining belgilangan limiti pul biletlari bo'yicha bank muassasasi kassasidan bir oyda olinadigan naqd pulning o'rtacha miqdoridan, tangalar bo'yicha yarim yillik o'rtacha chiqimdan kam bo'lmasligi kerak.

Har bir bankning aylanma kassasiga limit o'rnatiladi. Aylanma kassalariga limit quyidagi tartibda belgilanadi:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki butunlay respublika bo'yicha aylanma kassalar limitini belgilaydi;

Markaziy bank viloyat bosh boshqarmalarining boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublika Markaziy bank boshqarmasi, Toshkent shahar bosh boshqarmasi boshliqlari Markaziy bank boshqaruvi tasdiqlagan aylanma kassasi limiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitob kassa markazlari aylanma kassalari va tijorat banklari boshqarmalarining operatsiya kassalarining limitlarini belgilaydi. Ya'ni Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmasi Markaziy bank tasdiklagan aylanma kassasi limiti doirasida hisob-kitob kassa markazi va ular filiallarining aylanma kassalari limitlarini belgilaydi. Aylanma kassa limitlari kun oxirida belgilanadi. Belgilangan limit summasi qayd etiladi va unga bank rahbari, bosh buxgalteri, kassa mudiri imzo chekadi.

Barcha mulkchilik shaklidagi tijorat banklarining aylanma kassalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatnomasiga ko'ra ochiladi.

Aylanma kassalaridan zahira fondlariga pul qo'yish topshiriqlari quyidagi tartibda belgilanadi:

– Markaziy bank aylanma kassasidan zahira fondlariga pul ko'yish yuzasidan Markaziy bank tasarrufidagi xududiy bosh boshqarmalariga topshiriq belgilaydi;

– Markaziy bank tasarrufidagi xududiy bosh boshqarmalari markaziy bankdan olingan topshiriq summasi doirasida banklarga naqd pullarni operatsiya kassasidan hisob-kitob kassa markazining aylanma kassasiga ko'yish bo'yicha topshiriq belgilaydilar.

Bank muassasalari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xususiy shaxslarga kassaga kelayotgan pullar hisobidan, shuningdek, operatsiya kuni boshida aylanma kassalarida mavjud bo'lgan pul qoldig'i hisobidan naqd pul beradilar.

Mavjud bo'lgan pul mablag'lari yaqin kunlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlar uchun yetarli bo'lmasa. hisob-kitob kassa markazi Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar boshqarmalaridan aylanma kassasi uchun yetmayotgan summa miqdorida pul so'raydilar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Markaziy bank boshqarmasining aylanma kassasiga mablag' berish uchun hisob-kitob kassa markazlarining buyurtmanomalarini olgach, aylanma kassalariga mablah berishga ruxsat berish masalasini ko'rib chiqadi va buyurtma bo'yicha tijorat banklariga berilishi lozim bo'lgan naqd pul summasini belgilaydi.

Tijorat banklari filiallari aylanma kassalarini naqd pul mablag'lari bilan ta'minlash tijorat bankining vakillik hisob-varaqlaridagi mablag'lar doirasida, zarur hollarda Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining hisob-kitob kassa markazlaridagi zahira jamg'armalaridan foydalangan holda cheklanmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasi zarur hollarda o'zining aylanma kassasini Markaziy bankning zahira jamg'armasidan zarur miqdorda naqd pullar bilan ta'minlash uchun ruxsat so'rab Markaziy bankka murojaat qilishi mumkin. Naqd pul bilan ta'minlash haqidagi telegrammalar Markaziy bank hududiy bosh boshkarmasi rahbari tomonidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul muomalasi departamentiga yuboriladi. Aylanma kassasini naqd pul bilan ta'minlash haqidagi telegrammada quyidagilar ko'rsatiladi:

- beshta belgidan iborat nazorat raqami, bunda dastlabki uch raqam, Markaziy bank hududiy bosh boshkarmasi aylanma kassasiga naqd pul berish haqidagi oxirgi marta olingan ruxsatnoma raqamining oxirgi uchta raqamiga to'g'ri keladi, oxirgi ikki raqami esa telegrammaning raqamiga to'g'ri keladi;

- aylanma kassasini ta'minlash haqida buyurtma (kod bilan);
- ta'minlanishi zarur bo'lgan naqd pul summasi (kod bilan) Markaziy bank hududiy bosh boshkarmasi aylanma kassasini ta'minlash hisob-kitobini tijorat banklarining buyurtmalarini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Aylanma kassasini Markaziy bank zahira jamg'armasidan naqd *pul bilan ta'minlash bo'yicha ruxsatnoma buyruq asosida zahira* jamg'armalarini tasarruf etish huquqi berilgan Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasi aylanma kassasidan tijorat banklarining aylanma kassalariga naqd pullarni yetkazish "Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatdorklarni tashishga doir yo'riqnoma"ga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tarkibiy bo'linmalari Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasi aylanma kassasini naqd pul bilan mustahkamlash bo'yicha buyurtmalar, berilgan ruxsatnomalar va ularning ishlatilishi buyicha hisobini yuritadilar.

Muomalaga pul chiqarish uchun emissiya ruxsatnomasiga quyidagilar tomonidan imzo chekiladi:

a) Markaziy bankda - Markaziy bank raisi;

b) Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshkarmalarida - bosh boshqarma boshlig'i.

Emissiya ruxsatnomalari - Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarma boshlig'iga pullarni zahira fondlaridan aylanma kassasiga olingan ruxsatnomalar bo'yicha ko'rsatilgan summalar doirasida o'tkazishga ruxsat berish, hisob-kitob kassa markazlari direktorlariga pullarni zahira fondlaridan aylanma kassasiga Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmalarining muxri bosilgan har bir ruxsatnomalarning summasi doirasida

o'tkazish huquqlarini beradi. Zahira fondlaridan aylanma kassaga pul o'tkazish uchun berilgan emissiya ruxsatnomalarida pulning banknotlar va tangalarga ajratilgan umumiy summasi ko'rsatiladi. Markaziy bank hisob-kitob kassa markazining rahbari naqd pul aylanmasiga bo'lgan ehtiyojga qarab muomalaga banknotlar va tangalarni chiqarish normasini belgilaydi. Zahira fondlaridan aylanma kassasiga pul o'tkazish uchun emissiya ruxsatnomalaridan Markaziy bank boshqarmalari ruxsatnomani olgan kundan tashqari 10 ish kuni davomida, Markaziy bankning hisob-kitob kassa markazlari ruxsatnoma olingan kundan tashqari 4 ish kuni davomida to'liq yoki qisman foydalanishlari mumkin.

Eng avval, olingan emissiya ruxsatnomasining mazmuni va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish hamda kod to'g'ri talqin etilishini ta'minlash talab etiladi. Emissiya ruxsatnomasidagi summa nazorat kaliti bilan solishtiriladi. Emissiya ruxsatnomasining raqami, mansabdor shaxslarning imzolari borligi tekshirilib ko'riladi. Shundan so'ng, ushbu emissiya ruxsatnomasi hisob-kitob markazlarida yuritiladigan maxsus daftarga ro'yxatga olinadi. Shu daftarda zahira fondlaridan olingan pul miqdori qayd etiladi.

Tijorat banklari aylanma kassasiga kerakli pul mablag'larini olish uchun Markaziy bankning viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar bosh boshqarmasining pul muomalasi bo'limiga oldindan buyurtma beradilar va emissiya ruxsatnomasi asosida naqd pulni Markaziy bankning hisob-kassa markazining aylanma kassasidan yoki inkassatorlar orqali oladilar. Operatsiya kassasining qoldig'i limitdan oshib ketgan taqdirda tijorat banki muassasasining mansabdor shaxslari aynan shu pulni operatsiya kassasining limitdan ortiqcha qoldig'ini Markaziy bank hisob-kitob kassa markazining aylanma kassasiga topshirishlarini tashkil etishlari yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshidagi

inkassatsiya birlashmasining inkassatorlari orqali boshqa tijorat bankini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlashni tashkil etishlari lozim. Operatsiya kassasining qoldig'i hech vaqt limitdan oshib ketmasligi maqsadga muvofiq. Emissiya ruxsatnomasisiz muomalaga pul chiqarish, muomalaga emissiya ruxsatnomasida ko'zda tutilgan miqdordan ko'p va ruxsatnomadan foydalanish muddati tugagandan so'ng pul chiqarish, zahira fondlariga pul o'tkazish topshiriqlarining bajarilmasligi, aylanma kassalari limitining oshib ketishi emissiya -kassa intizomini buzish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar hamda hududiy bosh boshqarmalari hisob-kitob kassa markazlarida emissiya operatsiyalari hisobini yuritish va nazoratini olib borish uchun, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga muvofiq ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari ochilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda emissiya-kassa operatsiyalarini olib borish ishlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida kassa ishini tashkil etish va qimmatdorliklarni tashishga doir yo'riqnomaga muvofiq amalga oshirilib kelinmoqda.

## Qisqacha xulosa

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki zahira fondlari limitini umuman respublika bo'yicha tasdiklaydi. Shu bilan birga, Markaziy bank boshqarmalari va Markaziy bankning mintaqaviy hisob-kitob kassa markazlari uchun zahira fondlari limitini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqarmasi belgilangan zahira fondlari limiti doirasida o'ziga bo'ysunuvchi hisob-kitob kassa markazlari uchun zahira fondlari limitini belgilab beradi. Bunda zahira fondlarining belgilangan limiti pul biletlari

bo'yicha bank muassasasi kassasidan bir oyda olinadigan naqd pulning o'rtacha miqdoridan, tangalar bo'yicha yarim yillik o'rtacha chiqimdan kam bo'lmasligi kerak.

Har bir bankning aylanma kassasiga limit o'rnatiladi. Aylanma kassalariga limit quyidagi tartibda belgilanadi:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki respublika bo'yicha aylanma kassalar limitini belgilaydi;

Markaziy bank viloyat bosh boshqarmalarining boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublika Markaziy bank boshqarmasi, Toshkent shahar bosh boshqarmasi boshliqlari Markaziy bank boshqaruvi tasdiqlagan aylanma kassasi limiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitob kassa markazlari aylanma kassalari va tijorat banklari boshqarmalarining operatsiya kassalarining limitlarini belgilaydi. Ya'ni Markaziy bank tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmasi Markaziy bank tasdiklagan aylanma kassasi limiti doirasida hisob-kitob kassa markazi va ular filiallarining aylanma kassalari limitlarini belgilaydi. Aylanma kassa limitlari kun oxirida belgilanadi. Belgilangan limit summasi qayd etiladi va unga bank rahbari, bosh buxgalteri, kassa mudiri imzo chekadi.

Barcha mulkchilik shaklidagi tijorat banklarining aylanma kassalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatnomasiga ko'ra ochiladi.

## Nazorat uchun savollar

1.Emissiya nima?

2.Emission operatsiya tushunchasi.

3.Markaziy bankning hisob-kitob kassa zahira fondlari nima maqsadda ochiladi?

4.Zahira fondlarining limiti qanday belgilanadi?

5.Aylanma kassalariga limit qanday tartibda belgilanadi?

6.Aylanma kassalaridan zahira fondlariga pul qo'yish topshiriqlari qanday tartibda belgilanadi?

7.Emissiya ruxsatnomasiga kimlar imzo chekadilar?

## Tayanch so'z va birikmalar

Emissiya; pul belgilari; kafolat; zahira; pul biletlari; tangalar; departament; zahira fondi; aylanma kassa; telegramma; nazorat raqami; buyurtma; qimmatdorklar.

# ADABIYOT

## 1. Qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari va hukumat qarorlari

1. O'zbekistan Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni. O'zbekistan Respublikasi moliyaviy qonunlari. 1-3. Toshkent, 2004. 23-47-betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr. Ushbu Qonunga O'zbekiston Respublikasi 2002 yil 15 dekabrdagi 175-P-sonli Qonunining XII bobi, 2002 yil 13 dekabrdagi 447/11-sonli Qonunining VIII bobi bilan so'nggi o'zgartirishlar kiritilgan. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. —T.: "O'zbekiston", 2003, 7-29-betlar.

3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - T.: "O'zbekiston", 2003. 30-46-betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 avgustdagi PK.-147-sonli "Banklardagi depozit hisobvaraqlardan naqd pul to'lovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari to'g'risida" gi Qarori. "O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. 1-11. Toshkent, 2005. 19-28-betlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi PK-10-sonli "Eksport-import operastiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy konunlari. 1-4. Toshkent, 2005. 35-6.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi PK-56-sonli «Bank tizimini yanada islox kilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy konunlari. 1-5. Toshkent, 2005. 47-51-betlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 yanvardagi 24-sonli «Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - T.: «O'zbekiston», 2003. 112-116-betlar.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 avgustdagi 280-sonli «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. O'zbekiston bank tizimini isloh, qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - T.: «O'zbekiston», 2003. 156-159-betlar.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 fevraldagi 63-sonli "Pul-kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - T.: «Uzbekiston», 2003. 178-179-betlar.

10. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investistiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. - T.: "O'zbekiston", 2005, 528 b.

11. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yo'lida. - T.: "O'zbekiston", 1995, 270 b.

12. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asrga intilmokda. - T.: "O'zbekiston", 1999, 486.

13. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: "O'zbekiston", 1998, 686 б.

**II. Maxsus adabiyot**

1. Barinov E.A. Valyutno-kreditnie otnosheniya vo vneshney torgovle. —M.:Federativnaya Knigotorgovaya Kompaniya, 1998.- 272s.

2. Barinov E.A. Rinki: valyutnie i stennix bumagi. —M.: "Ekzamen ", 2001.-608 s.

3. Berje Per. Denejniy mexanizm. — M.: AO Izd. gruppa «Progress», 1993. -144 s.

4. Bratko A.G. Stentralniy bank v bankovskoy sisteme Rossii. _ m.: SPARK, 2001. -335 s.

5. Bunkina M.K. Valyutniy rinok. —M.: AO «DIS», 1995. -112s.

6. Burenin A.N. Rinki proizvodnix finansovix instrumentov. —M.: INFRA-M, 1996. -368 s.

7. Burenin A.N. Fyuchersnie, forvardnie i opstionnie rinki. —M.: "Trivola", 1995. -240 s.

8. Boboqulov T. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash: muammolari va echimlar. - Toshkent. "Fan va texnologiya", 2007 y.

9. Valovaya T.D. Valyutniy kurs i ego kolebaniya. —M.: AO «Finstatinform», 1995. -92 s.

10. Vaxabov A.V. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya. -T., 2003. -260 s.

11. Davlatning makroiqtisodiy siyosati. - T:, "Akademiya", 2007.

12. Edvin Dj. Dolan, Kolin D. Kempbell. Dengi, bankovskoe delo i denejno-kreditnaya politika: per. s angl./ - M., 1996. -448 s.

13. Dushaev B.M. Monetarnaya politika. - T.: "IQTISOD MOLIYA", 2005. -120 s.

14. Deniele Djon. Mejdunarodniy biznes: vneshnyaya sreda i delovie operastii. Per. s angl. —M.: DELO Ltd, 1994. -784 s.

15. Jumaev N.X., Kudaybergenov J.Sh. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. Valyutniy kurs i puti ix regulirovaniya. -T.: «IQTISOD MOLIYA», 2006, -132 s.

16. Jumaev N.X., Maxsumov E.M. Xalqaro moliya munosabatlari: Valyuta operastiyalarini boshqarish mexanizmi. - T.: "IQTISOD MOLIYA", 2006.128 b

17. Irishev B.K. Denejno-kreditnaya politika: konstepstiya i mexanizm. Alma-Ata: - "Gilim" 1990.

18. Kazimagomedov A.A., Ilyasov SM. Organizastiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. - M.: "Finansi i statistika", 2001. -272 s.

19. Kiduell D.S., Peterson R.L., Blekuell D.U. Finansovie instituti, rinki i dengi. - S-Pb.: Piter. 2000. -752 s.

20. Krasavina L.N. Dengi i regulirovanie denejnogo obrasheniya: teoriya i praktika. —M.: «Finansi i statistika". 2002. -222 s.

21. Krasavina L.N. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya: 2-e izd.. pererab. i dopol. —M.: "Finansi i statistika". 2003.-608 s.

22. Krasheninnikov V.M. Valyutnoe regulirovanie v sisteme gosudarstvennogo upravleniya ekonomikoy: - M.: "Ekonomika". 2003.-399 s.

23. Miller R.L., Devid D. Van-Xoz. Sovremennie dengi i bankovskoe delo. —M.: INFRA-M, 2000. -856 s.

24. Mishkin, Frederik. Ekonomicheskaya teoriya deneg, bankovskogo dela i finansovix rinkov. - M.: "Aspekt Press", 1999. -820 s.

25. Moiseev SR. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya. —M.: "Delo i servis", 2003. -576 s.

26. Mullajanov F.M. Bankovskaya sistema O'zbekistona v godi nezavisimosti. - T.: O'zbekiston, 1996. -205 s.

27. Mullajanov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi: O'zbekiston Respublikasi mustakilligining o'n yilligiga bag'ishlanadi. - T.: "O'zbekiston", 2001. 296-6.

28. Perar J. Upravlenie mejdunarodnimi denejnimi potokami. —M.: «Finansi i statistika», 1998. -208 s.

29. Prinyatie kosvennix instrumentov denejno-kreditnoy politiki. Ch. 1-2./ E. Aleksandera Uilyama. Vashington, SShA: Mejdunarodniy Valyutniy Fond. 1995. -119 s.

30. Ribin V.I. Novaya edinaya evropeyskaya valyuta evro: Programma TASIS MGU imeni M.V. Lomonosova. —M.: "Finansi i statistika", 1998. -390 s.

31. Smit Vera. Proisxojdenie stentralnix bankov. M.: "Institut Nastionalnoy modeli ekonomiki. 1996. -283 s.

32. Tojiev R., Jumaev N. Markaziy bankning monetar siyosati. - T.: ToshDIU, 2002.

33. Fisher, Irving. Pokupatelskaya sila deneg. Akademiya narodnogo xoz-va pri Pravitelstve RF. —M.: "DELO", 2001.-319 s.

34. Fridmen, Milton. Osnovi monetarizma. A programm for monetary stability: Per.s angl. —M.:"Teis", 2002. -175 s.

35. Xayek, Fridrix A. Chastnie dengi: per. s angl. —M.: In-t Nastionalnoy modeli ekonomiki. 1996. -230 s.

36. Xerris, Dj. Menvill. Mejdunarodnie finansi: per. s angl. —M.: Informastionno-izdatelskiy dom «Filin'», 1996. -296 s.

37. Щerbakova G.N. Bankovskie sistemi razvitix stran. -M.: Ekzamen, 2001.-224 s.

38. Buiter W.H. Central Banking and the Choice of Currency Regime in Accession Countries/ W.H.Buiter, C.Grafe. Vienna: Societe Universitaire Europeenne de Recherches Financieres, 2001. -52 p.

39. Driscoll D.D. What is the International Monetary Fund. Washington: International Monetary Fund, 1996. -23 p.

40. Moffitt M. The World money International banking from Bretton Woods to the brink of insolvency. London: Michael Joseph, 1984.-284 p.

41. Rana P.B. Monetary and Financial Cooperation in East Asia: The Chiang Mai Initiative and Beyond. Manila, Philippines: Asian Development Bank, 2002. -21 p.

**III. Jurnallar**

1. Konstantinov Yu.A. Ukreplenie rublya: vzglyad s pozistii teorii i kursovoy politiki // Bankovskoe delo. Moskva, 2007. №3. -6-11 s.

2. Ulyukaev A.V. Denejno-kreditnaya politika banka Rossii: aktualnie aspekti // Dengi i kredit. Moskva, 2006. №5. -3-8 s.

3. Krasavina L.N. Neobxodim kompleks mer dlya snijeniya tempa inflyastii v Rossii //Bankovskoe delo.Moskva, 2006.-25-30 s.

4. Piıqik V.Ya. Politika FRS po regulirovaniyu inflyastii // Bankovskoe delo. Moskva, 2006. -33-37 s.

5. Navoy A. O raschete i ispolzovanii realnogo kursa nastionalnoy valyuti v ramkax denejno-kreditnoy politiki // Voprosi ekonomiki. Moskva. 2006. №2. -65-74 s.

6. Varyash I.Yu. Upravlenie operastionnimi riskami Stentrobanka // Bankovskoe delo. Moskva, 2003. №9. -28-31 s.

7. Denisova M.V. Strategiya Evropeyskogo Stentralnogo banka // Bankovskoe delo. Moskva, 2002. №6. -18-20 s.

8. Bajan A.I. Denejno-kreditnaya politika: neudachnoe zaimstvovanie zapadnoy modeli // Bankovskoe delo. Moskva, 2003. №6.-2-7 s.

9. Mullajonov F.M. Bank tizimi - iqtisodiy isloxotlar etakchisi // Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2004. №7. Z-8-b.

**IV. Avtoreferatlari**

1. Bobokulov T.I. Voprosi denejno-kreditnogo regulirovaniya ekonomiki: 08.00.07.: Avtoref. diss... kand. ekon. nauk. Bankovsko-finansovaya akademiya. Tashkent, 1997. -20 s.

2. Namozov O.Sh. Monetarnaya politika v perexodnoy ekonomike: konsteptualnie podxodi i programmnie napravleniya (na primere Respubliki O'zbekiston): 08.00.07: Avtoref. dis...doktora ekon. nauk. Tashkent, Bankovsko-Finansovaya akademiya Respubliki O'zbekiston. 2001.-41 s.

# MUNDARIJA


KIRISH......3

**I BOB.** IQTISODIYOTNI PUL-KREDIT ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH ASOSLARI......6

**II BOB.** PUL-KREDIT VOSITALARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI......19

**III BOB.** MARKAZIY BANK-PUL MUOMALASINI MUVOFIQLASHTIRUVCHI ORGAN SIFATIDA......33

**IV BOB.** PUL MUOMALASINI TARTIBGA SOLISH USULLARI VA UNING XUSUSIYATLARI......54

**V BOB.** NAQD PUL MUOMALASI VA UNI TASHKIL ETISH ASOSLARI......93

**VI BOB.** PUL MUOMALASINI BASHORATLASH......*109*

**VII BOB.** EMISSIYA-KASSA OPERATSIYALARINI TASHKIL ETISH......142

ADABIYOT......153

Astanov X.Z.

# PUL-KREDIT ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH

**«Tafakkur Bo'stoni»**
**Toshkent – 2015**

**Muharrir** *Z.T. Taxirov*
**Musahhih** *A. Xo'jabekov*
**Sahifalovchi** *U. Vaxidov*
**Dizayner** *D. O'rinova*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y
Bosishga 2015 yil 5 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi.
Times New Roman garniturasi. Shartli bosma tabog'i. 10,0. Nashr tabog'i 10,2.
Shartnoma № 31/14. Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 35/14.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy
Telefon: (+99893) 589-05-78. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi. 1 uy.

«TAFAKKUR BO'STONI»
NASHRIYOTI

978-9943-993-05-1

9 789943 993051